

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**AKADEMIK LISEYLAR PEDAGOG KADRLARI
MALAKASINI OSHIRISH KURSI
“ONA TILI VA ADABIYOT” yo‘nalishining**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FANINING NAZARIY ASOSLARI

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV–USLUBIY MAJMUA

BUXORO-2025

Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **N.I.Adizova** – BuxDU O'zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Taqrizchilar: **D.N.Yo'ldosheva** – BuxDU O'zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrası pofessori, f.f.d.(DSc)

*Ishchi o'quv dasturi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish
instituti Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.*

(2024-yil 27-dekabrdagi dagi 5-sonli bayonnoma)

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
I I. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI.....	10
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MA‘LUMOTLAR.....	12
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	48
V. KEYSLAR BANKI	109
VII. GLOSSARIY	110
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	113

I. ISHCHI DASTUR

Ushbu ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 2-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar hamda namunaviy dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan mavzular orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan filolog pedagoglarni ona tili va adabiyot fanini o'qitishning zamonaviy metodlariga oid bilimlar darajasini kengaytirish va chuqurlashtirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Modulning maqsad va vazifalari

Modulning maqsadi tinglovchilarni til va adabiyot ta'limi jarayonining yaxlitligi tamoyili, zamonaviy o'qitish usullari va qonuniyatlari, nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda ona tili va adabiyot darsliklaridagi mavzu va ma'lumotlardan foydalanish; ona tili o'qitishning o'ziga xosligi va uni zamonaviylashtirishga amal qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishdan iborat

Modulning vazifalariga quyidagilar kiradi:

-pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz oshirish va rivojlantirish;

-pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o'qitish sifati va samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy raqamli texnologiyalar va xorijiy tillarning samarali o'zlashtirilishini ta'minlash;

-o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

-o'quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

"O'zbek tili va adabiyoti fanining nazariy asoslari" modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- Fonetika va leksikologiya, unga oid yangi qarashlarni;
- Fonetik birliklar va ularning vazifalarini;
- Leksema va so'z belgilarini;
- Sintaksis, so'z birikmasi va gapni;
- Leksik ma'no taraqqiyotini;
- Mumtoz adabiyot va unga oid asarlarni tahlil qilish tamoyillarini;
- Jadid adabiyoti va uning o'ziga xosligini **bilishi** lozim.

Tinglovchi:

- So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini ajratish;
- Grammatika va punktuatsiya, unga oid yangi qarashlarni baholash;
- XIII-XVII asrlar adabiyoti va unga oid qarashlarni tahlil qilish;
- Eng qadimgi adabiyot va unga oid yangi qarashlarni o'rganish;
- Tinish belgilari ishlatilishi bilan bog'liq qarashlar tahlilini amalga oshirish

ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- Zamonaviy adabiyot, tahlil tamoyillari va uning o'ziga xosligini baholash;
- Morfologiya, so'z turkumlari haqidagi qarashlar tahlilini amalga oshirish;
- Gapni sintaktik tahlil qilish tamoyillarini qo'llash **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi			Mustaqil ta’lim
			Jami	jumladan		
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	
1.	Fonetika, leksikologiya, unga oid yangi qarashlar va morfologiya, soʻz turkumlari haqidagi qarashlar tahlili	2	2	2		
2.	Sintaksis, stilistika, punktuatsiya va unga oid yangi qarashlar tahlili	2	2		2	
3.	Mumtoz va zamonaviy adabiyotga oid asarlar tahlili. Jadid adabiyoti va uning oʻziga xosligi	2	2		2	
Jami:		6	6	2	4	

NAZARIY MASHG'ULOT MAVZUSI

1-mavzu: Fonetika, leksikologiya, unga oid yangi qarashlar va morfologiya, so'z turkumlari haqidagi qarashlar tahlili(2 soat).

Fonetika, leksikologiya hamda morfologiya bo'limlari va unga oid yangi qarashlar. Fonetik birliklar va ularning vazifalari. Leksema va so'z belgilari. Leksik ma'no taraqqiyoti. So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Grammatika va unga oid yangi qarashlar. Morfologiya, so'z turkumlari haqidagi qarashlar tahlili.

AMALIY MASHG‘ULOT MAVZULARI

1- amaliy mashg‘ulot: Sintaksis, stilistika, punktuatsiya va unga oid yangi qarashlar tahlili (2 soat amaliy)

Morfologiya, so‘z turkumlari haqidagi qarashlar tahlili. Sintaksis, so‘z birikmasi va gap. Gapni sintaktik tahlil qilish tamoyillari. Tinish belgilari ishlatilishi bilan bog‘liq qarashlar tahlili.

2-amaliy mashg‘ulot. Mumtoz va zamonaviy adabiyotga oid asarlar tahlili. Jadid adabiyoti va uning o‘ziga xosligi (2 soat amaliy)

Mumtoz adabiyot va unga oid asarlarni tahlil qilish tamoyillari. Eng qadimgi adabiyot va unga oid yangi qarashlar. XIII-XVII asrlar adabiyoti va unga oid qarashlar tahlili. Zamonaviy adabiyotning tahlil tamoyillari va o‘ziga xosligi. Jadid adabiyoti va uning o‘ziga xosligi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: O‘zbekiston, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: O‘zbekiston, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: O‘zbekiston, 2020. – 400 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi – T.: O‘zbekiston, 2021. - 464 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023
8. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentabr“Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4910-son Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risda” 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

14. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi - T.: Nodirabegim, 2020. - 142 b.

15. Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi - Farg‘ona: 2016.-108 b.

16. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya. - T.: Fan, 2013. - 136 b.

17.Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. - Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. -41b.

18.Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat. - T.: Nodirabegim, 2020.

19. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili - Buxoro: BuxDU nashri, 2000. -36 b.

20. Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: fil.fan.dok-ridis. avtoref. -Toshkent: O‘z.R. FA TAI, 2000-47b.

IV. Internet saytlar

21. <http://edu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

22. <http://lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

23. <http://lib.bimm.uz> - Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

24. <http://ziyonet.uz> - Ta’lim portali Ziyonet

25. <http://natlib.uz> -Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

B/B/B texnikasini qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatma.

1. Ma’ruza rejasiga mos holda 2-ustunni to‘ldiring.
2. O‘ylang, juftlikda hal eting va javob bering, ushbu savollar bo‘yicha nimani bilasiz, 3-ustunni to‘ldiring.
3. O‘ylang, juftlikda hal eting va javob bering, ushbu savollar bo‘yicha nimani bilish kerak, 4-ustunni to‘ldiring.
4. Ma’ruzani tinglang va vizual materiallar bilan tanishing.
5. 5-ustunni to‘ltiring.


B/B/B jadvali (Bilar edim/Bilishni xohlayman/Bilib oldim)

№	Mavzu savoli	Bilar edim	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				

Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga

uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan



III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU. FONETIKA, LEKSIKOLOGIYA, UNGA OID YANGI QARASHLAR VA MORFOLOGIYA, SO'Z TURKUMLARI HAQIDAGI QARASHLAR TAHLILI

REJA:

1. Fonetika va uning turlari.
2. Fonetik hodisalar: kombinator va pozision o'zgarishlar.
3. Nutq tovushlari tasnifi.
4. Leksikologiya va uning bo'limlari. So'z va leksema. So'zning semantik tarkibi.
5. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.
6. Tilning leksik qatlamlari va lug'at tarkibining boyishi manbalari.

Maqsad: *Fonetika va uning turlari, nutqning fonetik bo'linishi va fonetik tovush o'zgarishlari, nutq tovushlarining artikulyasiyasi, akustikasi va tasnifi, fonologiya va fonema haqida tushunchaga ega bo'lish, fonetik birliklar va o'zgarishlarni ajrata olishga o'rgatish. Leksikologiya va uning bo'limlari, so'z va leksema, so'zlarda ma'no taraqqiyoti, tilning leksik qatlamlari bo'yicha bilimlar va tasavvurni shakllantirish, so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari yuzasidan bilimlarni chuqurlashtirish.*

Fonetika (grekcha “fone” - tovush so'zidan olingan) tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, tildagi tovushlarni o'rganuvchi sohadir. Fonetika biror tildagi nutq tovushlarini, unli va undoshlarni, ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi qonuniyatlarini, umuman, inson tovushlarini (antropofonetikani) o'rganadi. Fonetika nutq apparati, bo'g'in va ularning tuzilishini tekshiradi, shuningdek, adabiy talaffuz normalarini, tovushlar o'zgarishlarini, urg'u, intonatsiya va uning turlarini ham o'rganadi.

Fonetika tilshunoslikning orfografiya, orfoyepeya, fonologiya, leksikologiya, grammatika, dialektologiya va boshqa sohalari bilan bevosita aloqadordir. Shuningdek, fonetika fizika, fiziologiya, medisina kabi fanlar bilan ham yaqin munosabatdadir.

Nutq tovushlari tarixiy, qiyosiy, tavsifiy, hozirgi holatiga ko'ra hamda turli sabablar vositasida o'rganilishi mumkin. Shunga ko'ra, fonetika 1) umumiy fonetika, 2) tarixiy fonetika, 3) qiyosiy fonetika, 4) chog'ishtirma fonetika, 5) tavsifiy fonetika, 6) eksperimental fonetika kabi turlarga bo'linadi.

1. Umumiy fonetika. Bunda umuman inson tovushlarining boshqa tovushlardan farqi, ularning ko'rinishlari, dunyo tillarida unli va undosh tovushlar tizimi, tillarda ularning

miqdori haqida ma'lumot beriladi. Umumiy fonetikada qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan tillarning fonetik sistemasi o'rganiladi.

2. Tarixiy fonetika. Bunda konkret bir tilning tovushlar sistemasini tarixiy nuqtai nazardan tekshiriladi. Biror tilning tovush sistemasidagi taraqqiyot va o'zgarishlari; ayrim tovushlarning iste'moldan chiqishi, yangi tovushlarning yuzaga kelishi yoki tovushlarning boshqa tovushlarga aylanishi, uning tarixiy sabablari o'rganiladi. Masalan: hozirgi o'zbek tilidagi so'zlar tarkibida qo'llanuvchi "y" tovushi VIII-XI da qo'llanuvchi asarlardan "z" tovushi holida qo'llanilgan. Bu tovushlar so'zlarda XIV asrdan keyin "y" tovushiga aylangan. Qiyoslang: adzaq – adoq - ayoq; bazram – bayram, qazg'u - qayg'u kabi.

3. Qiyosiy fonetika. Bunda bir qancha qarindosh bo'lmagan tillarning tovushlar sistemasi bir-biriga qiyoslanadi: masalan, rus va o'zbek, o'zbek va tojik, ingliz va rus, nemis va o'zbek kabi tillardagi tovushlar qiyoslanib, ulardagi o'xshash va noo'xshash tomonlar solishtiriladi.

4. Chog'ishtirma fonetika. Chog'ishtirma fonetika qarindosh bo'lgan, bir oilaga mansub tillarning fonetikasini bir-biriga chog'ishtiradi, solishtiradi, taqqsolaydi. Shu yo'l bilan ular o'rtasidagi o'xshash va noo'xshash tomonlarni o'rganadi.

5. Tavsifiy fonetika. Bunda biror konkret til tovush sistemasining hozirgi holati, unlilar, undoshlar, ularga xos belgilar, tovush o'zgarishlari o'rganiladi.

6. Eksperimental fonetikada nutq tovushlari maxsus zamonaviy asboblarda yordamida eksperimental yo'l bilan o'rganiladi. Shu yo'l bilan unlilardagi cho'ziqlik, qisqalik, undoshlardagi portlash va sirg'alish xususiyatlari juda aniq belgilanadi.

Nutq a'zolari. Nutq tovushlari ayrim a'zolarining bevosita yoki bilvosita harakati tufayli yuzaga keladi. Tovush hosil qilishda ishtirok etadigan barcha nutq organlari yig'indisi nutq apparati deyiladi. Biroq tovush hosil qilish ushbu a'zolarining birlamchi vazifasiga kirmaydi. Ushbu fiziologik a'zolarining asosiy vazifalari biologik bo'lib, ular, avvalo, insonga nafas olish va chiqarish, ta'm bilish, chaynash va taom yeyish kabi hayotiy funksiyalarni bajarish uchun kerak. Bu biologik xususiyatlar hayvonlarda ham bor. Biroq ong va tafakkur natijasida tilning yuzaga kelishi insonda ushbu a'zolarining ikkilamchi funksiyasini ham vujudga keltirdi va ushbu a'zolar nutq a'zolari vazifasini ham bajara boshladi. Nutq a'zolariga ko'krak qafasi, o'pka, kekirdak, tovush paychalari, tanglay, og'iz bo'shlig'i, jag', tish, lab, burun, til va boshqalar kiradi. Ushbu a'zolar tovush hosil qilishdagi ishtirokiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

Faol nutq organlari: til, kichik til, lab va pastki jag' kiradi.

2. Nofaol nutq organlari: kekirdak, ko'krak qafasi, yuqori jag', qattiq tanglay, burun, tish kiradi.

Insonda uchta bo'shliq: og'iz, burun, bo'g'iz bo'shliqlari bor bo'lib, nutq tovushlari, odatda, biror bo'shliqda paydo bo'ladi. Nutq tovushlarini hosil qilishda og'iz bo'shlig'i asosiy o'rin tutadi, chunki u shakl va hajm jihatdan har xil tusga kira oladi.

Og'iz bo'shlig'i tovush hosil qilishda rezonatorlik vazifasini bajaradi. Nutq apparati 3 qismdan iborat :

Ovoz paychalaridan pastki qism. Bu qismga o'pka, nafas olish yo'llari, kekirdak va diafragma (ko'krak qafasi bilan qorin bo'shlig'i o'rtasidagi parda) kiradi. Bu a'zolar havo manbai bo'lib, o'pkadan chiqqan havo tovush paychalarining yordami bilan ovoz hosil qiladi .

2. Bo'g'iz. Halqasimon va qalqonsimon tog'aylar bo'g'izda joylashgan. Bu ikki tog'ay o'rtasida ovoz paychalari o'rnashgan. Bo'yin chetlarida tovush paychalari bir-biriga to'la yoki deyarli to'la jipslashib turadi. Ovoz paychalarining ishtirokisiz ovoz chiqarish mumkin emas.

3. Ovoz paychalaridan yuqori qism. Bu qismga bo'g'iz qopqog'i , og'iz bo'shlig'i , burun bo'shlig'i , qattiq va yumshoq tanglay , til , kichik til , ustki va pastki tishlar , ustki va pastki lablar kiradi . Bular orasida eng harakatchan a'zo tildir.

Til harakati orqali til oldi , til o'rta , til orqa , chuqur til orqa tovushlari (unli va undoshlar) hosil qilinadi. Lab ham ancha faol nutq a'zosi bo'lib , b , p , m , v , f , o , o' , u kabi tovushlar hosil qilishda ishtirok etadi . Kichik til qattiq tebranib , xitoy va fransuz tillariga xos bo'lgan tovushlarni hosil qiladi. Bo'g'iz qopqog'i ham ayrim tillarda tovush hosil qiluvchi a'zo sanalib, arab tilida غ (ayn) tovushini hosil qiladi .

Nutq apparatining, ya'ni nutq a'zolarining harakati natijasida tovush hosil bo'lish jarayoni artikulyasiya deyiladi. Jahondagi barcha kishilarning nutq organlari bir xil tuzilgan bo'lsa ham, har bir tildagi tovushlarning talaffuzida ularning harakati turlicha bo'lishi mumkin. Ma'lum bir tilga xos bo'lgan nutq tovushlarini hosil qilishga muvofiqlashgan nutq apparati artikulyasiya bazasi deb ataladi. Bir tilning artikulyasiya bazasi shu tilga xos nutq tovushlarini hosil qiladi. Shuning uchun ham har bir tilga moslashgan nutq artikulyasiyasi bazasi ikkinchi bir tilning tovushlarini birdan to'g'ri talaffuz eta olmaydi. Buni ingliz tilini, koreys tilini o'rganish jarayonida kuzatish mumkin yoki, aksincha, ingliz xalqining rus, o'zbek tilida so'zlashish jarayoni ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Nutq tovushlari artikulyasiyasi. Muayyan tovushni hosil qilish uchun nutq apparati tomonidan bajariladigan amal shu tovushning artikulyasiyasi deb ataladi. Tovush artikulyasiyasi uch bosqichdan iborat bo'ladi:

1. Nutq organlarining biror tovushni hosil qilishga harakatlanishi. Bu bosqich ekskursiya deyiladi.

2. Tovushning hosil qilinishi jarayoni. Bu lyabor yoki viderjka deyiladi.

3. Nutq organlarining asl holiga qaytishi. Bu jarayon rekursiya deyiladi.

Ma'lum bir tilga xos bo'lgan tovushlarning talaffuziga muvofiqlashgan nutq organi artikulyasiya bazasi deyiladi. Artikulyasiyada ikki hodisa muhim rol o'ynaydi: birinchidan, artikulyasiya o'rni, ikkinchidan, artikulyasiya usuli. Tovush hosil qilishda nutq a'zolarining harakat etgan qismi artikulyasiya o'rni deyiladi . Masalan , b , p , m , v , f

kabi tovushlarni hosil qilishda lab ko'proq harakat qiladi, to'g'rirog'i labda hosil bo'ladi. Shuning uchun bu tovushning artikulyasiya o'rni labdir va shunga ko'ra lab undoshlari deyiladi. Yoki d, t, s, z, ch tovushlari tilning ustki tishlar va milkka tegishi bilan hosil bo'ladi. Bu tovushlarning artikulyasiya o'rni tilning old qismidir, shuning uchun bu tovushlar til oldi undoshlari nomini olgan.

Artikulyasiya usuli deganda tovush hosil qilish paytida nutq a'zolarining qanday holatda harakat qilishi tushuniladi. Masalan, v, z, y, x, sh, h kabi tovushlarni talaffuz qilganda nutq a'zolari bir-biriga yaqinlashadi, ammo havo oqimining chiqishi uchun torgina oraliq qoladi, havo oqimi ana shu oraliqdan sirg'alib chiqadi va bunday tovushlar artikulyasiya usuliga ko'ra sirg'aluvchi tovushlar nomini oladi. Portlovchi tovushlarni hosil qilishda esa havo oqimi jipslashgan a'zolar orasidan portlab chiqadi.

Tillarning artikulyasion bazalari bir-biridan farq qiladi. Masalan, ruscha tovushlarni hosil etishda nutq apparati bir tarzda harakat qilsa, o'zbekcha tovushlarni hosil etishda bir qadar boshqacha harakat qiladi.

Tovush akustikasi. Nutq tovushlari nutq organlarining harakati natijasida hosil bo'ladi. Tovushlarning fizik xususiyati akustikada o'rganiladi. Akustikada tovushning quyidagi xususiyatlari farqlanadi:

Tovush balandligi.

Tovush kuchi.

Tovush cho'ziqligi.

Tovush kuchi nutq organiga xavoning bergan zarbi bilan o'lchanadi. Ammo tovush kuchi tovush balandligi emas. Kuchli tovush past bo'lishi ham mumkin. Tovush kuchi zarbdan hosil bo'lgan tebranishning har bir silkinishidagi zarb yo'nalishi bilan belgilanadi. Uni fiziklar tilida tebranish amplitudasi deyiladi. Tebranish amplitudasi desibel bilan o'lchanadi. Urg'u tushgan bo'g'in unisida uning bali yuqori bo'ladi.

Tovush cho'ziqligi o'pkadan kelgan havoning nutq organiga urilish davomiyligi bilan o'lchanadi, ya'ni tovushga ketgan vaqt bilan bog'liq bo'ladi. Uni bir necha omillar belgilaydi. Nutq tezligi ortiq bo'lsa, undagi tovushlar cho'ziqligi ancha kam kechadi. Urg'uli bo'g'inlar tovushi boshqa bo'g'inlar tovushiga nisbatan ancha cho'ziqroq bo'ladi. So'zlardagi toq bo'g'inlar mutlaqo urg'usiz bo'lgani uchun qisqa, ko'pincha reduksiyaga uchragan (kuchsizlangan) holda qayd etiladi.

Tovushning cho'ziqligi m/sek birligi bilan o'lchanadi.

Odatda, tovush hosil bo'lish kechimidagi xavo tebranishi gs (gers) bilan o'lchanadi. Bir gst tovush payining berilgan zarbidan bir silkinib qaytishi bo'lib, bu silkinish xavoning bir tebranishida aks etadi. Inson 16 gs dan 20 ming gs gacha tovushni eshitish qobiliyatiga ega. Undan ortiq gst li tovushlar ultra tovush bo'lib, uni inson eshita olmaydi. Inson oddiy so'zlashuvda 100 gs dan 40 gs gacha balandlikdagi tovushni qo'llaydi. Insonning eng past tovushi bas deb atalib, 40 gs ga, eng baland tovushi saprano deb atalib, 170 gs ga ega bo'ladi.

Tovush paychalarining ko‘p yoki kam miqdorda tebranishi tovush paylaridagi imkoniyatga bog‘liqdir. Tovush paychalari yuqori bo‘lsa, ko‘p tebranish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Uning qalinligi shu imkoniyatini chegaralaydi. Odatda, ayollar va bolalarning tovush paychalari yupqa bo‘lib, erkaklarning tovush paylari katta yoshidan qalinlashadi. Shuning uchun erkaklarning tovushi yo‘g‘on va past, ayol va bolalarning tovushi ingichka va baland eshitiladi.

Bulardan tashqari, tovushning fizik xususiyatlariga ton, tembr, temp kabilar ham kiradi. Tovushning toni, ya‘ni intensivlik deganda kuchli va kuchsiz talaffuz, nafas kuchi nazarda tutiladi. Talaffuz vaqti, talaffuz tezligi (sekin, o‘rta va tez) nutq tempi deyiladi. Nutq jarayonida ovozning turli xil o‘zgarishi va shu orqali hissiy – ta‘siriy jihatdan ifodalanishi ovoz tembr deb ataladi.

Xullas, fonetika til sathida nutq tovushlarining yuqorida qayd etilgan fiziologik-artikulyasion, fizik-akustik xususiyatlari o‘rganiladi.

Fonetik tovush o‘zgarishlari. Nutq jarayonida tovushlar so‘z tarkibidagi o‘rni yoki yondosh tovushlar ta‘sirida turli **kombinator** yoki **pozision** o‘zgarishlarga uchraydi. Masalan, rus tilidagi *lodka* va *gorod* so‘zlarida [d] tovushi [t] tarzida talaffuz qilinadi, ya‘ni jarangsizlashadi. O‘zbek tilida *yutdi* va *obod* so‘zlarida ham shu holat yuz beradi. *Lodka* va *yutdi* so‘zlarida jarangsizlanish qo‘shni tovush ta‘sirida yuz bersa, *gorod* va *obod* so‘zlari talaffuzida o‘zgarish tovushning so‘z tarkibidagi mavqeyi bilan bog‘liqdir. Birinchi holat kombinator o‘zgarish bo‘lsa, ikkinchi holat pozision o‘zgarishdir. Biz quyida shu o‘zgarishlar haqida fikr yuritamiz.

1. Singarmonizm. Bu hodisada unli va undoshlarning o‘zgarishi farqlanadi. Unlilarning nutq jarayonida o‘zgarishi **singarmonizm** deyiladi. Singarmonizm unlilarning moslashishi, uyg‘unligi demakdir. Singarmonizm faqat turkiy tillarga xosdir. Uning ikki asosiy ko‘rinishi mavjud: a) til garmoniyasi; b) lab garmoniyasi.

Til garmoniyasida unli tovushlar yumshoqlik va qattqlik, til oldilik yoki til orqalik jihatdan bir-biriga moslashadi. Masalan, *qalam* so‘zidagi [q] undoshi chuqur til orqa undoshi bo‘lganligi bois, birinchi bo‘g‘indagi [a] unlisi ham til orqalik xususiyatiga ega bo‘ladi. Buning natijasida esa keyingi bo‘g‘inda [a] tovushi ham til orqa unlisi sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, birinchi [a] unlisi [q] undoshiga, keyingi bo‘g‘indagi [a] esa oldingi bo‘g‘indagi [a] unlisiga moslashadi.

Lab garmoniyasida unlilarning moslashishi ikki tomonlama bo‘ladi. Bunda unlilar ham til oldi - til orqalik jihatidan, ham lablanganlik- lablanmaganlik jihatidan o‘zaro, shuningdek, undoshlarga ham moslashadi. Bunga ko‘ra, so‘z boshidagi unli lablangan til oldi unlisi bo‘lsa, so‘z oxirida ham lablangan til oldi unlisi keladi. So‘z boshidagi unli lablangan til orqa unlisi bo‘lsa, so‘z oxiridagi unli ham lablangan til orqa unlisi bo‘ladi. Masalan, *boshqird*, *sog‘in*, *bo‘g‘in* so‘zlaridagi kabi.

2. Assimilyasiya. Nutq tovushlari qator kelganda ba‘zan bir-biriga ta‘sir qilib, biri ikkinchisini o‘ziga moslashtiradi. Nutqdagi bunday hodisa **assimilyasiya** deyiladi.

Assimilyasiya ikki xil bo'ladi: progressiv assimilyasiya va regressiv assimilyasiya. Agar oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, progressiv assimilyasiya yuz beradi: *ket+di=ketti*, *ayt+di=aytti*, *ot+dan=ottan*, *yurak+ga=yurakka*. Keyingi tovush oldingi tovushga ta'sir qilib, uni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, regressiv assimilyasiya yuz beradi: *yigit+cha=yigichcha*, *yoz+sin=yossin*, *uch+so'm=usso'm*, *tuz+sin=tussin*. Masalan, rus tilida *otdat* so'zi *oddat* tarzida talaffuz etiladi. Bu ham regressiv assimilyasiyaga misol bo'ladi. Regressiv assimilyasiya odatda progressiv assimilyasiyaga nisban nutqda kamroq uchraydi. Chunki assimilyasiyaning bu turida keyingi tovush oldingi tovushni o'ziga moslashtiradi. Demak, talaffuz jarayoni boshlanmasdan burun so'zining talaffuz texnologiyasi haqidagi tasavvur ham hosil bo'lmog'i lozim.

Assimilyasiya to'liq va qisman bo'lishi mumkin. To'liq assimilyasiyada bir tovush ikkinchi tovushga aynan moslashadi va to'lig'icha uning tusiga kiradi. Yuqorida keltirilgan so'zlarning hammasi to'liq assimilyasiyaga misol bo'ladi. Qisman assimilyasiyada nutq tovushlaridan biri ikkinchisini biror tomondan qisman o'xshatadi (moslashtiradi): *osh+ga-oshka*, *ish+ga-ishka* so'zlarida jo'nalish kelishigidagi [g] tovushi oldingi [sh] tovushining ta'sirida [k] tovushiga aylanmoqda. Bu so'zda qisman assimilyasiya yuzaga kelmoqda, ya'ni [g] jarangli tovushi o'zidan oldingi [sh] tovushiga faqat bir tomonlama – jarangsizlanish tomonidan o'xshamoqda, xolos, lekin to'liq uning tusiga kirgan emas. [Uchta] leksemasining *ushta*, [pochta] leksemasining *poshta* deb talaffuz qilinishi ham shu hodisaga misol bo'la oladi. Rus tilidagi *karobka*, *vodka*: inglizcha: *goods*, *cats* so'zlarida ham shu turdagi assimilyasiya mavjud.

Dissimilyasiya. Og'zaki nutqda tovushlar doimo bir-biriga o'xshay bermasdan, ba'zan uning aksi bo'ladi. Ayrim paytda talaffuzda ikki o'xshash tovush bir joyda yoki bir so'zda kelgan vaqtda ulardan biri noo'xshash tovushga aylanib ham qoladi. Bunday hodisa assimilyasiya kabi progressiv va regressiv bo'ladi. Keyingi tovush noo'xshash tovushga aylansa progressiv dissimilyasiya yuz beradi: *zarar-zaral*, *zarur-zaril*, *birorta-bironta*, *muyassar-muyastar*, *kissa-kista* kabi. Oldingi tovush o'zgarsa, regressiv dissimilyasiya yuz beradi: *malol-malor*, *koridor-kalidor*, *ittifoq-intifoq* kabi.

Dissimilyasiya hodisasi odatda juda kam uchraydi. Hatto assimilyasiyaning regressiv turiga nisbatan ham ancha kam qo'llanadi. Chunki dissimilyasiya hodisasi nutqda, odatda o'xshashlikdan noo'xshashlikka, ixchamlikdan noqulaylikka qaratilgan harakat bo'lib, tautologiyadan qutilishga xizmat qiladi. Og'zaki nutqda *tumba-tunba*, *tramvay-tranvay*, *konbayn-kombayn* deb talaffuz qilishimiz ham dissimilyasiyaga misol bo'ladi.

Metateza. Og'zaki nutqda ba'zan yonma-yon kelgan undosh tovushlarning o'zni almashishi mumkin. Nutqdagi bunday jarayon **metateza** deyiladi: **r-y:** *daryo-dayro*; **m-g:** *yomg'ir-yog'mir*, **b-r:** *tebratmoq-terbatmoq*; **m-l:** *yamlamoq-yalmamoq*; **h-v:** *ahvol-avhol*; **p-r:** *tuproq-turpoq*, **r-g:** *o'rganmoq-o'granmoq*; **g'-r:** *to'g'ramoq-to'rg'amoq*, **n-m:** *aylanmoq-aynalmoq* va b. Chunonchi, rus tilidagi *tarelka* so'zi aslida nemischa

talerka shaklida bo'lgan, arabcha *oqvot* so'zi o'zbek tiliga *ovqat* tarzida qabul qilingan. Demak, bu hodisa chetdan kirgan so'zlarda ko'proq uchraydi.

Proteza. So'z boshida bitta unlining orttirilishi **proteza** hodisasi sanaladi. Odatda, sonor [r] tovushidan oldin [o'] va [i] unlilari orttiriladi: *ro'mol-o'ramol*, *ro'za-o'raza*, *rayhon-irahon*, *rozi-irozi*, *rais-irais*, *rang-irang*, *ro'zg'or-o'razg'or* kabi. Ayrim holatda so'z boshida sirg'aluvchi va portlovchi ikki undosh qator kelganda [i] unlisi orttirilishi mumkin: *shkaf-ishkaf*, *sprafka-isparafka*, *stol-istol*, *shtraf-ishtarap*, *stansiya- istansa*.

Epenteza. So'z boshida, o'rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda ular orasida [i], ba'zan [u] va [a] unlisi orttiriladi: *fikr-fikir*, *hukm- hukum*, *doklad-dakalad*, *klass-kilass*.

Epiteza. So'z oxirida bir o'rinda kelgan ikki undoshdan so'ng [a] tovushining qo'shilish hodisasidir: *disk-diska*, *bank-banka*, *tank-tanka*, *kiosk-kioska*, *otpusk-otpuska* kabi.

Prokopa. Bunda so'z boshida ba'zan unli yoki undosh tovush tushib qoladi: *yiroq-iroq*, *yigna- igna*, *yog'ach-og'och*, *yirik-iri*.

Sinkopa hodisasiga binoan so'z o'rtasidagi va oxiridagi keng unlilar tor unlilar kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatlarda tushib qoladi: *valochka-valichka*, *traktor-traktir*, *avtor-avtir*, *director-direktir*, *generator-generatir* kabi.

Apakopa so'z o'zagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasidir: *do'st-do's*, *xursand-xursan*, *gazeta-gazit*, *smena-smen* va h.

Sinerezis hodisasiga ko'ra so'z o'rtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi. Ikkinchi unli fonema esa cho'ziq talaffuz etiladi: *maorif-mo:rif*, *saodat-so:dat*, *qiroat-qiro:t*, *jamoat-jamo:t*. Bu hodisa asl o'zbekcha so'zlarga xos emas.

Reduksiya. So'zning birinchi bo'g'nida biror unlining, odatda, tor unlining kuchsizlanib talaffuz qilinishidir. Masalan, *bir*, *bil*, *til* sozlari bir bo'g'inli bo'lganligi va urg'u shu so'zdagi [i] unlisiga tushganligi tufayli bu so'zlardagi [i] unlisi me'yordagidek talaffuz qilinadi va eshitiladi. Lekin shu so'zlarning oxiriga ikkinchi bir bo'g'in qo'shilishi bilan urg'u ham ikkinchi bo'g'inga ko'chadi. Natijada birinchi bo'g'indagi [i] unlisi kuchsizlanadi va eshitar-eshitilmas holda sust talaffuz qilinadi: *bilak*, *tilak*, *biroq*. Birinchi bo'g'indagi urg'ularning ana shunday kuchsizlanib talaffuz qilinishi reduksiya hodisasiga misol bo'la oladi (reduksiya so'zining lug'aviy ma'nosi "kuchsizlanish", "orqaga qaytish", "pastga tushish" demakdir). Reduksiyaga quyidagi so'zlarning birinchi bo'g'nida kelgan [i] ning kuchsizlanib talaffuz qilinishi ham misol bo'la oladi: *pishiq*, *shira*, *pishak*, *qiliq*, *ichak* kabi. Reduksiyaning ikkinchi bo'g'inda kelish hollari ham uchrab turadi. Bu hodisa so'zga uchinchi bo'gin qo'shilganda sodir bo'ladi - ikkinchi bo'g'indagi unli tamoman kuchsizlanib, tushib qoladi. Masalan, *burun- burni*, *bo'yin-bo'yni*, *egin-egni*, *keyin-keyni* singari.

Eliziya. Unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki so'zning qo'shilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasidir. Bunda bir necha holat kuzatiladi: a) birinchi so'z oxiridagi unli tushib qoladi: *yoza oladi-yozoladi*, *bora oladi-*

boroladi, qora ot- qorot; b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi soʻzning bosh unlisi tushib qoladi: *borar ekan-borarkan, borar emish- borarmish, yozgan ekan-yozgankan* kabi: v) *Abdusalom* soʻzining *Absalom*, *Abdujabbor* soʻzining *Abjabbor*, *olib kel* soʻzining *opke* tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan formasi hisoblanadi. Bunday hollarda eliziyaning murakkablashishi natijasida soʻzlarning qisqargan shakli hosil boʻladi.

Diyereza. Soʻz tarkibida birorta tovushning tushib qolishi. Oʻzbek tilida *goʻsht, doʻst, rost, boʻlsin* soʻzlari tarkibida kelgan [t] va [l] tovushlari tushirib talaffuz qilinadi: *goʻsh, doʻs, ros, boʻsin* kabi. Rus tilidagi *schastlivo, izvestno* soʻzlari nutqda *shaslivo, izvesno* tarzida aytiladi.

Demak, nutq tovushlari har bir til qonun- qoidalariga muvofiq maʼlum tartib bilan tutashib, birikib soʻz hosil qilar ekan, soʻz tarkibida aks ettirilgan harflarga nisbatan oʻzgargan holda ham talaffuz etilishi mumkin. Baʼzi hollarda bu imloda ham oʻz aksini toptadi. Bunda oʻzbek adabiy tilidagi [-ga] qoʻshimchasining variantlarini misol qilish mumkin: *terak+ga=terakka, buloq+ga=buloqqa*. Rus tilida *bezplatno-besplatno, razskazat-rasskazat* soʻzlarida qoʻllangan jarangli [z] oʻrnidagi [s] ham orfografiyada oʻz aksini topgan. Eliziya hodisasiga uchragan baʼzi soʻzlar ham shular jumlasidandir.

Fonema tushunchasi va fonologiya. Tilshunoslikda soʻz maʼnosini farqlash uchun xizmat qiladigan nutq tovushi fonema deyiladi. Fonema nutq tovushlarining maʼno farqlovchi asosiy tipidir. Fonema soʻzdan soʻzni, qoʻshimchadan qoʻshimchani farqlash uchun xizmat qiladigan tipik tovushdir. Masalan, *bor, ber, boʻl, bir, bur* soʻzlari faqat unililarga koʻra maʼnoda farqlanadi yoki *bor, bosh, bot, bogʻ, bob, bop, boy* soʻzlarida esa undoshlarga koʻra maʼnoda farqlanadi.

Nutq tovushini maʼno ajratish uchun xizmat qilmaydigan qismi fonemaning variantlaridir. Fonemaning uch tomoni bor: akustik (eshitish) tomoni, fiziologik (talaffuz) tomoni, ijtimoiy (maʼno ajratish tomoni) tomoni. Bular ichida uchinchi - maʼno ajratish tomoni oal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu belgi boʻlmasa, tovush fonema hisoblanmaydi. Fonemalardan ularning variantlarini farqlash kerak. Masalan, oʻzbek adabiy tilida - o - fonemasining ikki varianti bor: biri til oldi, ikkinchisi til orqa: oʻrgan, oʻrik, qoʻl, koylak; til oldi: oʻrtoq, oʻroq, qoʻl til orqa. Tovushlar fonetika birligi sifatida oʻrganilganda nutq tovushlari yoki fonlar deb yuritiladi. Fon nutq tovushi, fonema esa til tovushidir. Fonemalar morfema va soʻzlarni bir-biridan farqlar ekan, buning uchun dastavval ularning oʻzlari bir-biridan ajratib turishi alohida hodisalar sifatida oʻqilishi lozim. Lekin bu fonemalar bir-biriga oʻxshamaydi, degani emas.

Tilda bir-biriga oʻxshamaydigan fonemalar koʻp . Masalan: oʻzbek tilida -p- fonemasi -b- fonemasiga oʻxshamaydi: birinchidan, mazkur fonemalarning har ikkovida portlash elementi bor, ikkinchidan: bu fonemalarni reallashtiradigan ikkala tovush labning harakati tufayli yuzaga keladi. Bular -p- va -b- fonemalarining umumiy nuqtalari. Mazkur fonemalarni bir-biridan ayiradigan nuqta ularni reallashtiradigan tovushlarning akustik

qiyofasiga tegishli: -p- fonemasini reallashtiradigan tovushda jarang yo‘q, -b- fonemasini reallashtiradigan tovushda jarang bor.

Bir fonemani boshqa fonemalardan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilar differensial belgilar deb ataladi. O‘zbek tilidagi -bsh fonemasi -p- fonemasidan jarang elementiga egaligi bilan farqlanadi; -d- fonemasidan labda paydo bo‘lganligi bilan farqlanadi: -m- fonemasidan nazalisiya elementining yo‘qligi bilan farqlanadi va ookazo. Sanalgan elementlar (jarang, labda paydo bo‘lishi nazalizatsiyaning yo‘qligi) -b- fonemasining mazmunini tashkil etadi. Bu nuqtai nazardan fonema differensial belgilarning yig‘indisi hisoblanadi.

Fonema tushunchasi shu tushuncha doirasiga kiradigan tovushlarni ularning umumiy belgilari (mazkur tovushlarning barchasiga xos bo‘lgan belgilar) asosida ifodalasa, variant tushunchasi mazkur tovushlarni ularning maxsus belgilari asosida ifodalaydi. Shu ma’noda variant fonemaning maxsus ko‘rinishi, maxsus turi hisoblanadi.

Tillardagi farqlanuvchi va farqlanmovchi xususiyatlar bir xil emas. Bir tildan farqlanuvchi xususiyat ikkinchi tilda farqlanmovchi bo‘lishi mumkin. Masalan, unlilarning uzun qisqalik xususiyati o‘zbek va rus tillari uchun farqlanmovchi, lekin ingliz, nemis, fransuz, qirg‘iz, turkman tillari uchun esa farqlanuvchidir. Rus tili uchun yumshoq-qattqlik xususiyati farqlanuvchi, ingliz, nemis tillari uchun esa farqlanmovchidir. Masalan, rus tilidagi ugol so‘zidagi oxirgi undosh qattiq talaffuz qilinadi.

Nutq jarayonida tovushlarning farqlanuvchi belgilari har qanday sharoitda ham saqlanib qoladi. Farqlanmovchi belgilar esa tovushning so‘zdagi o‘rni gapiruvchining nutqiy xususiyatlariga ko‘ra o‘zgarib turishi mumkin. Har qanday o‘zgarishi (mumkin) yangi nutq tovushini, ya’ni yangi fonni tashkil etadi.

Agar nutqdagi o‘zgarishlar sifat o‘zgarishlarga olib kelmasa, so‘zning ma’nosini u o‘zgartirmasa, unday o‘zgarishlar miqdor o‘zgarishlar deb atalib, bitta fonemaga birlashtiriladi. Bitta fonemaga birlashtirilgan gora so‘zidagi dastlabki undoshning ikki xil talaffuz qilinishi so‘z ma’nosini o‘zgartirmaydi. Shuning uchun bunday o‘zgarishni sifat emas, miqdor o‘zgarishi desa bo‘ladi.

Til vositasida fikr almashish uchun nutq organlari yordamida hosil qilinadigan tovushlar tilshunoslikda fonema deb yuritiladi. Demak, fonema biz eshitadigan har qanday tovush emas, balki kishilar talaffuz qiladigan nutq tovushlaridir. Biroq nutq tovushlarining barchasi ham mustaqil fonema bo‘lavermaydi. Demak, ko‘pchilik tomonidan tan olingan va keng tarqalgan qoidaga ko‘ra, so‘z ma’nolarini farqlash uchun xizmat qiladigan nutq tovushlari fonemadir. Biroq nutq tovushlari - fonemalar so‘z ma’nolarini farqlash xususiyatiga ega emas. Olimlar “So‘zning tovush qobig‘ini farqlash uchun xizmat qiladigan tovushlar fonemadir”, - degan xulosaga keldilar. Tilshunoslik tarixida fonema nazariyasiga asos solgan olimlar Badduyen de Kurtene Zinderlardir. Fonema atamasini Badduyen de Kurtene tilshunoslikka olib kirgan.

Nutq tovushlari tasnifi. Nutq tovushlari dastlab unli va undoshlarga bo'linadi. Dunyoning barcha tillarida unli va undoshlar tizimi mavjuddir. Nutq tovushlarini bunday guruxlashda ularning artikulyasion va akustik xususiyatlari hisobga olinadi. Dunyodagi tillarning barchasida unli va undosh fonemalar bor, lekin ularning miqdori bir xil emas. Masalan, o'zbek tilida 6 unli, 25 undosh, aboas tilida 68 unli, 3 undosh, nemis tilida 13 unli 18 undosh, eston tilida 9 unli 16 undosh, kabi tillarda fonema bor. Xorijiy tilshunoslardan biri dunyodagi ko'pchilik tillarni tadqiq etib, eng dastlabki, ibtidoiy odamlar tilida bittagina unli va o'n bir (p,t,ch,k,kv,x,m,n,ng,v,y) undosh bo'lgan, degan fikrni aytgan. Darxaqiqat, ayni zamonda faqat bittagina unli tovushga ega abaza (Shimoliy Kavkaz), aranta, vishram (Hind iston) singari tillar bor. Jaoon tillarida atigi bitta unlidan tuzilgan so'zlar ham mavjud. Masalan, Norvegiyada - A, Fransiya - I degan qishloq bor; Fransiya - O (O) degan familiya uchraydi. Rossiyadagi kichik bir daryo - O' deb ataladi.

Polineziya tillaridan gavay tiliga 5 unli, 7 undosh, taiti tilida esa 4 ta unli, 8 ta undosh (jami 12 fonema) mavjud. Ubix (Turkiya) tilida uch unli, 78 undosh; kxmer (Kampuchiya) tilida esa o'ttizta unli tovush bor. Hozirgi o'zbek adabiy tilida 6 unli, 26 undosh; o'zbek shevalarining aksariyatida 9 unli, iqon kabi o'g'uz shevalarida esa 17 unli fonema uchraydi.

Unli va undoshlar o'zaro quyidagi xususiyatlariga ko'ra farqlanadi:

- unlilar talaffuzida xavo oqimi tosiqqa uchramaydi.
- unlilar talaffuzida xavo oqimi kuchsizroq, undoshlarda esa kuchliroq bo'ladi.
- unlilar talaffuzida kuchlanish butun nutq apparatiga yoyiladi, undoshlar esa tovush paydo bo'ladigan joyga toplanadi.
- unlilar talaffuzida og'iz ochiladi, undoshlarda esa og'iz yopiladi yoki nutq organlari bir-biriga uriladi.

Unli tovushlar tasnifi. Unli tovushlarni hosil qilishda til va lab aktiv qatnashadi. Bunda tilning roli katta. Unlilar tasnifida dastlab tilning gorizontaal harakati hisobga olinadi. O'zbek tilidagi unlilar 2 ga guruhlanadi.

a) old qator unlilar i, e, a;

b) orqa qator unlilar u, o, o.

Tilning gorizontaal harakatiga ko'ra, rus tilida unlilar uch guruxga bo'linadi:

a) old qator unlilar: e,i;

b) o'rta qator unlilar: a, q;

v) orqa qator unlilar: o, u.

Unlilar tilning vertikal harakatiga ko'ra ham tasnif qilinadi. Bunda og'izning ochilish darajasi oisobga olinadi.

O'zbek va rus tillarida unlilar vertikal holatga ko'ra uch turga bo'linadi:

a) yuqori (tor) unlilar: i, u (o'zbek tili); i, q, u (rus tili);

b) o'rta keng unlilar: e, o (o'zbek tili), e, o (rus tili);

v) quyi (keng) unlilar: a, o (o‘zbek tili), a (rus tili).

Labning ishtirokiga ko‘ra unlilar lablangan va lablanmagan bo‘ladi. O‘zbek tilida old qator unlilar (a,e,i) lablanmagan va o‘rta qator unlilar (o,o;u) lablangandir. Rus tilidagi old va o‘rta qator unlilar (e,i;a,q) lablanmagan orqa qator unlilar (o, u) lablangandir.

O‘zbek adabiy tili unlilar tasnifi

Tilning vertikal holatiga ko‘ra	Tilning gorizontal holatiga ko‘ra	
	til oldi	til orqa
	lablanmagan	Lablangan
yuqori (yopiq)	i	U
o‘rta (yarim yopiq yoki ochiq)	e (ye)	O
quyi (ochiq)	a	O

Rus adabiy tili unlilar tasnifi

Tilning vertikal holatiga ko‘ra	Tilning gorizontal holatiga ko‘ra		
	til oldi	til o‘rta	til orqa
	lablanmagan		lablangan
yuqori (yopiq)	i	q	u
o‘rta (yarim yopiq yoki ochiq)	ye		o
quyi (ochiq)		a	

Akustik tomonidan unlilar cho‘ziq va qisqa unlilarga bo‘linadi. Bu jihatdan ingliz tili xarakterlidir: unda cho‘ziq va qisqa unlilar farqlanadi. Masalan, o‘tirmoq ma’nosidagi sit so‘zidagi (i) tovushi qisqa, joy ma’nosidagi seat (si:t) so‘zidagi (i:) tovush cho‘ziqdir.

Unlilar monoftong va diftonglarga bo‘linadi. Ayrim tillarda ingliz, qirg‘iz diftonglar mavjud: masalan, ingliz tilidagi vaqt ma’nosini bildiradigan time (taim) so‘zidagi (ai) tovushi diftongdir. O‘irg‘iz tilidan too diftongdir.

Undosh tovushlar tasnifi.

Har bir til o‘ziga xos undoshlar sistemasiga ega. Tildagi undoshlar sistemasi konsonantizm deb ataladi. O‘zbek adabiy tilida undoshlar sistemasida 25 ta undosh fonema bor. b,v,g,d,z,j,dj,y,k,l,m,n,p,r,s,t,f,x,s,ch,sh,q,g‘,o,ng. Bu fonemalardan ikkitasi yozuvda alohida harflar bilan ifodalanmaydi (dj, ng). Joja, jiyda kabi so‘zlarda

uchraydigan til oldi, qorishiq, jarangli dj tovushi j bilan, til orqa, jarangli, burun tovushi esa harflar birikmasi ng bilan beriladi: yangi, chang soʻzlaridag kabi.

Undoshlarni xarakterlash va klassifikatsiya qilish unlilarga nisbatan murakkabdir. Chunki undoshlar paydo boʻlishi, jarangli va jarangsizligi ovozning ishtiroki, sof va murakkabligi va shunga oʻxshash belgilar bilan unlilardan farqlanadi.

Undosh tovushlar quyidagicha tasnif qilinadi:

- 1) undoshlarning paydo boʻlishi oʻrniga koʻra.
- 2) undoshlarning aytilish usuliga koʻra boʻlinishi.
- 3) ovoz va shovqinning ishtirokiga koʻra boʻlinishi.

I. Paydo boʻlish oʻrniga koʻra undoshlar:

a) lab undoshlari, b) til-tish undoshlari, v) boʻgʻiz undoshiga boʻlinadi. Lab undoshlari labial yoki lab-lab undoshlariga (b,p,m kabilarga) va labio-dental, yaʼni v,f undoshlariga (lab-tish undoshlariga) boʻlinadi.

Undoshlar paydo boʻlish oʻrniga koʻra til oldi, til oʻrta va til orqa undoshlariga ham boʻlinadi.

a) toʻsiqning hosil boʻlish oʻrniga koʻra til oldi undoshlari dorsal, apikal, kakimunal undoshlarga boʻlinadi. Dorsal (lot. orqa) undoshlarning artikulyasiyasida til orqa qismining oldingi qismi yuqori tishlarimizga yaqinlashadi. s, d, n tovushlari shu asosda paydo boʻladi.

Apikal (lot. uchi) undoshlarining artikulyasiyasida til uchi yuqori tishlarga yaqinlashadi yoki tegadi. Inglizcha t,d,i tovushlari apikal tovushlaridir. Kakuminal (lot. choʻqqi) tovushlarning artikulyasiyasida til uchi yuqoriga koʻtariladi. Sh,j,ch undoshlari kanimunalp undoshlardir.

Til oldi undoshlariga t,d,s,z,t,j,j,ch,n,l,r kabi undoshlar kiradi.

b) til oʻrta undoshini hosil qilishda tilning oʻrta qismi tanglayiga yaqinlashadi va y tovushi hosil boʻladi;

v) til orqa undoshlari yaqin til orqa (k,g,n,(ng)) undoshlari va chuqur til orqa (q,gʻ,x) undoshlariga boʻlinadi.

o undosh tovushi boʻgʻin bushligʻida paydo boʻlgani uchun boʻgʻiz undosh deyiladi.

II. Aytilish usuliga koʻra undoshlar:

a) portlovchilar;

b) sirgʻaluvchilarga boʻlinadi.

Portlovchilarni talaffuz qilganda xavo oqimi kuchli tosiqqa uchraydi, natijada p,b,t,d,k kabi tovushlar hosil boʻladi. Bular eksploziv (fr. portlash) tovushlar deb ham yuritiladi. m,d,p,b,k,q,ch,j (dj),ch,q,n.

Sirgʻaluvchilar xavo oqimining nutq organlari orasida sirgʻalib oʻtishi bilan hosil boʻladi. S,j,sh,v,f tovushlari sirgʻaluvchi tovushlar boʻlib, bular imploziv (fr. tutashish) tovushlar deb ham yuritiladi: v,z,sh,j,x,gʻ,f,y kabilar.

O'zbek tilida ch,dj(j),s(ts) kabi affrikatlar ham bo'lib, talaffuzda jarangi tovushdan boshlanib, sirg'aluvchi tovush bilan tugallanadi. Affrikatlarning har ikki qismi ba'zi vaqt bo'g'in yoki morfemaga ajratilmaydi. Artikulyasion ajralish jihatdan affrikatlar bir tovushdek talaffuz qilinadi. Bulardan s (ts) tovushi rus tili ta'sirida o'zbek tiliga o'tgan. Rus tilidagi sirg'aluvchi f,v,s,z undoshlari artikulyasiya jihatdan qattiq va yumshoq talaffuz qilinadi. O'zbek tilida bunday xususiyat yo'q.

III. Ovoz shovqinining ishtirokiga ko'ra undoshlar shovqinlilar va sonorlarga bo'linadi.

Undoshlar ichida shovqindan ovoz ustun keluvchi tovushlar ham bor. Bular sonor (lot. ovozli) tovushlar deyiladi. Sonorlarda ovoz ancha ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham ular undoshlar ichida ovozliroq bo'lib, unlilarga yaqin turadi. Lekin qisman shovqindan iborat bo'lgani uchun sonorlar undosh hisoblanadi. O'zbek tilida m,n,ng,l,r kabi tovushlar sonor tovush deyiladi. Ingliz, rus tillarida shular bilan birga y tovushi ham sonor tovush hisoblanadi.

Sonorlar paydo bo'lish o'rniga ko'ra: burun tovushlari m,n,ng yon tovush, l va titroq tovush r kabi turlarga bo'linadi.

Tovush paychalarining ishtirokiga ko'ra shovqinlilar yana ikkiga bo'linadi: jarangli undoshlar va jarangsiz undoshlar.

O'zbek tilida jarangli undoshlar quyidagilar: b,v,z,d,j,u,j,g,g',y,m,n,r,l,ng; jarangsiz undoshlar esa p,f,s,t,sh,ch,q,o,x tovushlaridir.

Jarangli undoshlarni talaffuz qilishda tovushga ovoz ham qo'shiladi. Shu jihatdan ovozdor bo'lgan sonor tovushlar ham jarangli hisoblanadi. Jarangsiz tovushlarni talaffuz qilganda tovush paychalari taranglashmaydi.

Leksikologiya va uning bo'limlari. Leksikologiya tilshunoslikda til lug'at tarkibining boyligini o'rganish bilan shug'ullanadigan bo'limdir. Bu bo'lim umuman har bir tilning lug'at tarkibi, shuningdek, so'zlarning shakli va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari, so'zlarning paydo bo'lish yo'llari kabi qator muammolarni o'z ichiga oladi.

Leksikologiya o'z tarkibiga semasiologiya, leksikografiya, onomasiologiya, etimologiya, frazeologiya, onomastika kabi tilshunoslik bo'limlarini o'z ichiga oladi. Avvalo ana shu atamalar tavsifi va o'rganish obekti bilan tanishib chiqamiz.

1. Semasiologiya (semasiologiya, signifikatsiya – ma'no to'g'risidagi ta'lim) – inglizcha semasiologiya, nemischa semasiologia, fransuzcha semasiologiya, icpancha semasiologia. 1. Tilshunoslikning bo'limi bo'lib, til birliklarining mazmunini o'rganadi. 2. Tilshunoslikda so'z va iboralarning leksik ma'nosini va ularning o'zgarish sharoitini o'rganadigan bo'limdir. Demak, semasiologiya til birliklarini ma'no jihatdan o'rganadi. So'zning shakli deganda uning tarkibidagi tovushlar. So'zning ma'nosi deganda uni tashkil etuvchi tovushlar yig'indisidan anglashiladigan ma'no nazarda tushuniladi. Semasiologiya tilning barcha ma'no anglatuvchi birliklarini o'rganadi.

2. Onomasiologiya 1. semasiologiyaning bir qismi, bo‘limi bo‘lib, predmet va iboralarining tushunchalarni tillarning leksik va frazeologik vositalari bilan bog‘liq bo‘lgan tamoyil va qonuniyatlarini o‘rganadi. 2. ma’nolar, nominatsiyalar, tushunchalar, farq qiluvchi ma’no va signifikatsiya to‘g‘risidagi fan, ya’ni narsa va hodisalarga nom berish jarayonini o‘rganadi. Onomastika (onomasiologiya, onomatalogiya) – tilshunoslikning atoqli otlarni o‘rganadigan bo‘limi bo‘lib, u quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

- antroponomika – kishi nomlarni o‘rganadi;
- etnonimika – millatlarning nomlarini o‘rganadi;
- toponimika – geografik joy nomlarini o‘rganadi;
- gidronimika – suv havzalari nomlarini o‘rganadi;
- zoonimika – hayvonlar nomlarini o‘rganadi.
- terminologiya – ishlab chiqarishdagi ma’lum tarmoqning, yo‘nalishning, mutaxassislikning terminlari majmuasi bo‘lib, leksikologiyaning maxsus qatlamini tashkil qiladi.

3. Etimologiya (etimologia) - 1. mustaqil so‘z va morfemalarning kelib chiqishi va tapixini o‘rganadigan tilshunoslikning bir bo‘limi, uning so‘z etimologiyasi, “yolg‘on” etimologiyasi, xalq etimologiyasi kabi tarkiblari mavjuddir. 2. til birliklarining tuzilishini o‘rganuvchi ta’limot. Shu munosabat bilan bu atama bilan tarixan bog‘langan. Etimon so‘zning dactlabki shakli uning asliy, haqiqiy (ibtidoiy) shakli, ma’nosi atamasini ham e’tibordan chiqarmaslik lozim.

Tilshunoslikning so‘zlarning kelib chiqish masalalarini ham shakli, ham ma’nosi jihatdan o‘rganadigan bir qismidir.

4. Terminologiya ishlab chiqarishdagi ma’lum tarmoqning, yo‘nalishning, mutaxassislikning atamalar majmuasi bo‘lib, leksikologiyaning maxsus qatlamini tashkil qiladi. Terminologiya – atamashunoslikning bir necha shakllari mavjud: xalqaro atamashunoslik, ilmiy atamashunoslik, grammatik atamashunoslik, siyosiy, iqtisodiy, publistik, matematik va boshqalar. Bu ma’noda ishlatiladigan atamalar ichida lingvistik va leksik nuqtai nazardan qaralganda, allo-epik terminologiyasi e’tiborlidir. Bunda lingvistik terminologiyadagi sistematik qarama-qarshiliklar ko‘zga tashlanadi. Chunki leksik tushunchadagi qarama-qarshilik allo atamasi atrofida gavdalanadi, masalan: allofon, allomorf, allosema va boshqalar.

5. Leksikografiya – inglizcha (lexicographic) 1. lug‘at tuzish ilmi. 2. har bir til tasnifi shaklida lug‘atlar tuzish. 3. har bir tilga yoki ta’lim bilimiga taalluqli lug‘atlar namunasi. Til tarkibidagi so‘zlarni ma’lum tartib va maqsad asosida (alfavit tartibida nutqda ishlatish darajasiga va shu kabilarga ko‘ra) yozma ravishda lug‘at tuzish bilan bog‘liq ko‘plab masalalarni o‘z ichiga oladi, ya’ni til tarkibida so‘zlarni ma’lum tartib va maqsad asosida yozma ravishda to‘plab lug‘at tuzish masalalarini o‘rganadi.

Odatda, leksikografiya umumiy va o'quv leksikografiya qismlarga bo'linadi. Umumiy leksikografiya barcha tillar uchun lug'at tuzish nazariy tamoyillari va metodlarini chuqur va atroflicha yoritib beradi. O'quv leksikografiyasi esa pedagogik va metodik qonun qoidalar nuqtai nazaridan yondashgan holda lug'atlar tuzish masalalarini o'rganadi. O'z vazifalarining maqsadi va mazmuniga ko'ra o'quv lug'atlari bir necha turlarga bo'linadi: Izohli lug'at, terminologik lug'at, ensiklopedik lug'at, ikki tillik lug'at, morfem lug'at, ko'ptillik lug'at, qisqartmalar lug'ati, etimologik lug'at, omonimlar, sinonimlar lug'ati va hokozolar. Keyingi vaqtlarda "ideografik" yoki "tezaus lug'ati" nomi bilan atalgan lug'atlar tuzildi va tuzilmoqda. Bu lug'atlar biror tushuncha doirasidagi so'zlar guruhini, ya'ni semantik maydonini so'zlarning bir biridan farqlanishi belgilari va ichki bog'lanish tarkibini izohlab beradi.*

6. Frazeologiya – inglizcha phraseologia (phrasislogia). 1. tilshunoslikning, so'zning leksik-semantik birikuvini o'rganadigan bo'limdir. 2. har bir bo'limning frazeologik birlik fondi (zahirasi). 3. frazeologik birlikning (birikuvining) turlari majmuasi. Frazeologiya tilning turg'un birliklarini o'rganadi.

1. **So'z va leksema.** So'z tilshunoslikning markaziy birligi bo'lib, u tilshunoslikning barcha bo'limlarida o'rganiladi. So'z predmetlarning, yozuv esa tovushlarning simvolidir. (Aristotelp).
2. So'z quruq tovushlardan iborat bo'lmay, materiyaning nomidir. (XVII asr ingliz materialisti Tomas Gobbs).
3. So'z tarixan tashkil topgan tovush tilining asosiy birligi bo'lib, real voqelikning umumlashma aksi bo'lgan tushunchaning yashash formasidir. (O.S.Axmanova, V.V.Vinogradov).
4. So'z leksik ma'noga ega bo'lgan, mustaqil qo'llana oladigan ayrim tovush yoki tovushlar birikmasi. (E.B.Agayan).
5. So'z o'zining tovush sostavi orqali borliqdagi predmet, prosess, hodisalar haqidagi tushunchalarni ifodalovchi yoki ular o'rtasida munosabat bildiruvchi asosiy til birligi. (D.E.Rozentalp).
6. So'z kollektiv aozolari tomonidan bir xilda talaffuz qilinib, bir xilda idrok qilinadigan hamda biron predmetni (hodisani) bildiradigan yoki ular haqidagi tushunchalarni esga soladigan bitta tovush yoki bir nechta tovushlar birikmasi sifatida shakllangan ishora (simvol) dir. (S.Usmonov).
7. Mazkur ta'riflarda so'zning quyidagi muhim xususiyatlari aks etgan:
8. Til birligi sifatida atash funksiyasini bajarishi.
9. Tushunchaning yashash formasi, uning ifodasi ekanligi.
10. Xotirada tovush va grafik obrazi mavjudligi hamda saqlanishi.
11. Jamoa tomonidan bir xil tushunilishi.

* Ю.Н.Караулов. Общая и русская идеография. М., изд. «Наука», 1976, с.3-22.

12.Keng ma'noda ishora (simvol) ekanligi.

13.Leksik ma'noga uzviy bog'liq bo'lgan, undan kelib chiqadigan grammatik ma'noning mavjudligi va o.k.


Ko'rinadiki, so'zning asosida avvalo uning leksik ma'nosi yotadi. Shunday ekan, leksik birlik bo'lgan so'zning leksik tomoni, ma'nosi nima? So'z odatda borliqdagi biror fakti nomlaydi, ataydi. So'z kishi ongida tovush va grafik obrazlar sifatida saqlanadi. Inson xotirasida narsalarning umumlashma izlari ham bor. Ana shu ikki tomonning bog'lanishi so'zning leksik ma'nosini tashkil etadi. Bundan ko'rinadiki, so'z predmetning ishorasi sifatida xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda so'zning ma'nosi ma'lum bir til sistemasining vositalari orqali tushunchaning reallashuvidir. (Borliqda predmet, ongimizda tushuncha, tilda esa tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladigan so'z mavjuddir. Borliqda predmet bo'lmasligi mumkin, lekin xotirada tushuncha, tilda esa uning atamasi - so'z mavjud bo'ladi.

Leksikologiyada so'zning semantik tizimi til belgisining funksional vazifasi bilan bog'liq holda tadqiq qilinadi. Bunga asos qilib, "semantik uchburchak" so'z fonemalarining yoki yozuvdagi grafemalarning (harflarning) yig'indisi ekanligi bilan uning signifikat (so'zda ifodalangan tushuncha) va denotat (so'zni ifodalovchi predmet) so'zning asl ma'nosini ifodalaydigan) tarkibining elementi sifatida qaralganda, so'zning fonetik jihat bilan signifikat aloqasi nazarda tutiladi. So'z semantikasining nutqda ishlatilishi hisobga olinsa, bir yo'la denotat va fonetik tomoni o'rtasidagi aloqaga asoslanadi. F.de Sossyur ta'limotida so'zning akustik shakli va ma'no jhati ko'rsatilib, ma'no denotati o'rtasidagi aloqa ochilmay qolgan edi. Jumladan, Y.S.Stepanov semantik uchburchak sxemasini quyidagicha izohlaydi. (bu yerda so'z – fonemalar birikmasini yoki bir fonema sifatida olingan).

predmet yoki referent

ma'no anglatmoq

signifikat



So'zlarning farqlanish belgilariga sema (inglizcha – seme 1. sememaning bir ko'rinishi (semema – so'zning ma'nosi, predmetlik mazmuni) bo'lib, so'zning sintagmatik qatoridagi kichik ma'no elementi) deb ataladi va ularning semalarining yig'indisi semantema deb yuritiladi. Bu atama mazmun jihatdan leksemaga to'g'ri keladi. Agar semalar gapning formal (grammatik) tomonini bildirsa, semantema narsalarning ma'nosini bildiradi. Ammo semalar o'rtasidagi munosabat ma'no (leksika) bilan bog'liqdir. Semantikada qaysi ma'nolar semalarga tegishli yoki ularning biri tegishli emasligi aniq emas. Bu vaziyatda ularning aloqasini sinonimik nuqtai nazardan aniqlash mumkin. masalan, ketmoq, uxodit, inglizchi to go fe'li harakatning yo'nalishi

ma'nosidagi semaga ega. Boshqa fe'llar – bormoq, yurmoq, jo'namoq ham ketmoq fe'lining ma'nosiga yaqin semalarga ega.

Biroq ular shu harakatning ayrim belgilarini ifodalashi mumkin. bu ma'nolar (belgilar) nutq vaziyatida aniqroq namoyon bo'ladi. Odatda, ularning bir semantik tarkibdan ikkinchi semantik tarkibga o'tishi semantik transfikatsiya sifatida qaraladi. Bu shakldagi transformatsiya grammatikaga o'xshash bo'lsa ham, bu o'rinda so'z ma'nolarining kengayishi va torayishi, qayta normalanishi asosida tushunchalar o'rtasidagi bog'lanish va tafakkurdagi formal-mantiq qonuniyatlar yotadi.

So'z tilning asosiy birligi bo'lib, an'analarga binoan ifodalanishi va ma'no birligi, tilshunos olimlar tomonidan so'zning formal va semantik ma'nolari, grammatik va leksik ma'nolarining qarama-qarshilik jihatlari aniqlangan va tasdiqlangan. Bu qarama-qarshiliklar orasida so'zning ikki tomoni, ya'ni uning shakli (muloqotda bo'lishi, ifodalanishi, kommunikativligi) va mazmuni orqali keng tushuntiriladi.

So'zning semantik tomonidan ikki tomonlama birlik ekanligi tashqi (predmet) va ichki (til qurilishi) tomonini ifoda etadi. Shuning uchun so'z tilda ikki qiyofada namoyon bo'ladi: 1) nominatsiya, ya'ni ifoda birligi sifatida ma'lum leksik ma'noga ega bo'lgan lug'atning elementi; 2) til qurilishi tarkibining negizi sifatida ma'lum morfologik shakllanishga, ya'ni grammatik ma'noga ega bo'lgan birlik.[†]

Demak, so'z muammosi leksikologiyaning asosiy o'rganish manbayidir. O'zbek tilshunosligida **leksema** va **so'z** atamasining hozirgacha yonma-yon qo'llanayotganligi va leksemani lisoniy sath birligi atamasi, so'zni nutqiy sath birligi sifatida qarashga intilish kabi ziddiyatli nuqtayi nazarlar yashab kelayotganligini aytish joizdir. Tilshunoslar Arastu davridan boshlab leksikaga ta'rif berish ustida bosh qotirganlar. Ularning barchasi so'zning alohida-alohida qirralariga berilgan ta'riflar bo'lib, leksemaning barcha jihatlarini qamrab olishga qodir emas. «Bugungi kunda sintaksis bo'yicha tilshunoslik nazariyasida yaratilgan kesim haqidagi yangi ta'limotga tayangan holda o'zbek tilshunosligida o'zbekcha kesim tushunchasini ishlab chiqish mumkin ekan, bunga bevosita metodologik omil sifatida tayanib, uni umumiy va xususiy leksema nazariyasiga ham tadbqiq qilish lozim», - deydi professor H. Ne'matov. Darhaqiqat, leksemaga ta'rif berilar ekan, har bir tilning ichki tabiatidan kelib chiqish zarurati mavjud bo'lishi kerak. Ma'lumki, Yevropa tilshunosligida leksemaga morfema orqali ta'rif beradilar, chunki flektiv tillar, jumladan, rus va arab tillarida o'zaklar mustaqil qo'llanishga ega emas, o'zak morfemaning bir turi sifatida qaraladi. Chunonchi, *pishu*, *chitayu*, *druz'ya*, *ushi* kabi ruscha, *ktb*, *qr* kabi arabcha so'zlarda o'zak qo'shimchalar bilan qorishib ketgan, o'zak bilan affiks orasida chegara aniq emas. Turkiy tillarda o'zak va qo'shimcha orasida

[†] Общее языкознание. Внутренняя структура языка. Код, изд. Член корр. АН СССР. Б.А.Серебренников. М., изд. Наука, 1972, стр. 395.

chegara aniq bo'lganligi tufayli, leksemaga morfema orqali emas, balki lisoniy sathning alohida bir birligi sifatida qarash lozim.

Leksema nima? Bu savolga shunday javob qaytarish mumkin: Jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan voqeylikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug'atda grammatik morfemalarni o'ziga biriktira oladigan morfema turi leksemadir. Ma'lumki, formal tilshunoslikda til va nutq hodisalari, birliklari farqlanmas edi. Shunga ko'ra, leksema va so'z ham bir-biridan farqlanmagan. Sistem tilshunoslik nuqtayi nazaridan bevosita kuzatishda berilgan matn va lug'atlarda qayd etilgan so'zlar nutq birliklari hisoblanadi. Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, til birliklari bevosita kuzatishda berilmagan bo'lib, ular jamiyat a'zolari uchun tayyor va majburiy bo'ladi.

Til birliklari (fonema, morfema, leksema, konstruksiya)dan fonemaning to'la ta'rifi bilan tanishmiz. Morfemalarni keyingi ma'ruzalarimizda atroflicha o'rganamiz. Leksemaning nutqdagi voqeligi so'zdir. Leksemalar konstruksiyalarda mustaqil o'rin egallay olish yoki egallay olmasligiga ko'ra, mustaqil va yordamchi leksemalarga bo'linadi.

Mustaqil leksemalar nutqda alohidalik xususiyatiga, o'zidan keyin grammatik morfemalarni ergashtirish qobiliyatiga ega. Biroq leksemalar ichida shundaylari ham borki, ular gapda mustaqil o'rinni egallay olmaydilar. Bunday leksemalar sirasiga yordamchi so'zlar (bog'lovchilar, sof ot, fe'l, ravish, ko'makchi, yuklama, nisbiy so'zlar va b.: *ham, hamda, biroq, lekin; uchun, bilan, sari, sayin; tag, ost, bo'y, old; qara; boshla, yubor, bo'l, so'ng, kabi, yanglig', burun...*) kiradi. Mohiyatan ushbu yordamchi leksemalar grammatik morfemalardir. Ular leksemalarga o'xshab, alohidalik xususiyatiga ham ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, yordamchi so'zlar leksemalar va qo'shimchalar orasida «oraliq uchinchi» bo'lib, ham lekmemalar, ham grammatik morfemalar xususiyatini o'ziga mujassamlashtiradi. Ammo ular na leksemalarga, na grammatik morfemalarga to'liq teng bo'la olmaydi.

Leksema jamiyatning barcha a'zolari uchun tayyor, umumiy va majburiy sanalishi bilan bir qatorda yana bir qancha xususiyatlarga egadir.

Jamiyat a'zosi leksemani yasamaydi, uni tayyor holda qabul qiladi.

Jamiyat a'zosining ongida har bir leksema boshqa leksemalar bilan o'xshashlik qatorlarida (paradigmalarda) yashaydi. Masalan: *[daftar] ~ [bloknót]; [daftar] ~ [oynoma] ~ [ro'znoma]; [daftar] ~ [qissa] ~ [roman]; [daftar] ~ [muqova] ~ [varaq] ~ [bet] ~ [bob]* kabi. *Daftar* so'zi shu munosabatlar asosida turlicha ma'no beradi.

Leksemalar inson ongida qo'shniçilik munosabatlarida (sintagmatik) ham yashaydi. Masalan: *[daftar] ~ [yoz] ~ [ol] ~ [sifatli] ~ [matematika] ~ [ona tili]; [daftar] ~ [son qo'shimchalari] ~ [egalik qo'shimchalari] ~ [kelishik qo'shimchalari]*.... Bu o'xshashlik va qo'shniçilik munosabatlari, ma'no va vazifa

imkoniyatlari nutqda oydinlashadi, aniqlashadi. Demak, leksemalar til egalari ongida voqelashgan va voqelashadigan nutqiy imkoniyatlar yig'indisi hamdir.

Leksema til birligi sifatida turlicha imkoniyatlar majmuasi bo'lsa, so'z uning voqelanishi, ro'yobga chiqishi, aniq shakl, mazmun va vazifa kashf etgan moddiy ko'rinishidir. Har bir leksema nutqda muayyan so'z sifatida namoyon bo'ladi. Leksema ikki tomonga ega bo'lgan til birligidir. Aniqrog'i, u shakl va mazmun tomonlaridan iborat ramzdir. Sistem tilshunoslikda leksemaning shakl tomoni **nomema** deyiladi. Nomema faqat leksemaning shakliga (moddiy qobig'i, tashqi tomoniga) nisbatan ishlatiladi. Leksemaning mazmun tomoni (ma'nosi, ichki tomoni....) esa **semema** nomi bilan yuritiladi. Demak, leksema= nomema+sememadir.

Nomema leksemaning tilga xos tomonidir. U ongimizda muayyan fonemalar tizmasi sifatida mavjud. Nomemaning fonemalar tizmasidan iboratligi ichki nutq jarayonida (kishi fikr yuritganda, ma'lum matnni ichida o'qiganda) aniq seziladi. Chunki odam ichki nutq jarayonida so'zlarni, qo'shimchalarni ketma-ket tizib, xuddi gapirayotgandek, ularni grammatik jihatdan shakllantiradi. Demak, inson faqat ovoz chiqarganda emas, balki ovozsiz ham fonemalarga moddiy shakl bera oladi. Tashqi muhitda nomema tovushlar (yoki harflar) tizmasi sifatida voqelashadi. Substansional tilshunoslik leksemalarning moddiy tomoniga – nomemalarga ko'p ahamiyat bermaydi. Chunki nomema leksemaning mohiyatiga ta'sir ko'rsatmaydi. Leksemaning mohiyati esa uning ichki tomoni – semema orqali va shunga ko'ra leksemaning boshqa til birliklariga munosabati, aloqaga kirishuvi orqali belgilanadi. Nomemaning ahamiyati nazmiy nutqda behad katta bo'ladi (qofiya, radif, tajnis turlari, saj'....). Shu sababli she'riyatda nomemaga asosiy e'tibor qaratiladi. Lingvistika nuqtayi nazaridan esa asosiy e'tibor faqat sememaga qaratiladi.

Semema leksemaning ichki tomoni, uning mazmuni, ma'nosi, nimani ifodalab kelishidir. Sememalar ko'pincha ongimizda muayyan bir tushuncha bilan bog'liq bo'ladi. Tushuncha – ong, mantiq birligi, semema esa leksemaga xos birlikdir. Masalan, [o'rik] leksemasining sememasi quyidagi tushunchalarda namoyon bo'ladi: 1) ho'l meva turi; 2) shu mevaning quritilgani; 3) shu mevani beradigan daraxt.

Sememaning tushunchalar bilan bog'liqligini faqat mustaqil leksemalardagina kuzatish mumkin. Yordamchi leksemalarda, olmoshlarda esa bunday bog'lanishni ko'rmaymiz. Tilshunoslikda sememani hosil qiluvchi ma'no bo'laklari **sema** deyiladi. Masalan: [daraxt] leksemasining semalari quyidagilar: 1) predmet; 2) o'simlik; 3) yerda o'suvchi; 4) tanali; 5) ildizli; 6) shoxli; 7) bargli.

Leksemalarni shu nuqtayi nazardan o'zaro ichki munosabatlar asosida muayyan qatorlarga, guruhlariga, tur va turkumlarga birlashtirish zarur. leksemalarni tizim sifatida tahlil qilish sistem tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biridir.

So'zning leksik ma'nosi hamma vaqt tushunchaning o'zinigina ifodalayvermaydi. So'zning asosiy leksik ma'nosi emosional-ekspressiv ottenka, stilistik boyoq birgalikda leksik ma'noning komponentlarini tashkil etadi. So'zning ma'nosi haqidagi mazkur

fikrlardan ko‘rinib turibdiki, so‘z real borliqdagi turli-tuman narsalar va ular haqidagi tushunchalar bilan dialektik ravishda bog‘liqdir. So‘zning tabiatini aniq tasavvur qilmoq uchun so‘z bilan tushuncha o‘rtasidagi munosabatning qandayligini yaxshi bilish lozim. O‘tmishda yashagan ba‘zi mashhur olimlar (Platon, Sokrat va b.) so‘z bilan predmet o‘rtasida tabiiy bog‘lanish bor deb oylaganlar. So‘z predmet bilan biror jihatdan bog‘lansa ham, biroq bu bog‘lanish bevosita, ichki tabiiy bog‘lanish emas. Agar so‘z bilan predmet o‘rtasida bunday bog‘lanish bo‘lganda edi, bir xil narsalarni bir necha nom bilan atash mumkin bo‘lmay qolar edi. Nom (so‘z) bilan narsa o‘rtasidagi munosabat shartlidir.

Biroq shuni ham aytish kerakki, predmetlarga nom mutlaqo tasodifiy ravishda qoyilmaydi. Nom qo‘yishning ma‘lum qonuniyati bor. XIX asrda yashagan nemis faylasufi L.Feyerbax nomning mohiyati xaqidafikr yuritib: “Nom nimadir? Farqlash uchun zarur bo‘lgan belgi, ko‘zga tashlanib turadigan qandaydir alomat bo‘lib, men predmetni butunligicha tasavvur etish uchun narsaning namoyandasi, vakili qilib olaman” deydi. Oaqqatan, biror notanish narsalarga duch kelganda, avval u tanish predmetlarga solishtirib ko‘riladi va shu asosida yangi predmetning ko‘zga tashlanadigan biror belgisi ajratilib, ana shu belgi predmetga nom qoyish uchun asos qilib olinadi. Shuning uchun ham rus tilshunosi A.A.Potebnya “Biror narsani shunday deb atabmizmi, buning izohi bordir” deb alohida taokidlaydi.

Biror so‘zga asos bo‘lgan belgi vaqtlar o‘tishi bilan asta-sekin unutila boradi. (Masalan, otlanmoq). Natijada so‘zning hozirgi ma‘nosi bilan uning dastlabki ma‘nosi o‘rtasida uzilish sodir bo‘ladi. Tildagi juda ko‘p so‘zlar ana shunday prosessni o‘z boshidan kechirgan. Tilda kelib chiqishini, paydo bo‘lish tarixini isbotlash qiyin bo‘lgan so‘zlar (motivi yo‘q so‘zlar) shu tariqa paydo bo‘lgan. Agar so‘z umumlashtirmay yakka-yakka narsalarni bildirganda edi, tilda so‘zlar tolib-toshib ketgan bo‘lar edi.

So‘z bilan tushuncha o‘rtasidagi munosabat xaqida yana quyidagilarni aytish mumkin. So‘z ishora (simvol) sifatida tashqi, material tomon bo‘lsa, tushuncha fikr sifatida ichki ideal tomondur. Bu ikki tomon bir-biriga qarama-qarshi bo‘libgina qolmay, ular ayni zamonda ajralmas kategoriyalar hamdir. So‘z bilan tushunchaning o‘zaro uyg‘unlik tomoni ularning umumlashtirish xususiyatida ham ko‘rinadi. Tushunchani shu asosda so‘z bilan tenglashtirish, ularni bir xil hodisa deb talqin etish to‘g‘ri bo‘lmaydi. So‘z bilan tushuncha o‘rtasida muhim farqlar ham bor. Bular quyidagicha:

So‘z tilning elementi bo‘lsa, tushuncha tafakkurning elementi. Tushuncha ideal hodisa bo‘lib, predmetlarning umumiy va muxim belgilarini aks ettiruvchi fikr formasidir, so‘z esa material hodisa bo‘lib, tushunchaning yashash formasidir. Buni quyidagi misol orqali tushuntirish mumkin:

So‘z ichra mudom aql yashirindir. (So‘z va tushuncha)

So‘z chimildig‘u, aql kelindir. (So‘z va predmet) (N.Xisrav).

So‘z ma‘lum bir jamoaga mos bo‘lsa, tushuncha umuminsoniydir. So‘zda milliy, emosional tomonlar bo‘lishi mumkin, ammo tushuncha bunday xarakterga ega emas.

Tushuncha har gal o'zining mantiqiy mazmuni bilan chegaralanadi. Har qanday so'z tushunchani bildiravermaydi, biror tushuncha odatda so'z orqali ifodalanadi. Bir so'z bir necha tushunchani, bir necha so'z bir tushunchani bildirishi ham so'z bilan tushuncha o'rtasida farq borligini ko'rsatadi. So'z bilan tushuncha o'rtasidagi tenglik atamalargagina xos.

Yuqorida aytib o'tilganidek, odatda predmetga nom uning ko'zga tashlanib turgan biron belgisi asosida qoyiladi. Biroq narsani nomlash uchun asos qilib olingan belgi ikkinchi bir narsada ham bo'lishi mumkin. (Masalan, ko'k - rang, ko'k - o't, o'simlik, ko'k - osmon). Buning natijasida har bir tildagi anchagina so'zlar o'zining asosiy ma'nosidan tashqari bir qator ko'chma ma'noga ham ega bo'ladi. Natijada bir so'z bir necha ma'no kasb etib, logik prinsipga qarama-qarshi olaroq, ko'p ma'nolilik kelib chiqadi. So'zning bir necha ma'no anglatishi polisemiya yoki polisemantizm, bir ma'no bilan chegaralanishi monosemiya yoki monosemantizm deb yuritiladi.

Sirtan qaraganda polisemiya fikr olishuviga monelik qilishi mumkindek tuyuladi. Aslida esa bunday emas. ("Polisemiyadan judo bo'lgan til lingvistik do'zaxga muhtalo bo'ladi". O.Yespersin). Tilda polisemantik so'zlarning ma'nosini aniq belgilab beruvchi mezon-vositalar bor. Ana shunday mezon-vosita kontekstdir. ("So'zning oaqiqiy hayoti kontekst ichidadir". A.A.Potebnya). kontekst (lotincha bog'lanish) so'zni boshqa ma'nolardan tozalaydi, uni ko'p ma'nolilikdan mao'rum etib, aniq bir ma'noga keltiradigan so'zlar o'ramidir. Ba'zilar oylagandek, kontekstning roli u bilan chegaralanmaydi. Kontekst yuqoridagi funksiyadan tashqari so'zdagi polisemantik holatni topish uchun ham xizmat qiladi. Masalan, ko'z qorasi eng nozik organ. Xayr og'lim, xayr ko'zim qorasi! (g'.g'.). Baozan so'zning ma'nosini kontekst emas, nutq vaziyati (situatsiya) aniq ko'rsatadi. Ildiz ostida nima bor? (Matematika); Ildiz ostida nima bor? (Botanika). Bu ikki gap tarkibidagi ildiz so'zining qanday ma'noda qo'llanganligini so'zlar o'rami orqali emas, balki nutq vaziyati orqali aniq bo'layotir.

Xullas, so'z predmetning nomi, tushunchaning ifodalovchisidir. So'z nominativ funksiya bajaruvchi til birligidir. Tilning birorta boshqa birligi (fonetik yoki grammatik birligi) bunday vazifa bajarmaydi. So'z tilning eng konkret va asosiy birligi hisoblanadi. Tili chiqayotgan godak tilning so'z tomoniga duch keladi. Nutqni ostirish, chet tilini o'rganish dastavval so'zlarni yodlashdan boshlanadi. Yozuvchi va tarjimon aksariyat hollarda so'z bilan ish ko'radi. Tilni ongli, ilmiy bilmaydigan kishi tilning fonetik yoki grammatik tomonini emas, balki uning so'z tomonini aniq tasavvur etadi, chunki so'z til strukturasida ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Shu sababdan bo'lsa kerak, tovushlashish, qo'shimchalashish deyilmay, so'zlashish gaplashish deyiladi.

Shunday qilib, so'z leksikologiyasining eng harakatchan sohasi bo'lib, tilshunoslikning hamma sohalari bilan aloqada, ular bilan birga ish ko'radi. Xulosa qilib aytish mumkinki, leksema «o'zida tayyorlik, majburiylik, takrorlanuvchanlik, ijtimoiylik xususiyatlarini mujassamlashtirgan, shakl va denotativ ma'no birligidan iborat mustaqil

anglanish va qo'llanish tabiatiga ega bo'lgan lisoniy birlik» deb tariflanar ekan, bu ta'rif faqat mustaqil leksemalar uchun xosdir. Chunki yordamchi leksemalar denotativ xususiyatlarga ega emas. Yordamchi leksemalar uchun grammatik ma'no xosdir.

So'zlarda ma'no taraqqiyoti: ma'noning kengayishi, torayishi va ko'chishi. Til o'z doirasidagi subektiv va obektiv qonun-qoidalar asosida rivojlanadi, taraqqiy etadi va bu jarayon jamiyatda sodir bo'layotgan hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, jamiyatning taraqqiyotiga ham, o'z navbatida, tilning ta'siri katta. Tilning lug'at tarkibi ham bundan mustasno emas. So'z ma'nosi rivojlanishi, sifat va miqdor o'zgarishi, ular ma'nolarining kengayishi va torayishi, hatto so'zlarning tildan tushib qolishi, ya'ni iste'moldan chiqib ketishi ham mumkin. Bunda jamiyat tarixi va uning taraqqiyoti alohida ahamiyatga ega.

Ijtimoiy hayot va uning asoslaridan biri bo'lgan tafakkurning intensiv rivojlanib borishi fan va texnikaning taraqqiyotiga olib keladi. Natijada yangidan-yangi tabiiy hodisalar mohiyatini bilish, o'zlashtirish, hayotga tadbiiq qilish, texnika yangiliklarini kashf qilish lozim bo'ladi va u jamiyat taraqqiyotiga olib keladi. Til bularning barchasiga ham alohida yangi nom yarata olmaydi, ammo ularni mavjud iste'moldagi so'zlar yordamida yangi ma'nolar bilan ifodalashi mumkin. Masalan: uchmoq so'zi aslida parrandalar harakati bilan bog'langan. Ammo hozirgi kunda uning ma'nosi kengayib, varrak, samolyot, yerning sun'iy yo'ldoshi kabi tushunchalar bilan ham ifodalanadigan bo'ldi. Yoki maydon so'zi sport maydoni, Mustaqillik maydoni, mardlar maydoni, futbol, voleybol, basketbol maydoni va boshqalar. Rus tilida krilo so'zining ma'nosi krilo ptisi – qushlarga xos predmet, ammo bu so'zlar hozirgi kunda krilo samoleta, levoye, pravoye krilo polya, pravaya, syentrolnoye krilo zdaniya va boshqa ma'nolarda ham qo'llanmoqda. So'z ma'nolarining kengayishi va torayishi hodisalari lug'at tarkibining doimo yangilanishini ta'minlaydigan vositalardan biridir.

So'z leksik ma'nosining kengayishi natijasida ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlar paydo bo'ladi. Leksik ma'noning torayishi esa so'z ma'nosi kengayishining aksidir. So'z ma'nosining torayishi uning qo'llanish chegarasi, doirasini belgilaydi. Ko'pchilik tilshunoslarning fikricha, so'z ma'nosining torayishi deganda umumlashtiruvchi so'zning ayrim, xususiy ma'noni ifodalashga o'tishi tushuniladi. Masalan: osh so'zi ilgari barcha ovqat turlarini bildiradigan bo'lsa, hozirgi kunda faqat palov ma'nosini bildiradi. Rus tilida xrustal so'zi xrustaldan ishlangan buyumlarni, idishlarni nazarda bildiradi, aslida esa bu so'z bilan kristal ma'nosini ifodalar edi.

So'zlarning kengayishi yoki torayishi to'g'risida quyidagi misolni ham keltirish mumkin. Masalan: baxshi so'zi aslida xitoycha bo'lib, xitoy tilida “pak-si” (hozirgi xitoy tilida bo-shi) shaklida bo'lib, turkiy tilga mo'g'ul tili vositasida o'zlashtirilgan. Ushbu xitoycha so'z yapon tilidagi “hakase/hakusi” so'zlari uchun ham manba bo'lib hisoblanadi. “Turk tilining etimologik lug'ati”da baxshi so'zi quyidagicha izohlanadi: “Xitoycha pak-si yoki posi shaklida bo'lib, ustoz, yozuvchi, kotib ma'nolarini anglatadi”

va shu shaklga asoslanib baxsi-baksi soʻzlari ishlatiladi. Bu shakl qadimgi turk tilida ishlatilib, “toʻy tantanalarini boshqaruvchi kishiga” nisbatan qoʻllanilgan. Hozirgi Osiyo turklarining tilida “p” tovushi “b” bilan ifodalanadi. Shuning uchun: po-si / bo-si, baksi / baski. Sanskritda bhinsi, moʻgʻilcha baksi. “Drevnetyurkskiy slovar”da tabib yoki hokimlarning otasi bakshi deb atalgan. Otasi baxshi turkiy tilda “ot” soʻziga “amak” qoʻshimchasini qoʻshish natijasida qoʻshish natijasida hosil boʻlgan “otamak”, “oʻtamoq” – “soʻz aytmoq”dir. Qadimda bu soʻz “oʻt-oʻlanlardan dori-darmon tayyorlab, bemorlarni davolaydigan tabib, hokim maʼnolarini ifodalagan”.

Hozirgi oʻzbek tilida bu soʻz uchramaydi, ammo hozirgi turk tilida otaki – otamak – dori-darmon bilan bemorni tuzatadigan, hakim, tabib maʼnolarini anglatuvchi soʻz shaklida ishlatiladi. “Devonu lugʻatit turk”da bu atama “otachi” shaklida uchraydi va “tabib” maʼnosini anglatadi. Bu atamani baʼzi sheva va lahjalarda “baxshi”, “tabib”, “shaman”, “qush vahshiysi”, “folbin” shakllarida qoʻllanilishini qayd qilgan.

V.V.Bartoldning fikricha, baxshi leksemasi Sharqiy Turkistonda yashovchi uygʻur kotiblar va uygʻurlar ichida yashagan buddistlar orasida baxshi soʻzi ana shu maʼnoda ishlatilgan. Moʻgʻullar davlatida baxshi soʻzi “kotib”, “maʼmur” maʼnolarini anglatgan. A.K.Borovkovning ifodalashicha, XII-XIII asrlarda Sharqiy Turkistonda uygʻur kotib-baxshilar obroʻli oʻrinda boʻlishgan. Ular rasmiy devonxonalarda xizmat qilishgan. Alisher Navoiy oʻz asarlarida “baxshi” soʻzini asosan “kotib”, “mirzo” maʼnolarida ishlatgan. “Boburnoma”da ham “baxshi” soʻzi “kotib”, “mirzo”, “yozuvchi” maʼnolarida ishlatilgan.

Hozirgi oʻzbek tilida ham baxshi soʻzi ishlatilib, u quyidagi maʼnolarni anglatadi: 1. xalq dostonlarini kuylovchi shoir, oqin. 2. Duolar oʻqib, dam solib, irim-sirimlar qilib davolovchi tabib. Koʻrinib turibdiki, hozirgi oʻzbek tilida baxshi soʻzining qoʻllanishi kengaygan, ayniqsa, maʼno anglatish chegarasida.

Tahrir soʻzining arab tilidagi maʼnosi “asar yozish” maʼnosi bilan chegaralangan boʻlsa, hozirgi oʻzbek tilida uning maʼno chegarasi ancha kengaygan va asarga tuzatishlar kirituvchi yoki chop qilishga, nashr qilishga tayyorlash, bir ishni ilmiy nuqtai nazardan talab darajasiga olib borish kabi maʼnolarni ham bildiradi.

Munshiy, musavvir, hattot, insho kabi soʻzlarining qoʻllanish maʼnolari toraygan. Baʼzi arabcha soʻz va atamalarining maʼnosi ancha kengaygan, masalan, hat soʻzi dastlab uch maʼnoda qoʻllanilgan boʻlsa, bugungi kunda toʻqqiz maʼnoni anglatishda qoʻllaniladi. Qalam soʻzi ham ilgari ikki maʼnoda qoʻllanilgan boʻlsa, hozir uning oltita maʼnosi ishlatiladi – bu hodisa maʼnoning kengayishidir.

Soʻzlarninig shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari. Til birikmalarini yaxlit bir tizim sifatida oʻrganish borasidagi tadqiqotlar natijasida maʼlum boʻldiki, leksik birliklar lisonida turli semantik munosabatlar asosida har xil paradigmalar hosil qilgan holda mavjud boʻladi. Sinonimiya, antonimiya, graduonimiya, partonimiya, giponimiya

kabilar ana shunday lisoniy munosabatlar sirasiga kiradi. Quyida ularning har birini alohida-alohida ko‘rib o‘tamiz.

Sinonimiya. Shaklan turlicha, ammo bir tushunchani turli bo‘yoq va ottenkalar bilan ifodalaydigan leksemalar sinonimlardir. Ma‘nodosh leksemalar orasidagi aloqadorlik *sinonimik munosabat* deyiladi. Ma‘lumki, o‘zbek nutqida ishlatiladigan so‘zlarning juda katta qismini ko‘p ma‘noli (polisemantik) so‘zlar tashkil etadi. Ko‘p ma‘noli so‘zlarda so‘zning asl bosh (yetakchi) ma‘nosidan o‘sib chiqqan turli hosila ma‘nolar kuzatiladi. Aslida leksemalar o‘zaro sememalari asosida boshqa leksemalar bilan ma‘nodoshlik munosabatida bo‘ladi. Aniqrog‘i, ko‘p sememali (ma‘noli) leksemalar har bir sememasi bilan alohida-alohida ma‘nodoshlik qatoriga kiradi. Chunonchi, [bosh] leksemasi «tananing bo‘yindan yuqori qismi» semasi asosida [kalla] leksemasi bilan, «rahbarlik qilmoq, boshqarmoq» semasi asosida [yetakchi], [yo‘lboshchi], [sardor], [boshliq], [rahbar] leksemalari bilan, «tik narsalarning tepa qismi» semasi asosida [uchi], [cho‘qqisi] leksemalari bilan sinonimik munosabatga kirishadi. Demak, sinonimiya hodisasi haqida gap ketganda, bu hodisani *semantik* sinonimiya deb atash to‘g‘riroqdir.

Sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa sememalari aynan bir xil bo‘lib, faqat ifoda semalari farqlanadi. Masalan, *kulmoq ~ iljaymoq ~ tirjaymoq ~ ishshaymoq ~ hiringlamoq ~ tabassum qilmoq*. Ma‘nodoshlik qatoridagi mazkur leksemalarning barchasida atash semalari bir xil: «xursandligini yoki zavq-shavqini, ichki quvonchini kulgi bilan ifodalamoq». Ammo ifoda semalari har bir leksemada o‘ziga xos. Ya‘ni «shaxsiy munosabat» har bir leksemada boshqacha namoyon bo‘lgan. Bu munosabat [kulmoq] leksemasida «shaxsiy betaraf munosabat» ko‘rinishida bo‘lsa, [ishshaymoq] leksemasida «o‘ta kuchli shaxsiy salbiy munosabat» tarzidadir.

Ma‘nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semalari turli-tumandir. Chunonchi, ijobiy yoki salbiy baho semalari; leksemaning qo‘llanilish davri bilan bog‘liq holatdagi «arxaik», «tarixiy», «umumiste‘moldagi», «yangi» semalar; leksemaning qo‘llanilish doirasini ko‘rsatuvchi «shevaga xos», «so‘zlashuvga xos», «kitobiy», «ko‘tarinkilik» va h. semalar.

Ma‘nodoshlik qatoridagi leksemalarning bittasi *dominanta* (bosh) bo‘lib, boshqalari shu leksema atrofida birlashadi va ma‘nodoshlik qurshovini hosil qiladi. Dominanta leksemaning yuqorida sanalgan barcha ifoda semalariga nisbatan neytral, betaraf bo‘ladi. Dominantaning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

- dominanta leksemaning ma‘nodoshlik qatoridagi boshqa leksemalarnikiga nisbatan «kambag‘alroq» bo‘ladi. Chunonchi, *oriq, nozik, qotma, qiltiriq, ramaqijon*. Ushbu qatordagi [oriq] leksemasida [nozik], [qotma], [qiltiriq], [ramaqijon] leksemalaridagi kabi hissiy-ta‘siriy bo‘yoq yo‘q;
- dominanta leksemaning qo‘llanilish doirasi boshqa ma‘nodoshlarnikiga nisbatan keng;

- dominanta leksema istalgan vaqtda o'z ma'nodoshlarini almashtira oladi; ma'nodoshlik qatori mansub bo'lgan katta tizimga faqat dominanta leksema kiradi va boshqa leksemalar bilan paradigma hosil qila oladi.

Masalan, «kishi tana a'zolari» lug'aviy ma'no guruhiga *yuz, aft, bashara, turq, oraz, bet, diydor, tal'at, chehra* sinonimik qatoridan faqatgina *[yuz]* dominanta leksemasi kirib, *[quloq], [burun], [lab], [qosh], [peshona]* leksemalari bilan paradigma hosil qiladi. Boshqa ifoda semasidagi ifodalar «betaraf» bo'lmaganligi bois yuqoridagi paradigmaga kira olmaydi.

Sinonimiya hodisasini deyarli barcha tillar doirasida kuzatish mumkin: *nizo, kelishmovchilik, ixtilof, nifoq, adovat; oqil, aqlli, bama'ni, dono*; ruscha: *svetlyy, yasnyy, yarkiy (ravshan); polojeniye, sostoyaniye, obstoyatelstvo (ahvol); putanyy, zaputanyy, slojnyy, trudnyy (chatoq)*; inglizcha: *look, stare (qaramoq); misfortune, failure (baxsizlik); whole, full (butun)* kabi.

Antonimiya. Leksemalar orasidagi zidlik munosabati antonimlikdir: *katta-kichik, oq-qora, baland-past, yosh-qari*; ruscha: *chyornyy-belyy, xorosho-ploxo, lejat-vstavat*; inglizcha: *necyessary-neyedless (kerakli-keraksiz), light-dark (ochiq-to'q ranglar), rich-poor (boy-kambag'al)* kabi. Antonimik leksemalarning asosida borliqdagi qarama-qarshi hodisalarning in'ikosi bo'lgan o'zaro zid tushunchalar yotadi.

Antonim leksemalarda umumiy va birlashtiruvchi semalar ham, qarama-qarshi semalar ham bo'lishi lozim. Masalan, *[yoz]:[qish]* leksemalari umumiy «yil fasli» semasiga va qarama-qarshi *[qish]* – «yilning eng sovuq fasli», *[yoz]* – «yilning eng issiq fasli» semalariga ega.

Antonimlar tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

har xil o'zakli antonimlar: *chiroyli-xunuk, issiq-sovuq, muhabbat-nafrat*;

bir xil o'zakli antonimlar: *ongli-ongsiz, o'rinli-noo'rin, guldor-gulsiz, odobli-beodob*. Antonimlarning mantiqiy asosini ikki ko'rinishdagi qarama-qarshilik tashkil etadi:

a) kontrast qarama-qarshilik va b) komplementar qarama-qarshilik.

Kontrast antonimiya darajalanuvchi leksemalar qatorining birinchi va oxirgi a'zosiga tegishli bo'ladi, ya'ni ikki antonim leksema orasida har xil antonim a'zo belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bog'lovchi bo'g'in mavjud bo'ladi. Masalan, *yosh~o'smir~balog'at~o'rta yosh~qari; past~o'rta~baland* daraja qatorlarining birinchi va oxirgi a'zosi antonimlik hosil qiladi. Demak, leksemalarning kontrast qarama-qarshiligini ularning darajalanish (graduonimik) qatoridan izlash zarur.

Komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bo'g'insiz bo'ladi: *oson-qiyin, rost-yolg'on, arzon-qimmat* kabi.

Graduonimiya. Lug'aviy birliklarning o'zaro ma'noviy munosabatlariga ko'ra ma'lum darajalanish qatorlarini hosil etishi graduonimiya hodisasidir. Darajalanish qatori kamida uchta a'zodan iborat bo'ladi.


Darajalanish munosabatlari bilan bog'langan so'zlar qatorini ikki omilga tayanib ajratish mumkin: 1) *g'ayrilisoniy* asoslar va 2) *sof lisoniy* asoslar.

G'ayrilisoniy omilning mohiyati shundaki, borliqdagi narsa, belgi, xususiyatlarda sifat farqlari bilan birga miqdor farqlar ham mavjud. Inson ongida miqdoriy va sifatiy o'zgarishlar o'z aksini topadi va ular alohida-alohida leksemalar bilan ifodalanadi. Chunonchi, *nihol-ko'chat-daraxt; ninni-chaqaloq-go'dak-bola...; buzoq-tana-g'unajin-sigir*.

Demak, ongda aks etgan miqdoriy farqlarning tildagi in'ikosi g'ayrilisoniy omilning asosini tashkil etadi.

Darajalanish qatorlarini ajratishning lisoniy asosi ma'noviy omil hamda so'zlarning paradigmatic munosabatlarini qamrab oladi. Bir qator leksemalar sememalarida bir belgining oz-ko'pligi, turli xil darajalariga ishora ma'noviy omil bilan bog'liqdir. Masalan,

- +



Gulobi - pushtiga moyil rang; **pushti** – shaftoli guli rangidagi och qizil, gulobidan to'qroq rang; **qizg'ish** – pushtidan to'qroq rang; **qizil** – qon rang; **ol** – qizildan to'qroq rang; **qirmizi** – to'q rangdagi qizil.

Demak, yuqoridagi chizmada har bir leksema ma'lum bir belgining turlicha darajalanishiga ishora qilmoqda. Shu asnodan ma'noviy omilning o'zi ham ikki jihatni – bir-biriga yaqin va o'xshash tushunchalarni ifodalashni hamda ayni bir belgining turli xil miqdoriga ishora qilishni qamrab oladi.

Graduonimik qatorlar lug'aviy paradigmalariga qo'yiladigan talablarning barchasiga javob bera oladi.

Giponimiya. Leksemalararo semantik munosabatlarning yana bir turi gipogiperonimiya bo'lib, unda tur-jins munosabatlari o'z ifodasini topadi. Giponimik munosabatda giperonim (jins) va giponim (tur) farqlanadi.

Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko'pgina ma'nolarni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy leksemasidir. Giponim esa muayyan jins turlarining nomlarini hamda o'zining semantik tarkibida jins ma'nosini ham ifodalovchi, giperonimga nisbatan boy bo'lgan lug'aviy birlikdir. Chunonchi, *daraxt* (jins) – *terak, olcha, dub, chinor, olma, archa...* (tur); *meva* (jins) – *olma, olcha, shaftoli, o'rik, nok...* (tur).

Giponimik munosabat barcha tillar uchun xosdir. Chunonchi, *derevo* (jins) – *grusha, vishnya, yabloko, persik* (tur); *the man* (jins) – *women, man* (tur); *der Baum* (jins) – *der Tannenbaum, der Aafelbaum, der Abrikosenbaum* (tur).

Partonimiya. Partonimik munosabatlarda butun-bo‘lak tushunchasi o‘z aksini topadi. Tarkiban murakkablik, bo‘laklarga bo‘linuvchanlik borliq ashyolarining umumiy qurilish qonuniyati bo‘lib, bu qonuniyat ong orqali lisonda o‘z aksini topadi va shu asosda partonimik munosabatlar yuzaga chiqadi. Masalan, *daraxt* (butun), *shox, tana, ildiz* (qismlar); *odam* (butun), *bosh, tana, qo‘l, oyoq* (qismlar). Tirnoq barmoqqa nisbatan, barmoq qo‘lga nisbatan, qo‘l esa odamga nisbatan butun-bo‘lak munosabatida bo‘ladi.


Omonimiya. Shaklan bir xil, mazmunan esa turlichalik nutqiy bosqichga xos bo‘lib, lisoniy birliklarda omonimlik yo‘q.

Nutqda ba‘zan so‘zlarning shakli ham, talaffuzi ham shakldosh bo‘lib qoladi va uning ma‘nosi kontekstda oydinlashadi. Chunonchi, *Topgan gul keltirar, topmagan bir bog‘ piyoz. Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘.* Omonim so‘zlarda ma‘no bog‘liqligi bo‘lmaydi, ular shu jihatiga ko‘ra ko‘p ma‘noli so‘zlardan farqlanadi.

Leksmalarning mazmun guruhleri(LMG) semasiologiyaning eng zarur tushunchalaridan biri hisoblanadi. LMG deganda, muayyan birlashtiruvchi semasi asosida ma‘lum guruhga birlashtiruvchi, ayni paytda farqlovchi semalariga ko‘ra o‘zaro farqlanib, ajralib turuvchi leksemalar tushuniladi. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan ma‘nodoshlik qatorlari, mazmuniy darajalanish qatorlari LMGlarning bir turidir.

Leksemalarni LMGlarga birlashtirishda ularni shunday belgilar asosida umumlashtirish lozimki, bu guruhga birlashuvchi leksemalar ma‘lum sohaga, muayyan turkumga oid bo‘lib, ular orasida o‘xshashlik juda ko‘p, farq esa oz bo‘lsin. Masalan, qoramol LMG: (*sigir, buzoq, tana, g‘unajin, ho‘kiz, buqa, govmish...*); o‘ragichlar LMG: (*ro‘mol, qiyiq, belbog‘, tasma, peshonaband, gardanband, bo‘yinbog‘, paytava, kamar...*).

LMGlar ikki qismdan – asos va qurshovdan iborat bo‘ladi. LMG asosi, odatda, bir necha (taxminan ikki - besh) leksemadan tashkil topadi va doimiy barqarorlikka ega bo‘ladi. Qurshov esa o‘zgaruvchandir. Chunonchi, «Osmon jismlari» LMGning markazi (XV asrdan to hozirgacha) to‘rtta leksemadan iborat: [*quyosh, oy, yulduz, sayyora*]. Bu leksemalarning qurshovi har bir davr uchun o‘ziga xos bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turishi tabiiydir. XV asrda:



Hozirgi kunga kelib [*quyosh*] leksemasi qurshovida [*kun*], [*oftob*] soʻzlari qolgan, xolos. Qolgan uchta markaziy leksema va uning qurshovi haqida ham yuqoridagi kabi fikrlarni ayta olamiz.

Umumiy bir mavzuga oid bir necha LMGlarning oʻzaro birlashuvi lugʻaviy maʼno toʻdalari(LMG) deyiladi. Masalan, oʻzi bir necha LMGlardan iborat boʻlgan «Uy hayvonlari» LMGlari, «Qushlar» LMGlari shular jumlasidandir.

Leksik qatlamlar va lugʻat tarkibining boyishi manbalari.

Dunyoda biror bir til izolyasiya holida yakka oʻzi yashamaydi. Til sohiblari oʻzaro muloqosiz jamiyatda yashay olmaganidek, tillar ham hamisha oʻz egalarining georafik hududiy jihatdan yaqin yoki uzoq yashashiga va boshqa muayyan tarixiy shart-sharoit, vaziyatlardan kelib chiqqan holda oʻzaro turlicha munosabatlarda boʻladi va bir-biriga taʼsir oʻtkazib turadi. u Dunyoda boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirmagan birorta ham til yoʻq. Aynan soʻz oʻzlashtirish, boshqa til tarkibidagi oʻrnidan kelib chiqib, tillar turli tillar qatlamlaridan alohida joy ham egallaydi. Shu bois har bir tildagi lugʻat tarkibi avvalo tilning oʻz qatlami va oʻzlashgan qatlamlarga boʻlinadi. qatlamlardan iborat boʻladi.

Oʻz qatlam soʻzlariga shu til mansub boʻlgan til oilasining birlamchi soʻzlari, shu tilga yaqin qarindoshchilik aloqasidagi tillarda ham mavjud boʻlgan soʻzlar hamda faqat shu tilning oʻzidagina mavjud boʻlgan soʻzlar kiradi. Masalan, oʻzbek tilining oʻz qatlam soʻzlariga umumturkiy va oʻzbekcha soʻzlar qatlamidan iborat boʻlsa, rus tilining oʻz qatlami hind-yevropa soʻzlari, umumslavyan soʻzlari va faqat rus tiliga taalluqli soʻzlar qatlamlariga boʻlinadi.

Oʻzlashgan qatlam ham har bir tilda turlicha shart-sharoitlardan kelib chiqib hosil boʻladi. Masalan, oʻzbek tilida oʻzlashgan qatlam arab tilidan, fors-tojik tilidan, rus tilidan va u orqali Yevropa tillaridan kirib kelgan soʻzlar qatlamlaridan tashkil topgan boʻlib, bulardan birinchisi, VII asrdagi arablar bosqini bilan, ikkinchisi yaqin qoʻshnichilik munosabatlari, madaniy-badiiy aloqalar tufayli, uchinchisi esa Oʻrta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va Sobiq Ittifoq tarkibiga kiritilishi, shuningdek, fan va texnika taraqqiyoti tufayli yuz bergan.

Soʻz oʻzlashtirish ijobiy hodisa sanadladi, chunki u tilni boyitadi, til egalarining bilimlarini, dunyoqarashi va soʻzlashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq u meyordan ortib ketsa va tilning oʻz qatlamiga oid soʻzlarini siqib chiqara boshlasa, unda katastrofa holati yuz berishi va til asta-sekinlik bilan yoʻqolib ketishi mumkin.

Til lugʻat tarkibi asosan 4 ta manba orqali toʻldiriladi, boyiydi:

1) morfemik derivatsiya (hosila), yaʼni affiksatsiya usulida soʻz yasash. Bu ichki omil hisoblanadi.

2) semantik derivatsiya, yaʼni tilda soʻzlardagi maʼno taraqqiyoti va koʻchishi orqali yangi soʻzlarning yasalishi; Bu ham ichki omil.

3) erkin boʻlmagan birikmalar hosil qilish;

4) boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish, yaʼni tashqi omillar orqali.

Morfemik derivatsiya va leksikalizatsiya. Uzoq Sharq va Janubiy – Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi izolyasiyalashgan tillarda (xitoy, veʼtnam, kxmer va boshqalar) morfemik derivatsiya kam miqdorda ishlatiladi. Masalan, sintetik vetnam tilida matndagi 100 ta soʻzdan 6 tasi affiksial derivatsiya hisoblanadi. Ammo izolyasiyalashgan tillarda soʻzlarning oʻzaro qoʻshilishi juda rivojlangan. Chunki, masalan, vetnam tili matnlarida affiksial yasalgan va yasama soʻzlarning salmogʻi 31%ni, yasama boʻlmagan soʻzlarning miqdori esa 69% ni tashkil qiladi. Bu yerda shuni eʼtiborga olish lozimki, izolyasiyalashgan tillarda ikki oʻzakli qoʻshma soʻzlarni soʻz birligidan, mustaqil soʻzlarni esa yordamchi soʻzlardan farqlash qiyin.

Ajratuvchi tillarda morfem derivatsiya keng qoʻllanadi hamda yangi soʻzlarning asosiy manbai hisoblanadi. Rus tilida XX asrning ikkinchi yarmi davomida oʻzlashtirilgan 3500 yangi tushunchalarning 33% morfemik derivatsiyani, ingliz tilining leksikasida 67,5% morfemik derivatsiyani, yaʼni yasama soʻzlarni tashkil qiladi. V.G.Gakning taʼkidlashicha, fransuz va rus tili leksikasining 2/3 qismi yasama soʻzlardan iboratdir.

Lugʻat tarkibining boyishi soʻz oʻzlashtirishning eng mahsuldor qismi boʻlib, u uch asosiy guruh dalillari bilan belgilanadi: 1) tillarning aloqa xususiyatlari bilan; 2) jamiyatning lingvistik gʻoyasi va til vaziyatining, til holatining oʻziga xosligi; 3) tilning ichki tarkib xususiyatlari bilan.

Har bir tildagi oʻzlashtirilgan soʻzlarning oz-koʻpligi mazkur tillarning zaifligidan dalolat bermaydi, aksincha, bu millatning ikkinchi millatga yoki xalqqa boʻlgan ochiq koʻngililigi, har tomonlama yaxshi munosibligi, bir millatning boshqa millat madaniyatiga boʻlgan obektiv, oqilona munosabatidir. Masalan, ingliz tilidagi soʻzlarning qariyb 50% fransuz va lotin tillaridan oʻzlashtirilgan. Oʻzbek tili lugʻat tarkibining qariyb 40%ni arab va fors-tojik soʻzlari tashkil qiladi.

Ingliz tilidagi fransuz soʻzlarining, rus tilidagi lotin, roman, german tillari soʻzlarining yoki oʻzbek tili lugʻat tarkibidagi arab, fors-tojik soʻzlarining koʻp miqdorliligi nomi tilga olingan xalqlar tillarining leksik tomondan bir-biriga yaqinligini va bundan tashqari, bu tillardagi umum baynalminal soʻzlarni qoʻllash, ishlatish shu xalqlarning madaniy, texnik, texnologik tomonidan yaqinlashuviga olib keladi, muloqot qilishni osonlashtiradi.

Agar rus, ingliz, nemis, ispan, polyak tillarida XX asrgacha fransuz tilidan oʻzlashtirilgan soʻzlar koʻpchilikni tashkil qilgan boʻlsa, bugungi kunda bu tillarda ingliz tilidan oʻzlashtirilgan soʻzlar salmoqliroqdir. Yo boʻlmasa yaqingacha oʻzbek tilining tarkibida arab, fors tillaridan oʻzlashtirilgan soʻzlarning miqdori salmoqli boʻlgan boʻlsa, bugungi kunda oʻsha tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar qatoridan ingliz tilidan kirib kelayotgan soʻzlar tobora koʻpayib bormoqda.

Shuningdek, til lugʻatidagi soʻzlar qoʻllanishiga koʻra ham faol va nafaol qatlamlarga boʻlinadi. Kundalik turmushda keng ishlatiladigan umumisteʼmoldagi soʻzlar faol soʻzlar

qatlamini, tilga yangi kirib kelgan va hali faollashib ulgurmagan yoki tarixiylik yohud eskirganlik nuqtai nazaridan tilda kam ishlatiladigan, shuningdek, muayyan hududiy, kasbiy, etnik, uslubiy ma'nolari jihatidan qo'llanishi chegaralangan so'zlar esa nafaol so'zlar qatlamlarini tashkil etadi. Ushbu qatlamga shevaga xos so'zlar, atama-terminlar, kasb-hunarga xos so'zlar, jargonlar, argolar, evfemizmlar kiradi. Tildagi barcha so'zlar kabi ushbu qatlamlar ham o'zgarib turadi, qulay tarixiy shart-sharoitlarda ular faol so'zlarga aylanishi yoki aksi bo'lishi ham mumkin.

Til lug'at sostavida eskirishga qaraganda yangilanish va boyib borish kuchli bo'ladi. Bu hol tilning lug'at sostavida aniq bilinadi. Lug'at sostavining harakati quyidagilarda ko'rinadi: Eski so'zlar yo'qoladi, aktiv so'zlar passivlanadi, va aksincha, eski so'zlar yangi so'zlar bilan almashadi, yangi so'zlar yasaladi, boshqa tillardan so'z o'rlashadi, qoshma so'zlar, turg'un birikmalar paydo bo'ladi. So'z ma'nosi kengayadi, kichrayadi, ayrim so'zlar eski ma'nosini yo'qotib, yangi ma'noda qo'llanadi, oddiy so'zlar atamaga aylanadi.

Mavzu bo'yicha yo'naltiruvchi savollar

1. Fonetika va fonologiyaning o'rganish obekti nima?
2. Tovush, fonema, fonemaning variantlari atamalarini tushuntiring.
3. Tovushning fonetik xususiyatlariga nimalar kiradi?
4. Artikulyasiya va artikulyasiya bazasi nima?
5. Nutq akustikasiga nimalar kiradi?
6. Fonetik tovush o'zgarishlari qanday turlarga bo'linadi?
7. Nutq fonetik jihatdan qanday birliklarga bo'linadi?
8. Fraza va takt qanday ajratiladi?
9. Bo'g'in, urg'u va ularning turlari haqida ma'lumot bering.
10. Unli va undoshlar tasnifi qanday belgilar asosida tasnif qilinadi?
11. Leksikologiya va uning bo'limlari haqida gapirib bering.
12. So'z, tushuncha va nom munosabatini tushuntiring.
13. Semasiologiya nimani o'rganadi?
14. So'zdagi ma'no taraqqiyoti nimalarni qamrab oladi?
15. Shakl va ma'no munosabatiga ko'ra so'zlar qanday guruhlarga bo'linadi?
16. Onomastika shaxs nomlaridan tashqari yana qanday muammolar bilan shug'ullanadi?
17. Leksikografiya qaysi masalalarni o'rganadi?
18. Etimologiya va toponimika nimani o'rganadi?
19. Etnonimika va terminologiya-chi?
20. Frazologik birikmalar nima sababdan leksikologiyada o'rganiladi?
21. Tilning qanday leksik qatlamlarga bo'linadi?
22. Tilning lug'at tarkibi qanday usullar bilan boyiydi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. -T., 2008.
 2. Yo'ldoshev I., Sharipov O'. Tilshunoslikka kirish. - T., 2007.
 3. Yoldoshev I., Muhamedova S., Sharipova O', Madjidova R. Tilshunoslik asoslari. - T., 2013.
 4. Maslov Y.S. Vvedeniye v yazikoznaniye. – M., 2007.
 5. Mechkovskaya N. B. Umumiy tilshunoslik, tillarning tuzilmaviy va ijtimoiy tipologiyasi. - T., 2006
 6. Reformatskiy A.A. Vvedeniye v yazikoznaniye. – M., 2006
 7. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish.- Toshkent, 2008.
 8. Irisqulov M..Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 1992.
 9. Sodiqov A., Abduazizov.A., Irisqulov M.. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 1981.
 10. Reformatskiy A..A.. Vvedeniye v yazikovedeniye. -. Moskva, 2008.
 11. Golovin B. N. Vvedeniye v yazikoznaniye. - Moskva, 1979.
 12. Koduxov V. I. Vvedeniye v yazikoznaniye. - Moskva, 1979.
 13. Koduxov. V. I. Obsheye yazikoznaniye. - Moskva, 2009.
 14. Churilina. L. N. Aktualniye problemi sovremennoy lingvistiki. - Moskva, 2009.
 15. Sharafutdinova. N. S. Teoriya i istoriya lingvisticheskoy nauki. - Moskva, 2007.
- Tayanch ibora va tushunchalar (glossariy)
- Leksikologiya – til lug‘at tarkibini o‘rganadigan fan.
- Semasiologiya – tilning ma’no va mazmun tomonini o‘rganadigan soha. Semiotika – belgilar nazariyasi haqidagi fan.
- Leksikografiya – lug‘at tuzish ilmi, har bir tilga yoki ta’lim bilimiga taalluqli lug‘atlar namunasi, til tarkibidagi so‘zlarni ma’lum tartib asosida so‘zlarni yozma ravishda to‘plab, lug‘at tuzish masalasini o‘rganadi.
- Onomasiologiya (onomatologiya) – semasiologiyaning bir qismi bo‘lib, predmet va iboralarni leksik va frazeologik vositalari bilan bog‘liq tamoyil va qonuniyatlarni o‘rganadi.
- Etimologiya – mustaqil so‘z va morfemalarning kelib chiqishini o‘rganadi.
- Frazeologiya – tildagi turg‘un birikmalarni o‘rganadi.
- Onomastika – atoqli otlarni o‘rganadi.
- Toponimika – ma’lum mintaqaning geografik nomlar majmuasini, ya’ni joy nomlarini o‘rganadigan lingvistik yo‘nalish.
- Etnonimika – elat, xalqlarning nomini o‘rganadi.
- Terminologiya – atamashunoslik.
- Leksik tasnif – tilshunoslikdagi har bir ma’noning tasnifidir.

VIZUAL MATERIALLAR

1-savol. Fonetika va fonologiya

1-ilova

Fonetika qanday masalalarni o'rganadi?



Fonetik jihatdan nutq to'rt tarkibiy qism: jumla, takt, bo'g'in va tovushga ajratiladi. Fonetika ana shu to'rt birlikning tilda tutgan o'rni, turi va xususiyatlarini o'rganadi. Tovushlar talaffuzi nutq organlariga bog'liqligi tufayli fonetika nutq apparatini ham o'rganishni nazarda tutadi. Fonetika, shuningdek, nutqning urg'u, intonatsiya va shu kabi boshqa tarkibiy qismlarini ham o'rganadi

Fonologiya – ma'lum bir tildagi fonemalar sistemasini, ularning farqlash belgilarini o'rganadi

2-savol. Fonema tushunchasi

2-ilova

Tovushlar til birligi sifatida o'rganilganda til tovushlari yoki fonemalar deb yuritiladi. **Fonema** eng kichik ma'no anglatmaydigan til birligidir

3-savol. Fonetik hodisalar: kombinator va pozision o'zgariishlar

3-ilova


Фонетик ҳодисалар

Комбинатор – нутқ жараёнида
товушларнинг бир-бирига
таъсири натижасида рўй
берадиган ўзгаришлар
(аккомодация, ассимиляция,
диссимиляция, гаплогия,
диэреза)

Позицион – товушларнинг
талаффузига уларнинг сўзда
тутган ўрни, урғунинг таъсири
сабаб бўлган ўзгаришлар
(редукция)


4-savol: Nutqning fonetik jihatdan bo'linishi

4-ilova



5-savol. Nutq organlari va artikulyasiya bazasi

5-ilova




6-ilova

Артикуляция – товушнинг ҳосил бўлишида нутқ органларининг ҳаракати ва эгаллаган ўрни.

Артикуляция базаси – нутқ товушларини ҳосил қилишдаги артикуляция ҳаракатларининг йиғиндиси

6-savol. Nutq tovushlari tasnifi

7-ilova



Leksikologiya va uning bo'limlari

1-ilova

Лексикология – лингвистикада тилнинг луғат бойлигини ўрганувчи бўлим. Лексикология сўз маъноси кенгайиши ва торайиши, сўзларнинг шакл ва маъно муносабатларига кўра турлари, уларнинг ҳудудий ва ижтимоий қатламлари, янги сўзларнинг пайдо бўлиши каби қатор масалаларни ўз ичига олади

Семасиология – тил бирликларини маъно жиҳатдан ўрганади.

Лексикография – тил таркибидаги сўзларни маълум тартиб асосида ёзма тўплаб, луғат тузиш масалаларини ўз ичига олади

Ономасиология – нарс ва ҳодисаларга ном беришни ўрганади

Этимология – сўзларнинг келиб чиқиш тарихини ўрганади

Ономастика – атоқли отларни ўрганадиган фан



Фразеология – тилнинг турфун бирикмаларини ўрганади

2-savol. So'z, narsa va tushuncha

2-ilova


Тиллардаги барча сўзлар 3 хил муносабатга киришади:

- сўзнинг ўзи англатган предмет ва ҳодисага;
- сўзнинг инсон фикрига, ҳиссиётига, ҳоҳиш-истагига;
- сўзнинг бошқа сўзларга нисбатан



3-savol. Tilning leksik qatlamlari

4-ilova



4-savol: Soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari

5-ilova

Til tarkibidagi leksik maʼnolar oʻzgaruvchan boʻladi. Soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari quyidagilar:

Sinonim – bir xil yoki bir-biriga yaqin maʼnoli soʻzlar (chiroyli-goʻzal)

Omonim – yozilishi bir xil, maʼnosi har xil soʻzlar (kul-kul)

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-AMALIY MASHG'ULOT: SINTAKSIS, STILISTIKA, PUNKTUATSIYA VA UNGA OID YANGI QARASHLAR TAHLILI

Reja:

1. Grammatika atamasi talqini va uning asosiy bo'limlari
2. Tillarning grammatik tuzilishi.
3. Morfologiya va morfemika.
4. Grammatik ma'no va grammatik kategoriyalar.
5. So'z turkumlari tasnifi.
6. Sintaksis gap to'g'risidagi ta'limotni o'rganuvchi sath sifatida.

Maqsad: Grammatika, uning asosiy bo'limlari, tilning grammatik tuzilishi, grammatik ma'no va grammatik kategoriya tushunchalari haqida tasavvur hosil qilish, so'z tarkibi, morfemalar, so'z turkumlarini, ularning turli tillardagi holati, grammatik vositalar haqidagi ma'lumotni kengaytirish. Grammatikaning sintaksis sathi, uning o'rganish o'becti, sintaktik munosabatlar va nutqda ularni ifodalash yo'llari, gapning aktual bo'linishi haqida ma'lumot berish, so'z birikmasi va uning bog'lanish yo'llari, gap, uning bo'laklari va tuzilishiga ko'ra turlari haqidagi tasavvurini kengaytirish.

Tilshunoslikda "grammatika" termini turli xil talqin etiladi. Keng ma'noda tilga taalluqli umumiy qonun-qoidalarini "o'rganuvchi" ilmiy soha deb tushuniladi. Bu tushunchaga amal qiladigan bo'lsak, grammatika – lingvistika so'ziga sinonim bo'lib hisoblanadi. Ammo tarixdan, ya'ni Qadimgi Gresiya olimlari tomonidan bu terminga – "o'qish va yozish san'ati", - deb baho byerilgan. **Grammatika** – tilning grammatik qurilishi bo'lib, morfologik kategoriya va formalar sistemasini, sintaktik kategoriya va qurilishlarni, gap va so'zlarning yasalishi va shakllanish qonun-qoidalarini o'rganadi.

Grammatika deganda tor ma'noda morfologiya va sintaksis, keng ma'noda esa tilning barcha qurilish sathlari tushuniladi. Til sathlari deganda fonetika va fonologiya, leksika va semasiologiya, frazeologiya, morfologiya, sintaksis va stilistika tushuniladi. Morfologiya va sintaksis bir-birini taqozo etuvchi sathlar sanaladi. Lisoniy birliklarga zotiy yondashuv morfologiya va sintaksisning dialektik birligi haqida hukm chiqarish imkonini berdi. Morfologiya grammatikaning so'z shakllari va ularning ma'nosi haqidagi sohasi bo'lsa, sintaksis so'zshakllarining vazifasi haqidagi sohasidir. Tilning asosiy ijtimoiy vazifasi aloqa-aralashuv, insonlar orasida fikr almashtirish vositasi bo'lganligi sababli sintaksisning o'rganish manbai bo'lgan gaplarda tilning barcha sathlarining - fonologiya va fonetikaning, leksika va semantikaning, morfemika va morfologiyaning birliklari voqelanadi, yuzaga chiqadi.

Bu birliklardan har birini tilshunoslikning alohida-alohida bo'limlari o'rganadi, ammo sintaksisning o'rganish manbai bo'lgan gaplarda barcha sath birliklarining belgilari jamlanadi.

Inson leksik xazinasining o'zi fikrimizni aniq yetkazib berish uchun yetarli emas. Masalan (*Men, maqsad, dunyo, butun, sayohat, bo'ylab, qilmoq*) kabi so'zlar to'plamini gap shakliga keltirib, grammatik qurilish hosil qilinadi: *Mening maqsadim butun dunyo bo'ylab sayohat qilmoq*. Demak, grammatika tilning tovush tarkibini ham, leksik qatlamini ham o'rganmaydi. U til qurilishi asosi hisoblanib, usiz so'z (barcha ko'rinishlarida) ham, so'z birikmasi ham, gap ham, matn ham tuzib bo'lmaydi.

Til birliklari o'rtasidagi 3 xil: qatorlanish (sintagmatik) — til birliklarining ketma-ket joylashuvi, guruhlanish (paradigmatik) — ma'lum birlashtiruvchi belgi asosida muayyan sinfga birlashtiruvchi birliklar o'rtasidagi munosabat, pog'onaviylik (iyerarxik) — kichik birliklarning o'zidan kattaroq birliklar tarkibiga kirishi, ya'ni butun va bo'lak aloqasini namoyon etuvchi munosabatlar, ya'ni morfologik birliklarning birlashtiruvchi va farqlovchi belgilari ularni ma'lum paradigma tarkibida zidlash asosida aniqlanadi. Har qanday grammatik paradigma zaminida zidlanish yotadi. Tilshunoslikning vazifasi ana shu zidlanish belgilarini ochishdan iborat. Bu zidlanishlar nutqiy konkret ma'nolar asosida emas, balki grammatik (morfologik) shaklning umumiy - lisoniy ma'nosi asosida quriladi. Umumiy - lisoniy ma'nolar esa o'zaro mutanosib grammatik shakllarning aloqadorligi asosida ochiladi. Chunonchi, birlik son bilan ko'plik son shakllarining nutqiy ma'nolarini qiyoslasak:

Birlik son

kitob

1 ta kitob ko'p kitob

bu yer

Ko'plik son

kitoblar

10 ta kitob

bu yerlar

Son shakli ma'nolarini qiyoslash shuni ko'rsatadiki, birlik son aniq miqdorni ham, noaniq miqdorni (*ko'p kitob*) ham, birlikni ham, aniq va noaniq ko'plikni ham ifodalay oladi. Ko'plik son esa hamisha noaniq ko'plikni ifodalaydi. Mana shu noaniq ko'plikni ifodalash ko'plik sonning umumiy ma'nosi, birlikni ham, ko'plikni ham, aniqlikni ham, noaniqlikni ham ifodalay olish esa birlik sonning umumiy ma'nosidir.

Morfologik paradigmalarda shakllar mana shunday umumiy ma'nolar asosida zidlanadi. Morfologik shaklning mana shu usulda ochilgan umumiy ma'nosi bu shaklning qo'llanilishida — sintaksisda voqelanadi. Shuning uchun morfologik shaklning umumiy ma'nosi imkoniyat sifatida unda yashiringan bo'ladi. U nutqda sintaktik birliklar vositasida yuzaga chiqadi, ya'ni morfologik shakl imkoniyat bo'lsa, sintaktik qurilma voqelanishdir. Jumladan, "*ukamga*" so'z shakli:

- 1) lug'aviy ma'no o'zidan kichik, erkak jinsidagi bir ota-onadan bo'lgan bir avloddagi qarindosh;

- 2) ma'lum bir so'z turkumi (ot)ga mansublik;
- 3) miqdor jihatdan noaniqlik;
- 4) qandaydir boshqa so'zga tobe (to'ldiruvchi yoki hol) mavqeida kelib, harakat yoki biror narsaning unga yo'nalganligi;
- 5) I shaxsga aloqadorlik ma'nolari mujassamlangan.

"*ukamga*" so'zida bu ma'nolarning barchasi noaniq va umumiy bo'lib, u nutqda boshqa so'zlar bilan "*Kitobni ikkinchi ukamga oldim*", "*Bu gapni kenja ukamga aytdim*", "*Boshimni ko'tarib o'rtancha ukamga qaradim*" kabi aloqadorlikda voqelanganda aniqlashadi.

Bundan quyidagi xulosaga kelish mumkin: morfologik shakl nafaqat sintaktik qo'llanishi bilan, balki lug'aviy ma'no va lug'aviy to'ldirilishi bilan ham uzviy bog'langan. Bu leksika, morfologiya va sintaksisning o'zaro uzviy aloqadorligi va tilning yaxlitligi bilan tabiatan bog'liqdir. Biz tilni, uning birliklarini turli sathlarga sun'iylik bilan ajratamiz, ayrim maqsadlarni ko'zlab ajratamiz. Haqiqatda esa ular bir butunlikda yashaydi, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Lekin har bir sath uchun faqat shu sath uchun xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlash maqsadida biz o'rganilayotgan sath birligini boshqa sathlar tajallisidan sun'iy ravishda ozod qilishimiz kerak.

Masalan, "*Ahmadlar*" so'z shaklida *-lar* qo'shimchasining ma'nosi "*kitoblar*" so'zshaklidagi *"-lar"* ma'nosidan farq qiladi. Bu farq, shubhasizki, yakka shaxs nomi bo'lgan. "*Ahmad*" va bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomi bo'lgan "*kitob*" so'zining lug'aviy ma'nosi bilan va morfologik shakl bo'lgan ko'plik sonning umumiy morfologik ma'nosiga aloqador emas. Xuddi shunday "*-ni*" tushum kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan vositasiz to'ldiruvchi quyidagi birikmalarda har xil ma'noga ega: *Uyni qurdik*.

Uyni buzdik. Uyni bezadik. Uyni bo'yadik. Uyni ko'rdik. Uyni o'yladik...

Lekin bu rang-baranglik "*-ni*" shaklining umumiy morfologik ma'nosidan emas, balki unung qanday so'zlar bilan birikib kelgani bilan bog'liq. Tushum kelishigining umumlisoniy ma'nosi ot yoki ma'nosi toraygan so'zni o'timli fe'l bilan tobe bo'lak (vositasiz to'ldiruvchi) mavqeida bog'lashdan iborat, xolos. Demak, grammatika umumiy ma'nolarni ham, xususiy nutqda voqelangan ma'nolarni ham o'rganadi, shunga ko'ra 2 asosiy bo'lim: morfologiya va sintaksisga bo'linadi.

Morfologiya va morfemika.

Nutqqa xos bo'lgan eng kichik birlik so'z (yoki so'zshakl) bo'lib, ma'lumki, mustaqil so'zlar ham leksik, ham grammatik ma'nolarga, yordamchi so'zlar esa faqat grammatik ma'noga egadir. So'zshakllar grammatik ma'no ifodalash xususiyatiga qarab ma'noli qismlarga bo'linadi. Vaholanki, har qanday so'z material (tovush) va ma'no tomonlarining yig'indisidan iborat. Dunyodagi barcha tillar mustaqil ma'noli so'zlarning strukturasi jihatidan 2 katta guruxga bo'linadi. Bu guruxdagi tillarda so'zlarni o'zak,

negizlarga ajratishda ma'lum farqlar bor. I guruhdagi tillar Osiyo va Afrikada yashovchi xalqlarning tillari, turkiy tillar, ugor-fin tillarida qo'shimchalar o'zbek yoki negizga to'g'ridan-to'g'ri qo'shiladi.

2-guruhdagi tillar, jumladan, hind-yevropa tillari, xom-som tillarida grammatik ma'noni ifodalash jarayonida qo'shimchalar o'zak yoki negizga singib ketadi. O'zak, negiz bilan qo'shimchalarning bunday birikib ketishi flektiv tillarga xosdir (*fleksiya* - lot. erib ketish).

So'zlar yoki so'zshakllar tarkibida ajratiladigan eng kichik ma'noli qismlar **morflar** (yunoncha **morphe** – *shakl* demakdir) deyiladi. Morflar til faning morfemika sathida o'rganiladi. Demak, morfemika – so'zning ma'noli qismlari haqidagi ta'limot. Morflar ikki turga bo'linadi: o'zak morflar va affikslar morflar. Chunonchi, *tinchimoq*, *mehnatkashlarning*, *kitobxonlarimiz*, *to'qimachilik*. Ushbu so'zshakllarning har birida to'rttadan morf bo'lib, ularning bosh qismlari (*tin*, *mehnat*, *kitob*, *to'qi*) o'zak morflar, o'zaklarga qo'shilgan qismlar ([*-ch*], [*-i*], [*-moq*], [*-kash*], [*-lar*], [*-ning*], [*-xon*], [*-imiz*], [*-ma*], [*-chi*], [*-lik*]) esa affiksal morflar hisoblanadi.

Har bir so'zshaklda ishtirok etishi shart bo'lgan, lug'aviy ma'no ifodalovchi qism **o'zak** deyiladi. So'zga turlicha affikslar qo'shilganda ham o'zak morf o'z ma'nosini yo'qotmaydi va so'zshaklning umumiy ma'nosi o'zak morfning ma'nosi bilan zich bog'langan bo'ladi. Masalan, *tinch*, *tinmoq*, *betinim*, *tinchi* kabi so'zlar *tin* o'zagidan, *boshla*, *boshliq*, *boshchi*, *boshq*, *boshsiz*, *boshqalar* so'zlari *bosh* o'zagidan; rus tilidagi *опытник* (*tajribachi*), *опытничество* (*tajribashilik*), *опытный* (*tajribali*) so'zlari *опыт* o'zagidan; *brataniye* (*birodarlashuv*), *bratatsya* (*aka-uka tutinmoq*), *bratva* (*birodarlar*), *brates*(*og'ayni*) so'zlari *brat* o'zagidan; ingliz tilidagi *worker* (*ishchi*), *working* (*ishlaydigan*), *workshop* (*ishxona*) so'zlari *work* (*ish*) o'zagidan yasalgan.

Affiksal morflar mustaqil ravishda ishlatilmaydi, faqat so'zshakl tarkibidagina grammatik ma'no ifodalaydi, o'zak asosida yangi leksik ma'noli so'zning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Ifodalaydigan ma'no mohiyatiga ko'ra affiksal morflar uch turga bo'linadi:

so'z yasovchi affikslar;

aloqa-munosabat shakllarini hosil qiluvchi affikslar;

lug'aviy shakl hosil qiluvchi affikslar.

So'z yasovchi affikslar turli so'zlarga qo'shib, uning ma'nosi bilan bog'liq yangi so'zlar hosil qiladi. Yasovchi affikslar bir so'z turkumi doirasiga mansub yangi so'zlar yasashga: *mulk* ~ *mulkdor*, *san'at* ~ *san'atkor*, *uzum* ~ *uzumzor*, *zina* ~ *zinapoya*, *odam* ~ *odamgarchilik* (ot); *kiosk* (*do'koncha*) ~ *kioskyor* (*do'konchi*), *kran* – *kranovuyik* (*kranchi*), *glaz* (*ko'z*) ~ *glaznisa* (*ko'z kosasi*) (ot) va bir turkumdan boshqa turkum so'zlarini yasashga ham xizmat qiladi. Jumladan, *gul* (ot) – *gulli* (sifat) – *gulla* (fe'l), *keng* (sifat) - *kengay* (*moq*) (fe'l), *o'yin* (ot) – *o'yna* (fe'l), *yelpi* (fe'l) – *yelpig'ich* (ot), *chida* (fe'l) – *chidam* (ot); *grubo* (*qo'pol-sifat*) – *grubost* (*qo'pollik-ot*), *gruz* (*yuk-ot*) – *gruzit* (*yuklamoq-fe'l*), *ax* (*oh-undov*) – *axanye* (*ohlamoq - fe'l*) kabi.

O'zakka birdan ortiq yasovchi affikslar qo'shilishi ham mumkin. Bunday holatlarda so'z tarkibi murakkablashadi: *choy-xona-chi-lik, suvo-q-chi-lik, be-g'araz-lik*.

So'z yasovchi affikslarning so'z yasash darajasi ham bir xil emas. Juda ko'p miqdorda yangi so'z yasashga xizmat qiluvchi affikslar unumli affikslar hisoblanadi. *Jangchi, tarixchi, aqlli, g'ayratli, oqla, tuzla, moslama, qatlama, yoshlik, bolalik* so'zlari tarkibidagi [-chi], [-li], [-la], [-lik] affikslari shular jumlasidandir. Miqdoran kamroq so'z yasovchilar kamunum affikslar deyiladi. Chunonchi, *qamoq, tirnoq, toshqin, qirg'in, ekin, tugun* kabi.

Tarixan yangi so'z yasashga xizmat qilgan, hozirda esa bunday xususiyatini yo'qotgan affikslar unumsiz affikslardir. Masalan, [-vul], (*qorovul*), [-dak] (*kekirdak*), [-chil] (*epchil*)...

Aloqa-munosabat affikslari so'z birikmalarida so'zlarni bir-biriga bog'lashga, shuningdek, gap bo'laklarini shakllantirishga xizmat qiladi. Aloqa-munosabat qo'shimchalari guruhiga 1) egalik affikslar; 2) kelishik affikslar; 3) kesimlik kategoriyasi qo'shimchalari (zamon, mayl, shaxs-son) kiradi. Masalan, *Bu gapni hech kimga aytmaganingiz juda yaxshi bo'libdi, buni hozircha sir tutganimiz ma'qul*.

Lug'aviy shakl hosil qiluvchi affikslar sirasiga otlardagi son shakli, kichraytirish-erkalash shakllari, sifatlardagi daraja lug'aviy shakllari, fe'llardagi nisbat, ravishdosh, sifat-dosh, harakat nomi va harakat tarzi shakllari kiradi. Bunday shakllar o'zaklarga qo'shib, ularning lug'aviy ma'nosiga qo'shimcha ma'no beradi. Lug'aviy shakl hosil qiluvchi affikslar deyarli barcha agglyutinatив tillar uchun xosdir. Masalan, *kitobcha, qizaloq, kichikroq, o'qigan, yurib; knijka (kitobcha), domik (uycha), devchonka (qizaloq); smaller (kichkinaroq), more comfortable (qulayroq)*.

Nutqiy bosqichda so'zlarda bo'lgani kabi qo'shimchalarda ham shakl va ma'no munosabati asosida omonimiya, sinonimiya, polisemiya antonimiya kabi hodisalar uchraydi. Affiksal omonimiya, ya'ni qo'shimchalarning bir xil bo'lib qolishi faqat nutqiy bosqichga xos, lisoniy bosqichda har bir affiksal morf alohida zot sifatida mavjud bo'ladi. Qo'shimchalarda omonimlik ikki yoki uch so'z turkumi doirasida ro'y beradi. Jumladan, *tuzdon* (ot) – *bilimdon* (sifat), *bostirma* (ot) – *yasama* (sifat) – *yugurma* (fe'lning bo'lishsiz shakli), *ukam* (egalik shakli) – *o'qidim* (shaxs-son shakli) – *to'plam* (ot).

Affiksal polisemiya deganda so'z yasovchi affikslarning bir so'z turkumiga xos bo'lgan xilma-xil ma'noli so'zlarni yasashi tushuniladi: *tortma* (joy oti), *isitma* (mavhum ot), *surma* (narsa oti); *supurgi* (narsa oti), *sevgi* (mavhum ot) kabi. *Adabiyotchi* – *adabiyotshunos*, *badavlat* – *davlatli* – *serdavlat* – *bodavlat* – *davlatmand*, *childirmachi* – *childirmakash* kabilar affiksal sinonimiyaga; *baxtli-baxsiz*, *noumid-umidvor*, *sertashvish-betashvish*, *itoatkor-itoasiz* kabilar esa affiksal antonimiyaga misol bo'la oladi.

Affiksal morflar o'zakka nisbatan joylashish o'rniga ko'ra 3 xil ko'rinida bo'ladi:

Old qo'shimchalar (prefikslar). O'zak-negiz oldidan qo'shilishi mumkin

bo'lgan bunday qo'shimchalar, odatda, so'z yasovchi affikslar bo'ladi. O'zbek tilida prefekslar fors-tojik tili va rus tili ta'sirida paydo bo'lgan. [ba-], [bo-], [be-], [no-], [ser-], [bad-], [xush-], [ham-] affikslari fors-tojik tilidan o'zlashgan: *bahaybat*, *boadab*, *befarosat*, *noinsof*, *serchiqim*, *badbo'y*, *xushbichim*, *hamfikir*. [anti-], [pan-], [ultra-], [eks-] kabilar esa rus tili ta'sirida o'zlashgan affikslardir: *antidemokratik*, *antifashist*, *panturkizm*, *panislomist*, *ultratovush*, *ultrabinafsha*, *ekschampion*, *eksprezident*; *bezgramotnyy*, *bezopasno*, *izgnat*, *pochinit*, *nailuchshiy*, *perechitat* (ruscha); *rewrite*, *impossible* (inglizcha), *beyenden*, *Vorgang* (nemischa); *combattre*, *ossasion* (fransuzcha).

Infikslar. Infiksal morflar o'zakning ichiga joylashgan bo'ladi. Masalan, *gultojixo'roz*, *ishqiboz*, *undan*.

Postfikslar. O'zakdan keyin qo'shiladigan qo'shimchalar ko'pchilik tillarga xosdir. Chunonchi, *sinfdosh*, *paxtadan*, *oynadek*; *sputnik*, *bel'iy* (ruscha); *beautiful*, *lovely*, *tables* (inglizcha); *wyeifheit*, *Freundschaft* (nemischa).

Bir affiksal morfemaning turli ko'rinishlari variantlari **allamorflar** deyiladi. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi [-ga], uning variantlari [-ka], [-qa], [-g'a] allamorflardir yoki sifatdosh shakli qo'shimchasi [-gan], uning variantlari [-kan], [-qan], [-g'an] allamorflar hisoblanadi.

Morfemalarni bo'ginlar bilan aralashtirilmaslik kerak. Birinchidan, morflar tilning eng kichik ma'noli birligi bo'lib, ular hamma vaqt bo'g'inlarga to'g'ri kelavermaydi va bo'g'inlar ham doimo morfemalarga mos bo'lavermaydi. Masalan, o'zbek tilidagi *sharoit* so'zi uch bo'g'indan, lekin bir morfemadan tashkil topgan, *bolam* so'zi esa ikki bo'g'in va ikkita morfemadan tashkil topgan bo'lsa ham, ularning chegarasi bir-biriga to'g'ri kelavermaydi. Fonetik jihatdan *bo-lam* tarzida bo'g'inlarga ajratiladi, morfemalarga esa quyidagicha ajratiladi: *bola-m*. Ba'zi holatlarda morfemalar bo'g'inlarga tasodifan mos kelib qolishi ham ehtimol: *sinf-dosh-lar*, *gul-lar-ning* kabi.

Grammatik ma'no va grammatik kategoriyalar. Grammatik ma'no deganda nima tushuniladi? Grammatik ma'no deganda har bir tilning qurilish tizimi nutqda ifodalanishini zaruruy va majburiy deb talab etadigan va turli xil shakliy ko'rinishlar bilan beriladigan umumlashgan ma'nolar tushuniladi. Chunonchi, "*Bolalar qiziqarli kitobni o'qiydilar*" gapini olsak, "*Bolalar*" so'zida 2 xil ma'no ajralib turadi:

1) lug'aviy ma'no, ya'ni bu so'zning borliqdagi odam jinsiga mansub bo'lgan, yosh jihatdan voyaga yetmagan shaxsni yoki voyaga yetgan kimsaning farzandi, avlodini atab kelish;

2) ko'plik sonda, bosh kelishikda, gapda ega vazifasida kelgan turdosh ot. Bu ma'nolardan birinchisi lug'aviy, leksik ma'no bo'lsa, ikkinchisi grammatik umumlashgan ma'nodir. Grammatik ma'nolar har bir til uchun shu til uchun o'ziga xos bo'ladi va rang-barang shakliy usullar bilan (biz ularni navbatdagi mavzuda ko'rib o'tamiz) ifodalanadi.

Biz ko'ra oladigan, seza oladigan, o'lchay oladigan, kuzata oladigan narsa, belgi, voqea - hodisa xususiylikdir. Masalan; *daraxtni* biz ko'ra olamiz, paypaslaymiz, shoxlari va barglarini, mevasini sanay olamiz. *Daraxtning* moddiyligi uning ildizi, tanasi, shox-shabbasida. Har bir *daraxt* takrorlanmas, chunki bir yilda ekilgan 2 ta *olma daraxti* 2 ta alohidalikdir- mevasi, tanasi bir xil bo'lsa-da, barglar miqdori bilan farqlanishi mumkin. Demak, yer yuzida nechta *daraxt* bo'lsa, shuncha xususiy *daraxt* bor. Ularning hisobi nisbiy, chunki sanaguncha nechitasi quriydi, nechitasi yonib ketadi va hokazo...

Umumiylik nima? Xohlagan xususiylikda umumiylikning belgisi yotadi. Minglab daraxtlar uchun (*olma, anjir, chinor... daraxtlari*) umumiy bo'lgan tomon - tanasi, shoxi bor o'simlik. Bizning ongimizda *daraxt* xuddi shu ma'no bilan yashaydi. Umumiyliklar mayda - chuyda belgilarni o'z ichiga olmaydi, umumiylik xususiyliklarda takrorlanib turadi. Demak, xulosa shuki, xususiylik - takrorlanmas, chegaralangan; umumiylik - takroriy, chegaralanmagan.

Istalgan butunlik shakl va ma'no tomondan iborat bo'ladi. Yana *daraxt* misoliga qaytamiz. *Daraxtning* shakl tomoni bizga ma'lum: qattiq tanali o'simlik. *Daraxt* nima uchun kerak?

- 1) soya soladi;
- 2) meva beradi;
- 3) yog'och beradi... Bular *daraxtning* mazmun tomonidir, ya'ni vazifasi.

Nutqiy hosilalarning mazmuni turli nutqiy sharoitda qanchalik xilma - xil bo'lmasin, ma'lum bir lisoniy umumiylik ma'nosining tajallisidir. Demak, *daraxt* umumiyliги o'ta sodda va u "o'simlik + tana + shox"dan iborat, xolos. Lekin borliqda milliardlab behad rang - barang daraxtlar bor.

Grammatik ma'no, grammatik shakl va grammatik kategoriya grammatikaning o'zaro uzviy bog'liq eng muhim tushunchalari bo'lib, ular turli usullar bilan ifodalanadi. Dastlab, grammatik ma'no to'g'risida mufassal to'xtaylik. Grammatik ma'noning tashuvchisi va ifodalovchisi grammatik shakl sanaladi. Tabiatan agglyutinativ va sintetik bo'lgan o'zbek tilida qo'shimchalardan aloqa - munosabat qo'shimchalari va lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar, asosan, grammatik ma'no ifodalaydi. Masalan, *kitobi* so'zshakliga e'tibor bersak. Bu shakldagi [-i] qo'shimchasi kitobning qandaydir uchinchi bir shaxsga tegishliligini ifodalasa, "*O'tgan kunlar*" *kitobi*" birikmasida tur va jins nomini o'zaro bog'lab birikma hosil qilyapti. Masalan, "*Javondagi kitoblardan oldi*" gapida [-dan] qo'shimchasi ma'lum bir manbadan biror narsa ajralayotganini ifodalasa, "*Anvar uydan chiqdi*" gapida esa *Anvar* degan shaxsning chiqish joyini ko'rsatmoqda. Bu o'rinda kelishik qo'shimchalari grammatik ma'no ifodalaypti. Grammatik ma'no lisoniy va nolisoniy munosabatlarning muayyan shakl (qolip) da mujassamlangan mavhum inikosidir.

Fe'l zamonlari ham grammatik ma'no ifodalaydi. Bu zamonlar faqat nutqdagi, matndagi so'zlarning qaysi zamonga oid ekanligini ko'rsatish bilan chegaralanmay,

balki tashqi dunyoda sodir bo'ladigan voqea va hodisalarning qachon bo'lib o'tganini, ya'ni aynan gapirilayotgan vaqtda yoki gapirilayotgan vaqtdan oldin yo keyin sodir bo'layotganligini ifodalash uchun ham xizmat qiladi: *Lola o'qidi; Lola o'qiydi; Lola o'qiyotir; Lola prochitala; Lola chitayet...* Sifat darajalari ham grammatik ma'no anglatadi. Ular narsa, predmet, hodisalarning borliqdagi nisbiy farqini aks ettiradi: *tor/ torroq /eng tor; go'zal/ go'zalroq/ eng go'zal; krasivyy-krasiveye-samy krasivyy*.

Mana shunday ma'lum bir shaklda mujassamlangan va tilda ifodalanishi zarur bo'lgan umumlashgan, lug'aviy ma'no ustidagi ustama ma'no — **grammatik ma'no** sanaladi. Grammatik ma'nolar quyidagi usullar bilan ifodalanadi:

1. Affiksatsiya tilimizda grammatik ma'noni ifodalashning eng keng tarqalgan usuli bo'lib, tilimizga xos bo'lgan grammatik ma'nolarning deyarli barchasi son, egalik, kelishik, hurmat, shaxsiy munosabat, belgi darajasi, harakat, nisbat, tarz (harakatning sodir usuli), bo'lishli-bo'lishsizlik (tasdiq-inkor), mayl- zamon, shaxs-son affiks - qo'shimchalar yordamida ifodalanadi. O'zbek tilida, asosan, suffikslar, ya'ni o'zak yoki asosdan keyin qo'shiladigan qo'shimchalar ishlatiladi. Tilmizda eroniy tillardan kirgan bir qator [be-], [bo-], [ser-], [no-], [ba-] kabi prefikslar — o'zak va asosdan oldin keladigan qo'shimchalar ham o'zlashib qolgan. Lug'aviy shakl va aloqa - munosabat qo'shimchalari vositasida yasaladigan shakllar tilshunoslikda **s i n t e t i k** shakllar deb aytiladi. Affiksatsiya usuli esa **s i n t e t i k vositalar** deb ataladi. Chunonchi, *kitoblar, akamga, uylarimizda, kelmasaydingiz, yaxshiroq, o'nta* kabi shakllar sintetik shakl sanaladi. O'zbek tilida kelishik shakllari standart holda (tushum kelishigi faqat — **ni** orqali ifodalanadi) bo'lsa, rus tilida kelishik ma'nosi turli shakllar orqali ifodalanadi. Qaratqich kelishigining birlik ma'nosi: **a** (okna), **i** (tetradi), **ya** (konya) va h.

2. Yordamchi so'zlar. Bular ham grammatik ma'no ifoda qilish uchun qo'llaniladi. Ko'makchilar ot, ma'nosi toraygan so'zlar bilan birga kelib, o'zi aloqador bo'lgan so'zni boshqa so'z bilan munosabatga kiritadi: *Biz kelajakka ishonch bilan qaraymiz* (A.Q.) - holat ma'nosi voqelangan; *Telefon orqali gaplashdim* —vosita ma'nosi voqelangan; *Do'stlik biz uchun hamisha ilhom va kuch-quvvat manbai bo'lib kelgan* (O.U.) — atalganlik ma'nosi voqelangan. O'zbek tilida yordamchi so'zlar juda katta guruhni tashkil etadi, ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalarning yarim bog'lovchi, yarim ko'makchi, yarim yuklama kabi turlari mavjud bo'lib, bunday so'zlar ham mustaqil, ham yordamchi ma'noga ega. Chunonchi, *Ishning boshida* Abdurahim turar edi.

Yordamchi so'zlar sifatida o'zbek tilida *juda, eng, bag'oyat, nihoyatda, o'ta, sal, birmuncha* kabi ravishlar ham, *olmoq, bermoq, qolmoq, o'tirmoq, chiqmoq, ketmoq, boshlamoq, bo'lmoq* kabi 40 dan ortiq fe'llar ham keng qo'llaniladi. Yordamchi so'zlar vositasida yasalgan shakllar **a n a l i t i k** shakllar, ushbu vositalar esa **a n a l i t i k vositalar** deb ataladi. Tilmizda juda ko'p holatlarda ayni bir grammatik ma'no sintetik shakl bilan ham, analitik shakl bilan ham ifodalanishi mumkin. Chunonchi, *Kitobni akamga (akam uchun /akamga deb / akamga atab/ akamga mo'ljallab/...) oldim*. Ingliz

tilida *the* va *a (n)*, fransuz tilida *le, un*, nemis tilida *der, das* kabi artikllar grammatik ma'no ifodalaydi. Masalan, *the table* ingliz tilida aniqlik grammatik ma'nosini ifodalayapti. Rus tilida *v, na, pod* kabi pryedloglar turli ma'nolarni ifodalaydi.

3. Takror (reduplikatsiya)- bir so'zni aynan ikki marta takrorlash sanalib, bunda ham turli grammatik ma'nolar hosil qilinadi: predmetning ko'pligi, belgining oshirilishi, ma'noning kuchayishi, harakatning takrorlanishi hamda uzoq davom etishi va boshqalar. Chunonchi, *etak-etak paxta* — miqdoriy ko'plik; *ayta- ayta charchamoq* — harakat davomiyligi.

Grammatik vosita sifatida takror malay (indoneziya tili), hind, xitoy singari tillarda ishlatiladi. Masalan: xitoy tilida *sin* – yulduz, *sin-sin* – yulduzlar; hind tilida *bxay* – birodar, *bxay-bxay* – birodarlar; malay tilida *orang* – kishi, *orang-orang* kishilar. Tilimizda bu usulning to'liq takror (*etak-etak paxta*) va qisman takror (*qip - qizil, ko'm-ko'k, yam - yashil*) va tilimizgagina xos bo'lib, fanda "sadodosh takror" (slovo-exo) deb atalgan ko'rinishi ham keng tarqalgan (*mayda- chuyda, she'r-pe'r, kitob -mitob, ko'k-mo'k, qizil- pizil*).

4. So'z tartibi - grammatik ma'no anglatishning yana bir vositasi. So'zlarning gapda ma'lum tartibda oldinma-keyin joylashtirilishi ham grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Tilimizda ba'zan shu vosita orqali so'zning qaysi kelishikda ekanligi aniqlanishi mumkin. Masalan, bunday holatlar xususan poyetik nutqda keng uchraydi. So'z tartibi so'z birikmalari hosil qilishda yetakchi omillardan biri sanaladi. Chunonchi, *keng dalalar* (so'z birikmasi) - *Dalalar keng* (gap). So'z tartibi grammatik omili nutqda hamisha ohang bilan birga ish ko'radi. Shuning uchun yuqoridagi hosilalarning ohangi bir-biridan tubdan farq qiladi. Chunonchi, *bir, ikki kitob- bir- ikki kitob* birikmalarining ohangi har xildir. So'z tartibi xitoy-tibyet tillari oilasiga kiruvchi tillar uchun juda muhimdir. Bu usul ingliz, fransuz tillarida so'zlarning gapdagi vazifalarini, turkumini ko'rsatadi.

5. Ohang ham grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Bu vosita:

a) gapning turini ajratishga: *Imtihon topshirdi. Imtihon topshirdi? Imtihon topshirdi!*

b) gap bo'laklarini ajratishga xizmat qiladi: *Gulnora, singlim keldi. Gulnora, singlim keldi! Gulnora singlim keldi*. Birinchi gapda "*Gulnora*" va "*singlim*" so'zlari uyushib kelgan bo'lsa, ikkinchi gapda "*Gulnora*" so'zi undalma vazifasida kelgan, uchinchi gapda esa *ism* ma'nosida kelgan.

6. Juftlash har xil so'zlarni – ma'nodoshlarni (*baxt-saodat*), zid ma'nolilarni (*yaxshi-yomon*), giponimlarni ulov-(*ot-eshak*), darajalanuvchilarni (*qo'y-qo'zi*), umumiste'mol arxaizmlarni (*bola- chaqa, cho'pon- cho'liq*) — o'zaro qo'shish orqali har xil grammatik ma'nolarni ifodalash ham tilimizda anchagina.

Yuqorida sanalgan usullardan tashqari **ichki va tashqi fleksiya, suppletivizm** kabi vositalar ham mavjud. Fleksiya turli grammatik ma'nolarni ifodalash uchun so'z tarkibidagi tovushlarning o'zgarishidir. Bu vosita hind-yevropa va semit tillarida keng qo'llaniladi. Masalan: ingliz tilida: *seye-saw-seyen*; nemis tilida *fahren – fuhr*.

Suppletivizmga, chunonchi, o'zbek tilida juda kam qo'llaniladigan (*men -biz, sen -siz*; eski o'zbek tilida *u- alar, anga, anda, ani, aning*) so'zlarni kiritish mumkin. Shuningdek, arab tili orqali o'zlashgan *kitob – kutubxona, xabar – axbor, fikr - afkor, taraf - atrof* so'zlarida ichki fleksiya usullari ham uchraydi.

7. Urg'u. Dynyo tillarining barchasida urg'u grammatik ma'nolarni ifodalashgaxizmat qiladi. Masalan: *tugma* (ot) -*tugma* (fe'l), *yozma* (sifat)- *yozma* (fe'l), *studensiz* (sifat)-*studensiz* (kesim) kabi so'zlarning o'zaro farqlanishini urg'uning turli xil o'ri bilan bog'lanadi.

Hozirgi tilshunoslikda grammatik ma'noni alohida til hodisasi sifatida o'rganish endi boshlandi. Shu kungacha grammatik ma'no grammatik shaklning bir tomoni sifatida o'rganilib kelindi. Grammatik ma'noni ifodalashning rang - barang usullarini ko'rib o'tgach, biz ayta olamizki, ayni bir grammatik ma'no xilma-xil vositalar bilan ifodalanishi mumkin. Chunonchi, son ma'nosi o'zbek tilida affiksatsiya *Ø/-lar*, ya'ni birlik/ko'plik son shakllari paradigmasi doirasida ko'rib chiqilgan. Son shakllarining ma'nosi deganda mana shu ikki morfema nazarda tutilgan. Tilimizda son ma'nosining ifodalanishi yana boshqa vositalar orqali ro'yobga chiqadi. Chunonchi, ko'plik ma'nosi takror, juft so'zlar bilan ham, birlik ma'nosi juz'iy reduplikatsiya (takror) yoki so'z- so'zsimon (*kitob - mitob, non - pon, meva - cheva*) bilan ham ifodalanishi mumkin.

Hozirgi fanimizda son ma'nolarining o'xshashlik va farqli tomonlari, shuningdek, "*Kitobni akam uchun oldim*" va "*Kitobni akamga deb/ atab oldim*" kabi hosilalar orasidagi ma'no farqlari deyarli o'rganilmagan. Ya'ni ayni bir ma'noni turli xil vositalar bilan ifodalash yo'llari fanimizning o'rganilmagan muammolari sirasiga kiradi. Bularni tadqiq qilish bugungi kunning vazifasidir. Quyida shunday izlanishlardan namuna keltiramiz.

Aslida, gnosseologik (bilish) nuqtai nazardan materiyaning yashash shakli, hodisalarning izchil almashinish tarzi sifatida tadqiq qilinadigan zamon (payt) ma'nosining lisoniy tizimda voqelashish hodisasi tilning bu kategoriyani yuzaga chiqarish imkoniyatlari keng, rang-barang ekanligini dalillaydi. Bu tillararo xususiyatlarni, xususan, ingliz va o'zbek tillaridagi payt ma'nosini ifodalashning lisoniy vositalarini tekshirganda yanada yaqqol ko'rinadi. Zamon (vaqt, payt) tushunchasini payt grammatik ma'nosi, mazkur kategoriyani yuzaga chiqaruvchi usul va vositalarni esa payt ma'nosini ifodalovchi grammatik vositalar deb hisoblaymiz. Ingliz va o'zbek tillarida payt ma'nosini ifodalash lisoniy hodisasidagi tillararo uyg'un, o'xshash xususiyatlarni- umumiy (integral) belgilar, o'ziga xos xususiyatlarini esa farqlovchi (differensial, oppozision, zid) belgilar sifatida tekshiramiz. Payt ma'nosining qiyoslanayotgan tillarda yuzaga chiqish imkoniyatlarini quyidagi jadvalda umumlashtirishga harakat qilamiz:

Payt ma'nosining ingliz va o'zbek tillari tizimida voqelanishi

So'z turkumlari		<i>o'zbek tilida</i>	<i>ingliz tilida</i>	
turkumlari	fe'llar	Hoz.zamon: yozaman, yozmoqdaman. O'tgan zamon: yozdim, yozgan edim. Kelasi zamon: yozaman, yozmoqchiman.	Pres.: I write. I am writing. Past: I wrote. I had written. Future: I'll write.	
	Otlar	Kun, kecha, kunduz, yil, sutka, fasl, sahar, asr, namozshom, oqshom, erta, peshin, tong, nahor, indin, bugun.	Evening, day, night, cyenture, afternoon, morning, year, season, era, future, dawn, old (yosh);	
Mustaqil so'z	Sifat	Tonggi, kuzgi, qishki, bahorgi, tunggi, sirtqi, kunduzgi, kechki;	Fast, early, late, slow, short (day), long (night);	
	Son	Soat 7da uyg'ondi. Mustaqilligimizga 13yil to'ldi.	He came at 6 o'clock. Our republik was independent in 1991.	
	Ravish	Endi, hali, boya, doim, saharlab, ertalab, mudom, faqat;	Never, ever, usually, often, ago, yet, now, then, nowadays, lately, after, before, untill, forever, always, meanwile, recyently;	
	Olmosh	Shu-shu (Shu-shu Fotima kelmay qo'ydi); so'roq olmoshlari: qachon? qachondan buyon? qachongacha?	When?	
Yordamchi so'z turkumlari	ko'makchi	Sayin, sari (Ko'rgan sari ko'rging kelaveradi); Yarim ko'makchi so'z: avval, keyin, so'ng;-gacha (qo'shimchasimon ko'makchi); qadar (sof ko'makchi); bilan (Qo'ng'iroq chalinishi bilan darsga kirdim);	Conjunctions	...as soon as..., ...as long as ..., sincye, before, after, until, while;
	bog'lovchi	Dam...dam,...ba'zan...ba'zan, goh...goh;		

	yuklam a	Toki, -u, -yu (Qo'ng'iroq chalindi-yu, dars boshlandi).		
Affiksatsiy a		-da (o'rin payt): <i>peshinda</i> , -dan (chiqish): <i>peshindan</i> , -ga (jo'nalish): <i>peshinga qarab</i> ;	Predlogs	<i>At night, on November, in 1991, in the morning, during the lesson; By four o'clock, from 5 till 6;</i>

Ko'rinadiki, har bir tilning grammatik ma'no ifodalash usul va vositalari farq qilgani hamda har bir til o'ziga xos ichki grammatik qurilishga ega bo'lganidek, o'zbek va ingliz tillarida payt grammatik ma'nosini yuzaga chiqarish imkoniyatlari benihoya keng va o'ziga xos, farqlidir. Shunday qilib, zamon tushunchasini ifodalash imkoniyatlari tipologiyasi har bir tilning o'ziga xos sifatlarini namoyon etadi. Haqiqatan ham, til murakkab tizim bo'lib, inson tafakkuri shakllari, tushunchalarini izchil jilolantirishga qodir serqirra hodisadir.

So'z turkumlari. Qiyoslanayotgan tillar tizimida (morfologik sathda) zamon tushunchasini ifodalovchi umumiy imkoniyatlarni – ot, sifat, son, ravish va fe'l turkumlari misolida kuzatish mumkin. Demak, o'zbek tilidagi zamon otlari ingliz tilida vaqt munosabatini anglatuvchi otlarga, payt mazmunini bildiruvchi sifat va ravishlar ma'lum jihatdan qiyoslangan til turkumlari xususiyatlariga o'xshab ketadi. Biroq o'zbek morfologiyasida ravishlar mustaqil ma'noli o'zgarmas so'zlar bo'lsa, ingliz tilida sof ravishlardan tashqari yasama ravishlar hosil qilinishi mumkin (late- sifat, lately-ravish). Shuningdek, differensial belgilarni yana zamon kategoriyasini ifodalaydigan fe'llar orqali aniqlash muhimdir: payt ma'nosini o'zbek tilidagi fe'llar zamon qo'shimchalari orqali (sintetik usulda) ifodalasa, ingliz tili fe'llari analitik tillarga xos bo'lgan ichki fleksiya, suppletivizm orqali yuzaga chiqaradi.

O'zbek tili yordamchi so'zlar va kelishiklar vositasida ham payt ma'nosini lisoniy ifodalashda keng imkoniyatlarga ega. Ingliz tilida esa bu vazifani predloglar o'z zimmasiga olgan (ingliz tilida predloglar kelishiklar vazifasini bajarishini esga oling). Mazkur jihatlar ham tillararo farqli tomonlarni ko'rsatib turibdi. Har bir tildagi so'zlar o'zining semantik belgilariga ko'ra turli guruhlariga bo'linadi. So'zlarni turkumlarga ajratishda har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Ma'lumki, tilda rang-barang, son-sanoqsiz so'zlar bor. Bular so'zsiz ma'lum turlarga ajratiladi. Demak, narsa, predmet va hodisalarni turkumlarga ajratish uchun ma'lum o'lchovlar, shartlar, mezonlarga asoslanish zarur. Inson hamma vaqt ko'rgan eshitgan va his qilgan narsalarning hammasini turlarga, guruhlariga ajratishga odatlangan. Turlarga, guruhlariga ajratish doim qiyoslash orqali amalga oshirilgan.

Tilshunoslik tarixida strukturalizm oqimi paydo bo'lguncha, ya'ni o'tgan asrning o'ttizinchi yillarigacha so'zlarni turkumlarga ajratishda asosan 3 belgiga asoslanilgan.

1. So'zlarning lug'aviy ma'nosi.

2. Soʻzlarning morfologik belgilari.

3. Soʻzlarning gapdagi vazifasi.

Shunday qilib, olimlar soʻzlarni turkumlarga ajratishda leksik maʼnosini yetakchi qilsalar, ayrimlar morfologik belgisini, yaʼni boshqalar sintaktik vazifasini asos qilib oldilar. Keyingi ishlarda soʻzlarni turkumlarga ajratishda yuqoridagi belgilardan tashqari soʻz yasash belgisi ham qoʻshildi. Bundan tashqari, har bir tilning xususiyatlariga qarab soʻzlar turkumlanadi.

Ana shu turkumlarning biri yetakchi qilib olinadi, boshqalar uni toʻldiradi. Xitoy tilida soʻzlarni turkumlarga ajratishda ularning sintaktik belgisi, soʻz tartibi asosiy rol oʻynasa, oʻzbek tilida morfologik belgi yetakchidir.

Har bir tildagi soʻzlarning turkumlari va ularning miqdori bir xil emas, oʻzbek tilida 10 ta, rus tilida ham 10 ta, ingliz tilida ham 10 ta, uygʻur tilida 8 ta, fransuz tilida 9 ta soʻz turkumlari mavjud. Shunisi ham borki, har bir tilda maʼlum soʻzlar bor, ular birorta turkumga kiritilmaydi. Masalan: Rus tilida “*vozmojna*”, “*veroyatno*” kabi soʻzlarni birorta turkumga kiritib boʻlmaydi. Bular modal soʻzlardir. Keyingi yillarda modal va taqlid soʻzlar ham alohida soʻz turkumi deb qaralmoqda.

Tilshunoslikda soʻnggi yillarda soʻzlarni turkumlarga ajratishda ularning quyidagi muhim belgilari asos qilib olinmoqda: semantik belgi, morfologik belgi, sintaktik belgisi va soʻz yasash belgisi.

Soʻz turkumlarining semantik belgisi deganda, ularning konkret maʼnosi emas, umumlashgan maʼnosi koʻzda tutiladi. Masalan, *uy, qalam, olma, quyosh* kabi soʻzlarning aniq, konkret maʼnolari bor. Lekin ularning konkret maʼnosi emas, umumlashgan maʼno-predmetligi koʻzda tutiladi.

Jumladan, predmetning tushunchasini ifoda qiluvchi soʻzlar ot soʻz turkumiga kiritiladi. *Oʻqimoq, qochmoq, turmoq, yashamoq, qurmoq* kabi soʻzlarning konkret maʼnolari har xil, lekin ularning hammasiga xos boʻlgan maʼno ish-harakatdir.

Soʻz turkumlarining morfologik belgisi deganda, u yoki bu soʻzga xos boʻlgan morfologik-grammatik kategoriyalar, mazkur soʻzlarga xos forma yasovchilar, soʻz oʻzgartiruvchi affikslar tushuniladi.

Soʻz turkumlarining sintaktik belgisi deyilganda, soʻzlarning gapdagi oʻrni, gap boʻlaklari nuqtai nazaridan bajariladigan vazifasi koʻzda tutiladi. Soʻzlarning gapda boshqa soʻzlar bilan birika olish imkoniyati (distribusiyasi) ham sintaktik belgi hisoblanadi. Masalan, arab, ingliz, nemis, fransuz tillarida artikllap bilan birikkan soʻzlarni albatta ot deymiz, chunki artikllar faqat otlar bilan birika oladi. Oʻzbek tilida ham shunday kelishiklar ot yoki olmoshlarga qoʻshiladi.

Soʻz yasash belgisi deyilganda, u yoki bu soʻz turkumiga xos soʻz yasovchi qoʻshimchalar nazarda tutiladi. Har bir soʻz turkumining oʻziga xos yasovchi formasi bor. Masalan: *-li* sifat, *-lik* ot yasovchi sifatida qaraladi.

Soʻzlarni turkumlar boʻyicha tasniflash. Soʻz turkumlari nazariyasining ikkinchi prinsipi soʻzlarni turkumlarga ajratish prinsipidir. Soʻz turkumlari, dastlab, ikki katta guruhga boʻlinadi: **mustaqil va yordamchi soʻzlar**. Mustaqil tushunchalar biror predmet, belgi, harakat nomini anglatadi. Yordamchi soʻzlar tushuncha ifoda etganda faqat grammatik maʼnoni anglatadi. Yordamchilarga koʻmakchi, predlog, yuklama, bogʻlovchi va artikllar kiradi.

. Soʻzlar **maʼnoviy belgisiga** koʻra quyidagicha turkumlanadi:

1. Mustaqil maʼnoli soʻzlar:

- a) mavjudotlarni atovchi soʻzlar - otlar;
- b) belgi - xususiyatni atovchi soʻzlar – sifatlar;
- d) harakat - holat ifodalovchi soʻzlar – feʼllar;
- e) miqdorni ifodalovchi soʻzlar – sonlar;
- f) oʻrin - payt, tarz - tusni ifodalovchi soʻzlar- ravishlar;
- g) taqlidni ifodalovchi soʻzlar-taqlidiy soʻzlar.

2. Boʻsh-ishora maʼnoli soʻzlar-olmoshlar.

3. Yordamchi maʼnoli soʻzlar: koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, koʻmakchi feʼllar.

Soʻzlarning mustaqil va yordamchi tiplarga ajralishi ularning mustaqil holda maʼno ifodalay olish qobiliyatiga koʻra belgilanadi.

Oʻzbek tilshunosligida olmoshlarning doirasi va vazifasi zoʻrma-zoʻrakilik bilan cheklantirilib, "ot, sifat, son oʻrnida qoʻllanuvchi soʻzlar" sifatida tor doirada tushinilgan edi. Bu oʻrinda olmoshning nafaqat ot, sifat, son oʻrnida, balki feʼl, ravish, taqlidiy soʻz, undov gap, hattoki matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan.

DTSga asoslangan ona tili oʻquv dasturi va darsliklarida ham oʻzbek tili qurilishi talqinida qator yangiliklar koʻzga tashlanadi:

1. Olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki feʼl, ravish, taqlidiy soʻz, undov gap va, hatto, matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olingan holda ularni oʻrganish feʼl, ravish, taqlidiy soʻzlardan keyinga koʻchirilgan va ular ishora soʻzlar sifatida izohlanilgan.

2. Dasturda bir soʻz turkumidan ikkinchi bir soʻz turkumiga oʻtish talqini rus tili grammatikasidan koʻchirilgan hodisa sifatida baholanadi (*"Yaxshi bola yaxshi oʻqiydi"*; *"Mardona yigit mardona gapiradi"* kabi gaplarda yaxshi va mardona soʻzlari birinchi birikmada sifat deb, ikkinchi birikmada esa ravish deb bahslanadi). Darslikda ravish soʻz turkumining xususiyatlari oʻrganilar ekan, uning morfologik kategoriyalarni, soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalarni qabul qila olmasligi asosiy belgisi qilib koʻrsatilgan. Ravishlarning morfologik jihatdan oʻzgarmas ekanligi qator misollarda (*tasodifan, birga, qasddan, oʻzbekona, haqiqatan*) aniqlab berilgan. Ravishlarning sintaktik vazifasi ularning aniqlovchi boʻlib kela olishi bilan kengaytirilgan.

3. Egalik, kelishik qo'shimchalari faqat otlar va otlarni almashtirishga xizmat qiladigan olmoshlar bilan birikadi, degan g'ayriilmiy talqin dasturdan o'rin olmagan. Grammatikadagi otlashuv hodisasi "ma'no torayishi" mavzusi doirasida izohlangan.

4. So'z turkumlarini o'rganishda ularning asosiy ma'noviy, morfologik, sintaktik xususiyatlari hisobga olingan holda, amaldagi dastur va darsliklarimizdan farqli o'laroq quyidagicha joylashtirilgan:

- | | |
|----------------|--|
| 1. Fe'l. | 7. Olmosh |
| 2. Ot. | 8. Ko'makchi |
| 3. Sifat. | 9. Bog'lovchi |
| 4. Son. | 10. Yuklama |
| 5. Ravish. | 11. So'z- gaplar (undov, modal, tasdiq |
| 6. Taqlid so'z | va inkor, taklif so'z-gaplar) |

So'z turkumlarning miqdori, ularning belgilari tarixiy o'zgaruvchan bo'lib, turli sistemalardagi tillardagina emas, qarindosh tillarda ham turlichadir. Shunga qaramay bir tildagi so'z turkumlarning miqdori bo'yicha ham olimlar orasida turli qarashlar, tasniflar mavjud. Masalan, hozirgi rus tilidagi so'z turkumlarining miqdori haqida shunday tasnif mavjud. Ko'pchilik olimlar so'z turkumini o'nta deb hisoblaydilar. Bular: ot (imya sumyestvitelnoye), fe'l (glagoly), sifat (imya prilagatelnoye), ravish (narechiye), son (imya chislitelnoye), bog'lovchi (soyuzy), predloglar, undov (mejdometnyye slova), yuklama (chastisy).

Hozirgi ingliz tilidagi so'z turkumlarining soni ham turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi: ba'zilar o'nta deb ko'rsatsa (ot (noun), sifat (adjectives), son (numeratives), olmosh (pronouns), fe'l (verbs), ravish (adverbs), predlog, artikl va yuklama (conjunctions), ba'zilar o'n to'rtta deyilar: yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda modal so'zlar, holat kategoriyasi, undovlar, javob so'zlar kiritiladi.

Hind-yevropa tillariga kiruvchi tojik tilida ham so'z turkumlari quyidagicha tasniflanadi: ot: *daftar, duxtar, xona*; sifat: *nav, kalon, kalontar, surx, surxtar*; son: *yak, dah, bist*; olmoshlar: *man mo, tu, shumo, o', onho, in*; fe'l: *kardan, raftan, istodan*; ravishlar: *muvaqqatan, holo, tozon-tozon*; predloglar: *ba, dar, az, baroi*; bog'lovchilar: *va, ham, chunki, zero, bo in ki*; yuklamalar: *- mi, - a, - ku, ne*; undov so'zlar: *oh! ofarin! voy! e voy!*

Xulosa qilib aytish mumkinki, keyingi yillardagi ona tili tizimidagi qator yangiliklar, tajribalar, ilmiy xulosalar umumiy o'rta ta'lim dastur va darsliklarida ham o'z ifodasini topgan.

1. Grammatika soʻzining maʼnosi nimalarni bildiradi?
2. Grammatikaning asosiy boʻlimlari qaysilar va ular nimalarni oʻrganadi?
3. Grammatik maʼno va grammatik kategoriyalar tushunchalarini izohlang.
4. Soʻzning morfem tarkibi uning tovush tarkibidan nimasi bilan farq qiladi?
5. Morfema nima, uning leksemadan farqi nimada?
6. Morf va ularning turlari haqida gapirib bering.
7. Analitik va sintetik vositalarga nimalar kiradi.
8. Soʻzlarni turkumlarga ajratish prinsiplari haqida gapirib bering.

Tayanch ibora va tushunchalar (glossariy)

Allomorf – allo – soʻz oldi qoʻshimchasi – prefiks morfema – “ema”ning nutqdagi shakllanishi – yaʼni morfemaga “yema”, fonema, leksema, semema, semantema soʻzlarning qurilish birligi sifatida.

“Ema” – ang. “yeme” – postfiks morfema (sufiks) – morfem, leksema soʻzlarida keladi, birligi maʼnolarini anglatadi, allo – soʻzga qarama-qarshi.

Allomorf – variant, alporiant, turli koʻrinish, morfemaning aniq manifestatsiyasi. Bir xil maʼno anglatadigan, bir morfemaga kiradigan, lekin turli formaga ega. (drug – drujba - družba).

Morfologiya – tildagi grammatik kategoriya qarama-qarshiliklarini hisobga olgan holda: agglutinativ morfologiya, analitik morfologiya, flektiv morfologiyaga boʻlinadi. Morfologiya – soʻz oʻzgarishi, soʻz yasaliishi, soʻz birikmasi yasaliishi boʻyicha:

Interfiks – murakkab soʻzlarni bogʻlash uchun ishlatiladi: zubr-o-bizon, lob-o-tryas, obst-ye-boʻk, kash-ye-var, vin-o-cherniy, krov-o-piysta.

Konfiks – ikki affiks qoʻshilmasi (kombinatsiyasi). Prefiks va postfiks (nemis tilida bon-loben-xvalit-ge-lob-t-xvalyonnoʻy) prefiks - ge, postfiks – t.

Transfiks – (drevneyevropeyskiy vavilon akkad) oʻzakni yorib kirish (undosh oʻrtasiga qoʻshilish).

Sintaksis (yunoncha syntaxis – «tuzish», «qurish» demakdir) atamasini ikki maʼnoda tushunish mumkin: tilning sintaktik qurilishi maʼnosida va tilning sintaktik qurilishini oʻrganadigan grammatikaning bir qismi maʼnosida. Sintaksis soʻz birikmalari, gap va gap boʻlaklarini oʻrganadi. Gap fikr ifoda etadi. Soʻz birikmasi esa fikr emas, balki soʻz kabi tushuncha ifodalaydi. Maʼlumki, soʻz birikmasi ifodalagan maʼno soʻz ifodalagan maʼnodan koʻra xususiyoq (aniqroq) boʻladi. Demak, sintaksisning eng asosiy birligi gapdir.

Gapda soʻzlar maʼlum qoidalar asosida bir-biri bilan bogʻlanadi, yaʼni semantik-sintaktik aloqaga kirishadi. Har qanday sintaktik aloqa sintaktik munosabatlar majmuidir. «Munosabat» arabcha soʻz boʻlib, bir qancha maʼnolarni ifodalaydi: 1) kishilar oʻrtasidagi aloqa, muomala; 2) narsa, hodisalar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻlanish, aloqa; 3) kishining

voqelikdagi narsalarga, hodisalarga qarashi, yondashishi kabi. «Munosabat» atama sifatida filosofiyada muayyan sistemadagi elementlarning joylanish xarakteri va ularning o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi falsafiy kategoriya bo‘lsa, mantiq fanining atamasi sifatida hodisalarga xos serqirralikka turlicha yondashish nuqtayi nazari tushuniladi.

Tilshunoslikda «sintaktik munosabat» atamasi gap tarkibida so‘zlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish, aloqa demakdir. Turli tillarda mavjud bo‘lgan sintaktik munosabatlar dastlab ikki turga bo‘linadi: **predikativ va nopredikativ** bog‘lanish.

O‘zbek tilida **predikativ bog‘lanish** deganda gap tuzilishining asosi (gapning markazi) kesim bilan bog‘liq bo‘lgan sintaktik munosabat nazarda tutiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, o‘zbek tilidagi sodda gaplarni qiyoslasak, har bir gapda – qaysi so‘z turkumi va uning qanday shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar – shakllangan kesimning takrorlanganligini kuzatamiz. Gaplarda ega ishtirok etmasligi ham mumkin. Biroq, kesim gapning asosini tashkil etadi.

Kesim gapning markazi bo‘lib, u tasdiq / inkor, mayl / modallik, zamon, shaxs / son ma’nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo‘laklarini o‘z atrofida birlashtiradi. Chunonchi, *Mardni maydonda sinaymiz* gapida kesim (*sinaymiz*) tasdiq ma’nosida, xabar maylida, kelasi zamon, I shaxs ko‘plik shaklida ifodalangan bo‘lib, gapning ikkinchi darajali bo‘laklari – vositasiz to‘ldiruvchi (*mardni*) hamda o‘rin holi (*maydonda*) bilan o‘zaro sintaktik munosabatga kirishgan. Nopredikativ bog‘lanish bunday xususiyatga ega emas. Bunda so‘zlar o‘zaro turli usulda va turli vositalar bilan sintaktik munosabatga kirishadi.

Teng bog‘lanish va ergash bog‘lanish (tenglashish va ergashish) nopredikativ bog‘lanishning turlari hisoblanadi. Grammatik jihatdan bir-biriga teng bo‘lgan so‘zlarning o‘zaro grammatik munosabatga kirishishidan **teng bog‘lanish** yuzaga keladi. Tenglashish munosabati, odatda, teng bog‘lovchilar va sanash ohangi orqali ifodalanadi. Chunonchi: *o‘quvchilar va o‘qituvchilar; kitoblar, daftarlar; otes i deti; xorosho, no dorogo* (ruscha); *The Lesson finished and the teacher went off* (inglizcha); *Diye Mutter und diye Tochter* (nyemischa).

Ergash bog‘lanishda grammatik jihatdan tyeng bo‘lmagan so‘zlar o‘zaro grammatik munosabatga kirishadi va tobye-hokim munosabatiga ega bo‘lgan so‘z birikmalarini yuzaga kyeltiradi. Chunonchi:

umidli dunyo, qo‘shiq aytmoq, shoshib gapirish;

dlinnaya doroga, krepkiy chay, imeyet pravo (rus tilida);

slart profit; Long island is a long island (ingliz tilida).

Tobyelanish munosabati, asosan, aloqa-munosabat affikslari, ko‘makchilar, flyeksiya, so‘z tartibi, ohang kabi vositalar bilan ifodalanadi.

Turkiy tillarda sintaktik munosabatning tyenglashish va ergashish tiplaridan tashqari alohida ko‘rinishdagi sintaktik munosabat ham mavjuddir. Bu qaratqich va qaralmish munosabatidir. Agar tyenglashishda grammatik tomondan tyeng bo‘lgan so‘zlar sintaktik

munosabatga kirishib, gap bo‘laklarini uyushtirib kyelsa, ergashishda esa biri hokim, biri tobye vaziyatdagi bo‘laklar sintaktik munosabatga kirishib, so‘z birikmasini hosil qiladi. Qaratqich va qaralmish munosabatidagi so‘zlar ayni bir paytda bir-biriga tobye, bir-biriga hokim vaziyatda bo‘ladi, ya’ni qaratqich kyelishigini olgan so‘z o‘ziga syemantik jihatdan mos III shaxs egalik affiksini olgan so‘zni talab etadi. Ayni paytda III shaxs egalik affiksini olgan so‘z o‘zi aloqador bo‘lgan so‘zning qaratqich kyelishigi shaklida bo‘lishini talab etadi. Nutqiy bosqichda nutq sharoitiga ko‘ra ba‘zan qaratqich, ba‘zan qaralmish byelgisiz holatda qo‘llanishi ham mumkin. Chunonchi:

Farruxning kitobi, maktab hovlisi, qizlar bazmi, bizning ko‘cha kabi.

Yuqorida sanab o‘tilgan sintaktik munosabat tiplari turli ko‘rinishdagi quyidagi grammatik vositalar orqali ifodalanadi:

Aloqa - munosabat affikslari. Bunday qo‘shimchalar sintaktik shakllar dyeb ham yuritiladi. Ular so‘zlarning lug‘aviy ma’nosiga ta’sir ko‘rsatmasdan, ularni sintaktik aloqaga kiritish uchungina xizmat qiladi. Turkiy tillarda sintaktik munosabatlarni ifodalashda turlovchi va tuslovchi qo‘shimchalar kyeng qo‘llaniladi: Masalan: *kinoni ko‘rmoq, xonaga kirish, uning qalbi, sizning tuyg‘ularingiz* (o‘zbyek tilida); *Ornina jat* (o‘rningga yot), *Byez sag‘at 10 da uyeqtaurg‘a jatteq* (Biz soat 10da uxlashga yotdik) (qozoq tilida).

Flyeksiya. Bu hodisa flyektiv tillarga hind-yyevropa (rus, nyemis, latin, hindu), som (arab, ivrit) tillariga xosdir. Bu tillarda har bir mustaqil so‘zning dastlabki ko‘rinishi ham nyegiz va qo‘shimchalarga bo‘linadi, ammo o‘zak-nyegizni mustaqil qo‘llab bo‘lmaydi. Chunonchi: *starshiy brat, siniye bryuki, moyego otsa, xoroshix družbyax* kabi. (Rus tilidan olingan ushbu so‘z birikmalaridagi sintaktik munosabat ifodalovchi vositalar qo‘shilgan so‘zlarning o‘zak-nyegizi *ctarsh, sin, mo, xorosh* bo‘lib, ular mustaqil holda qo‘llanilmaydi.)

Yordamchi so‘zlar (bog‘lovchilar, ko‘makchilar, bog‘lama) so‘zlarni sintaktik munosabatga kiritishda alohida ahamiyatga egadir.

O‘zbyek tilida: *Rasmni mo‘yqalam bilan chizdi. Myen o‘qituvchi bo‘laman;*

Rus tilida: *yexat k družbyam, pisat na bumage.*

Ingliz, fransuz, arab tillarida sintaktik vosita sifatida **artikl** ham qo‘llaniladi. Roman-german tillarida artikl faqat ot so‘z turkumiga xos so‘zlardan oldin ishlatiladi. Arab tilida esa artikl ot, sifat, son bilan birga qo‘llanilavyeradi. Chunonchi: *a table (stol); an apple (olma); Al kita: bu; ru – N* (arabcha) kabi.

So‘z tartibi. So‘zlarning sintaktik funksiyasi maxsus morfologik ko‘rsatkichlar bilan ifodalanmaganda so‘z tartibi sintaktik munosabatlarni ko‘rsatuvchi muhim vosita bo‘lib qoladi. Bu vaqtda so‘zlarning gapdagi vazifasi so‘z tartibiga bog‘liq bo‘ladi. So‘z tartibi o‘zgarishi bilan sintaktik holat ham, gap syemantikasi ham o‘zgaradi. Masalan: *shirin qovun* (aniqlovchi-aniqlanmish), *Qovun shirin* (ega-kyesim), *Gullagan daraxt hammamizni hayratga soladi. Daraxt gullagan, hammamizni hayratga soladi.*

Ba'zan so'z tartibining o'zgarishi sintaktik holatga daxl etmasligi ham mumkin, ya'ni gap bo'laklarining o'rni o'zgarsa-da, ularning sintaktik vazifasi ilgarigicha qolavyeradi. Masalan: *Yana kyeldi qalbimning rozi, Yana kyeldi myen kutgan bahor.*

Qalbimning rozi yana kyeldi. Myen kutgan bahor yana kyeldi.

Flyektiv tillarda so'z tartibi sintaktik vosita sifatida kam qo'llaniladi.

Intonasiya ham sintaktik munosabat ifodalaydigan vositalardan biri hisoblanadi. Oldingi mavzularimizdan sizga ma'lumki, mantiq urg'usi, pauza, ritm, myelodika kabilar intonasiyaning tarkibiy qismlaridir. Intonasiya – barcha tillarga xos bo'lgan sintaktik munosabat ifodalovchi vosita.

U yoki bu tilda sintaktik vositalardan qaysi turining ishlatilishi har bir tilning grammatik qurilishiga bog'liqdir.

Ma'lumki, har bir millat, xilq tili o'zining tuzilishi bilan, ayrim unsurlarning o'zaro munosabati bilan butun sistyema (tizim)ni tashkil etadi. Tilning har bir sathi «lison ~ nutq» aspyektida o'rganilishini yodga olaylik. Til (lison) birliklarini fonyema, morfyema, lyeksyema hamda lisoniy sintaktik qoliplar tashkil etsa, byevosita kuzatishda byerilgan nutqiy birliklarni tovush (harf), affiks, so'z, so'z birikmasi, gap, matn kabilar ifodalaydi. Nutqiy sintaksis birliklari bo'lmish so'z birikmasi, gap, matn moddiylikka ega bo'lib, ularni o'qish, yozish, aytish, eshitish mumkin. Lisoniy sintaksis birliklari esa so'z birikmasi va gap hosil qilish qoliplaridir, ya'ni lisoniy sintaktik qoliplar (LSQ) dir. Dyemak, nutqda voqyelanish imkoniyatiga ega bo'lgan so'z birikmalari va gaplarning qurilish qoliplari lisoniy sintaksisning tadqiq manbaidir.

Kishilar ongida, chunonchi, lisoniy sathda so'zlash, ya'ni xilma-xil maqsadlarga xizmat qiluvchi nutqni shakllantirish uchun leksemalarni so'z birikmalari sifatida bog'lash, leksema yoki so'z birikmalariga gap shaklini beruvchi qoliplar mavjud. Bular LSQ lar, modellar, konstruksiyalar, qurilmalar tarzida nomlansa-da, aslida bir tushunchani ifodalaydi. LSQ larni biz jamiyatda tayyor holda qabul qilib olamiz va uni o'z ixtiyorimizcha o'zgartira olmaymiz. LSQ lar va ularning nutqiy voqelanish (so'z birikmalari, gap)lari o'rtasida umumiylik ~ xususiylik, mohiyat ~ hodisa, imkoniyat ~ voqelik, sabab ~ oqibat dialektikasi mavjud bo'lib, lisoniy sintaktik qoliplar bizning ongimizdagi yuksak darajali umumiyliklardir. Ular ongimizda ichki imkoniyat, zarurat, mohiyat sifatida mavjuddir. Shu o'rinda LSQ va uning hosilalari bo'lgan so'z birikmasi yoki gapga xos xususiyatlarni taqqoslab ko'raylik.

LSQ larga xos byelgilar		LSQ larning hosilalariga xos byelgilar	nutqiy
byevosita byerilmagan	kuzatishda	Byevosita kuzatishda byerilgan	
ijtimoiy		individual (alohida)	

takrorlanuvchan	Takrorlanmas
chyegaralangan	Chyegaranmagan
majburiy	Ixtiyoriy

LSQ lar ma'lum shaxslar tomonidan yasalgan emas, balki muayyan tilda so'zlashuvchi jamiyat a'zolari tomonidan uzoq asrlar davomida kishilar ongida shakllangan. LSQ lar barcha jamiyat a'zolari uchun tyeng baravar xizmat qiladi. Bitta lisoniy sintaktik qolip yuzlab, minglab so'z birikmalarida yoki gaplarda takrorlanavyeradi. Masalan, [ot^{tushum kyelishigi} + fye'l] so'z birikmasi qolipidan *polni bo'yamoq, farzandni syevmoq, onani ardoqlamoq, kitobni o'qimoq* kabi son-sanoqsiz nutqiy sintaktik birliklarni hosil qilish mumkin. Dyemak, LSQ lar takrorlanuvchandir. Yuqorida eslatib o'tganimizdyek, byevosita kuzatishda byerilgan birorta hodisada takroriylik yo'q. Hayotdan ko'z yumgan birorta odamni qayta yaratib bo'lmaganidyeK, qolipdan chiqqan so'z birikmasi yoki gapni ham qayta aytish, yozish mumkin emas. Bu nutqiy hosilalarga xos byetakrorlikdir.

LSQ lar chyegaralangan. Masalan, o'zbyek tilshunosligida so'z birikmalarining 18 ta ustuvor qolipi aniqlangan. O'zbyek tilidagi minglab, yuz minglab (balki undan ham ko'proq) so'z birikmalari turli nutq sharoitlariga mos ravishda turfa ko'rinishlarda aks etsa-da, LSQ ning mohiyat chyegasidan chiqib kyeta olmaydi. Dyemak, LSQ lardan chiqadigan nutqiy hosilalar miqdori chyegaranmagan.

Rus tilshunosligida sodda gaplarning eng kichik qurilish qolipi [S - P], ya'ni [ega - kyesim] ko'rinishiga egadir. Masalan: *Trava zeleneyet. Ptisya uletayut* kabi. O'zbyek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi [Wpm] ko'rinishiga egadir.

So'z birikmalariga xos bo'lgan umumiy qolip [TB+HB], ya'ni [tobye bo'lak+hokim bo'lak] dir. Har qanday so'z birikmasi va gap, kontyekst va matn kabi sintaktik butunliklarning birlamchi moddiy asosi so'zdir. Fikr almashish jarayoni aslida so'zlardan, ularning syemantik-sintaktik bog'lanishidan yuz byeradi. So'zga substansial yondashuv natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, so'z ham til birligi, ham nutq birligidir. Tilshunos olim Ravshanxo'ja Rasulov ta'kidlaganidyeK, ham til, ham nutq birligi bo'la olish imkoniyati faqat so'zga xosdir. So'zga substansial yondashuv lyeksikologik – syemasiologik, morfologik va sintaktik tomonlar tyekshiruvi natijalarini umumlashtiradi, «til ~ nutq» aspyektida ularning o'zaro bog'liqligini o'rganadi.

Gap tarkibidagi so'zlarning muayyan qurshovda, muayyan ishtirokchilari bilan birika olish imkoniyatlari tasodifiy va butunlay erkin emas. Ular muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadi. Fanning eng so'nggi yutuqlariga tayanib ayta olamizki, hozirda ma'lum til birligining boshqasi bilan birikuvining asosiy qonuniyatlari **valyentlik** tushunchasida birlashadi. Ma'lum bir so'zning boshqa so'zlar bilan birika olish imkoniyati, ma'noviy

sintagmani tuzuvi, o'z ma'nosini to'la ochish uchun muayyan so'z va so'z shakllarni talab etishi **valyentlik** nazariyasining asosini tashkil etadi.

Valyentlik atamasi, eng avvalo, kimyo faniga tyegishli bo'lib, biror kimyoviy elyemyent atomining boshqa elyemyent atomlaridan muayyan sondagisini biriktirib olish xossasidir. Valyentlik so'zi «kuch» dyegan ma'noni bildiradi. Fizika fanidan ma'lumki, kuch-o'zaro ta'sir va bog'lanish dyemakdir.

Jahon tilshunosligida «valyentlik» atamasi o'tgan asrning 20-30-yillarida paydo bo'ldi va juda tyez ommalashdi. XX asrning 40-yillarida sovyet tilshunosligiga valyentlik tushunchasi S.D.Kotsnyelson olib kirdi (Qarang: S.D.Kosnelson. O grammaticheskoy kategorii. Vestnik. LGU. 1948. №2. str.132). Uzoq yillar davomida olimlar o'rtasida valyentlik ma'noviy tabiatga egami yoki sintaktik xaraktyerga egami dyegan bahs davom etdi. Bu jiddiy munozaraning yyechimini o'zbyek tilshunos olimi R.Rasulov byera oldi (Qarang: Rasulov R. O'zbyek tilidagi holat fye'llari va ularning obligator valyentliklari. T., «Fan», 1989.) va valyentlik hodisasini imkoniyatli voqyelik sifatida baholadi. Shu bilan birga, o'zbyek tilshunosligida valyentlik ikki tomonlama: ham syemantik, ham sintaktik hodisa ekanligini isbotladi.

Tilshunoslikda valyentlik tushunchasi ostida uch jihatni farqlash lozim: so'z valyentligi; sintaktik valyentlik; grammatik shakl valyentligi.

So'z valyentligi so'zning syemantik strukturasida mujassamlangan yashirin imkoniyat bo'lib, u ma'lum bir so'zning muayyan bir ma'noviy turkum so'zlari bilan mye'yoriy ravishda bog'lana olishi, birika olish qobiliyatiga ega ekanligini ifodalaydi. So'zlarning lisoniy valyentligidagi bu imkoniyat **so'z valyentligi** yoki **syemantik (ma'noviy) valyentlik** dyeb yuritiladi. Misol tariqasida [yozmoq] so'zining ma'noviy valyentligini ko'rib o'tamiz.

So'z valyentligi substansial hodisa sifatida so'zning doimiy ichki xususiyati bo'lib, bu xususiyat nutq faoliyatida so'zlarning o'zaro bog'lanishida paydo bo'lmaydi. U nutqqacha, ya'ni tilda – til «birligi» sifatida so'z ma'no tarkibida mavjud bo'ladi, «yashaydi», yuzaga chiqishga tayyor turgan imkoniyat tarzida saqlanadi.

Biriktiruvchi so'z ma'lum bir ma'noviy turkum (guruh) so'zlar bilan birikishi uchun bu turkum so'zlarning ma'lum bir sintaktik shaklda bo'linishini talab etadi. So'z lisoniy valyentligidagi bu tomon **sintaktik valyentlik** dyeyiladi. Ma'noviy valyentlik va sintaktik valyentlik so'z lisoniy valyentligining ajralmas ikki tomonidir. Sintaktik valyentlik bilan ma'noviy valyentlik ba'zi holatlarda o'zaro nisbiy mutanosib bog'liqlikda bo'ladi, ya'ni biri o'zgarsa, ikkinchi ham o'zgaradi.

Masalan:

foil manba harakat

Salim kitobga yozdi.

sababchi manba harakat

Salim kitob yozdirdi.

sababchi manba harakat

Salim uchun kitob yozildi.

Ba'zan valyentlikning bir ko'rinishi o'zgarsa-da, ikkinchisi o'zgarmasligi ham mumkin. (Bu xususda tilshunoslikning «Sintaksis» sathida to'laroq ma'lumot byeriladi.)

Affiksial morfyemalarning birikuvchanlik qobiliyati **grammatik shakl valyentligi** dyeb yuritiladi. Grammatik shakl valyentligi mohiyatan ma'noviy valyentlikka o'xshashdir, biroq umumiylik darajasiga ko'ra syemantik valyentlikdan ancha yuqori bo'lib, kategoryal umumlashmalar darajasidadir. Masalan, qaratqich kyelishigining morfyemasi o'zidan kyeyin kyelgan so'z tarkibidagi egalik qo'shimchasi bilan birika olish valyentligiga ega, bu so'z birikmasi tarkibida muvofiqlashadi. Ular bir-birini tanlagan, birikish uchun bir-birini tanlash esa v a l y e n t l i k d i r.

Xulosa qilib aytganda, valentlik nutqda so'zlar orasidagi sintaktik aloqani, so'zlarning, grammatik shakllarning o'zaro birikuvini ta'minlovchi potensiyadir. Sintaktik aloqadan valentlik kelib chiqmaydi, balki valentlikdan sintaktik aloqa kelib chiqadi. So'z valentligi va sintaktik aloqa dialektik bog'liq, o'zaro bir butun, ajralmas, ayni vaqtda, har biri nisbiy mustaqil bo'lgan hodisalardir.

So'z birikmasi. Ma'lumki, narsa-buyum, belgi, ish-harakatni umumiy ifodalash, nomlash vazifasini so'z bajaradi. So'z birikmasi ham mohiyatan atash, nomlash (nominatsiya) sath birligidir. Boshqacha qilib aytganda, so'z birikmasi lisoniy qiymat jihatidan so'zga (leksemaga) barobardir. Masalan, *direktor* so'zi o'rnida *korxonaning boshlig'i (tashkilotning rahbari)* kabi so'z birikmalaridan birini bemalol ishlatish mumkin. O'zbek tilida so'z birikmalarining so'zlarga atash vazifasi jihatidan teng qiymatlilikiga yuzlab misollarni keltira olamiz. Chunonchi, *tartibli – intizomda birinchi, shabada – yoqimli shamol, amaki – otaning akasi (yoki ukasi), tog'a – onaning akasi (yoki ukasi), yanga – akamning xotini* va h.

Leksema bilan so'z birikmasi orasidagi asosiy farq atash (nomlash) vazifasida emas, balki shu vazifani qaysi yo'l, qaysi usul va qaysi shakl bilan ifoda etishidadir. Leksik sathda bu vazifani so'z (leksema) to'g'ridan to'g'ri bajaradi, so'z birikmasi esa atash vazifasini so'zlarni o'zaro erkin sintaktik aloqaga kiritish yo'li bilan amalga oshiradi. Erkin sintaktik aloqaga kiritish deganda so'zlarning vaqtinchalik, faqatgina nutq talabi va ehtiyojiga ko'ra tobe-hokim munosabatlariga kiritish tushuniladi. So'z birikmasining tarkibi tobe bo'lak va hokim bo'lakdan iborat bo'lib, **so'z birikmasi hokim bo'lakning ehtiyoji va tobe bo'lakning imkoniyati orasidagi uyg'unlikning voqelanish usulidir.**

So'z birikmasi bitta mustaqil so'z atrofida birlashadi, ya'ni so'zlardan biri hokim, qolganlari unga tobe bo'ladi. So'z birikmalari hokim bo'lakning qaysi so'z turkumiga mansubligiga qarab, otli birikma va fe'lli birikmaga bo'linadi.

Hokim bo'lak ot, sifat, son, olmosh, taqlid, undov yoki harakat nomi bilan ifodalansa, **otli birikma** hisoblanadi. Otli birikmalarda tobe bo'lak ot, sifat, sifatdosh, son, olmosh,

ravish, taqlid, undovlar bilan ifodalanishi hamda hokim bo‘lak bilan birikib turli ma’noviy munosabatlarni bildirishi mumkin.

Chunonchi, [ot + ot] birikuvidan tuzilgan so‘z birikmalari muayyan predmetning qanday materialdan yasalganligi (*oltin soat, taxta ko‘prik*); bir predmetning boshqasiga qarashlilik (*bolalar bog‘chasi, Salimanning kitobi*); butun-bo‘lak munosabati (*stolning oyog‘i, mashinaning motori*); sabab-natija munosabati (*e‘tiborsizlik natijasi, sabrsizlikning oqibati*); tur-jins munosabati (*tuyaning erkagi, tuyaqushning modasi*); shaxs yoki narsa-buyumning sifati, xususiyati (*Karimanning pokligi, uyning tozaligi*) kabi o‘ndan ortiq ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday birikuvli so‘z birikmalari rus tilida [imenitel’nyy padej + roditel’nyy padej] qolipida tuzilgan birikmalarga to‘g‘ri keladi: *kniga brata, karandau Maxmuda* kabi. Demak, rus tilida otga ot ergashganda tobe ot ikkinchi o‘rinda roditel’nyy padej shaklida keladi.

[sifat + ot] birikuvli so‘z birikmalari quyidagi ma’nolarni ifodalaydi: *qizil baxmal, qora chopon* (muayyan predmetning rang-tusi); *shirin qovun, achchiq danak* (predmetning maza-ta’mi); *puldor odam, gulli mato* (xoslik, egalik belgisi); *injiq bola, mard o‘g‘lon* (xarakter-xususiyat); *yaxna ovqat, nimjon chaqaloq* (predmetning holati) va h.

[sifat + ot] – *o‘qigan qiz, kelgusi avlod*;

[son + ot] – *birinchi yil, uchinchi farzand*;

[olmosh + ot] – *anovi hovuz, hammaning fikri*;

[ravish + ot] – *mardona harakat, yashirinchu uchrashuv*;

[taqlid + ot] – *shivir-shivir gap, g‘uvur-g‘uvurning ta’siri*;

[undov + ot] – *oh-vohning oqibati, salomning javobi* kabi birikuvlarning har biri ham alohida-alohida ma’noviy ma’nolarni bildiradi. Boshqa tillardan ham shunga o‘xshash misollarni keltirish mumkin.

Bosh so‘z fye’l va uning ravishdosh sifatdosh shakllari bilan ifodalansa, **fye’li birikma** hosil bo‘ladi. Fye’li birikmalarda tobye bo‘lak turli so‘z turkumlari bilan ifodalanishi va syemantik jihatdan o‘ziga xos ma’noviy munosabatlarni yuzaga chiqarishi mumkin. Chunonchi, [ot + ravishdosh] birikuvidagi so‘z birikmalari tobye bo‘lak syemantikasi bilan bog‘liq ravishda harakat yoki holatning o‘rmini yoki paytini ifodalaydi: *maktabdan kyelib, uydan uzoqlashib, yozga yyetib, qishga qoldirib* kabi. [ravishdosh + sifatdosh] – *shoshib gapirgan, tinmay ishlayotgan, o‘qigani kyelgan* kabi nutqiy hosilalarda harakatning holati, maqsadi kabi ma’nolar syeziladi. Rus tilida fye’li birikmalarda hokim so‘z oldin, tobye so‘z kyeyin qo‘llanadi: *chitat lyoja, uslyshav o priyezda, idti rabotat* kabi.

Nutqiy bosqichda so‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlarning o‘zaro birikish usullari sifatida **boshqaruv, moslashuv, bitishuv** ajratiladi. Bular, asosan, nutqimizda ishlatiladigan son-sanoqsiz so‘z birikmalarining zohiriy jihatlarini kuzatish asosida yuzaga kyelgan dyesak, xato qilmaymiz. Boshqaruv, moslashuv, bitishuv usullari bilan tanishamiz.

Boshqaruv. Bunda sintaktik aloqaga kirishayotgan muayyan soʻz boshqa shunday bir soʻzning maʼlum shaklga kirishini talab etadi. Boshqaruvda hokim boʻlakning talabiga koʻra tobye boʻlak tushum, joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kyelishigi shakllarini qabul qiladi yoki soʻz koʻmakchilar bilan birga kyeladi. Baʼzan tobye boʻlakning tarkibida ham grammatik shakl (kyelishik qoʻshimchasi), ham koʻmakchi qoʻllaniladi. Shu xususiyatiga qarab, boshqaruv hodisasini uch turga ajratish mumkin:

kyelishikli boshqaruv: *onani ardoqlash, shahardan kyetish;*

koʻmakchili boshqaruv: *kun boʻyi ishlash, adolat uchun kurash;*

kyelishikli-koʻmakchili boshqaruv: *uyga tomon yurish, otdan koʻra balandroq.*

Tobe boʻlakning qanday shaklda boʻlishi hokim boʻlakning lyeksik-sintaktik xususiyatiga bogʻliq. Ayni paytda hokim boʻlakning tanlanishi ham tobye boʻlakning shakliga, syemantikasiga bogʻliqdir.

Moslashuv. Bunday bogʻlanishda ikki yoki undan ortiq soʻz yoki tobye hamda hokim boʻlaklar bir-biri bilan grammatik-syemantik jihatdan muvofiqlashadi, bir-biriga moslashadi. Bunda biror byelgi, harakat, xususiyat, narsa-buyum qaysi pryedmyetga oidligi, aloqadorligi koʻrsatiladi. Chunonchi, *gulning hidi, motor qizishi, oʻz bolasi; nashi sovremenniki, koroche govorya, volya sudba* kabi.

Bitishuv. Bu usuldagi bogʻlanishda tobye boʻlak hamda hokim boʻlak hyech qanday formal byelgilarsiz munosabatga kirishadi. Bitishuvda hokim boʻlakning shakli oʻzgarsa-da, tobye boʻlak oʻz formasini oʻzgartirmaydi. Bunday soʻz birikmalarida tobye hamda hokim boʻlaklar odatdagi tartib (jipslashuv) va intonasiya bilan xarakterlanadi: *moviy osmon, chiroyli sahna, orombaxsh havo, dono chol*. Bitishuvli birikmalarda hokim boʻlak, odatda, ot soʻz turkumiga yoki fyeʼlga mansub boʻladi. Hokim boʻlak ot bilan ifodalansa, atributiv birikma hosil boʻladi: *chiroyli qomat, uzun soch, yorugʻ xona* kabi. Hokim boʻlak fyeʼl boʻlganda, ryelyativ (holli) birikma yuzaga kyeladi: *yugurib chiqmoq, syekin gapirmoq, tyez charchamoq ...*

Soʻz birikmalari tarkibidagi tobye boʻlak hamda hokim boʻlakning birikish usullari turli tillarda turlicha koʻrinishlarga ega boʻladi, yaʼni ular bir-biriga koʻpincha mos kyelavyermaydi. Chunonchi, turkiy tillarda [sifat + ot], [olmosh + ot], [son + ot], [sifatdosh + ot] birikuvlari bitishuv munosabatini bildirsa, xuddi shu birikuvlar rus tilida moslashuvni ifodalaydi. Qiyoslang: *katta bino, byeshta daftar, bu odam, oʻqiyotgan bola; bolshoy dom, vtoraya kniga, pyatyy kurs, chitayuuyy chelovek*.

Gap. Nutq faoliyati uchun eng asosiy birlik gapdir. Chunki ijtimoiy hayotda soʻzlovchining fikr ifodalashi, axborot uzatishi, tinglovchining axborot qabul qilishi, yaʼni kishilarning oʻzaro fikr almashuvi soʻz yoki soʻz birikmasi orqali emas, balki gap orqali amalga oshadi. «Til ~ nutq ~ nutq qobiliyati»dan asosiy maqsad gap tuza olish va uni bayon etishdan iborat. Inson tilida nimaiki boʻlsa, barcha-barchasi gapni turfa shakl va mazmunda qurish uchun xizmat qiladi. Zyeroki, gap maʼlum fikrni, hukmni ifodalaydi. Fikrning manbai esa ryeal borliq yoki tuygʻu-hissiyotlardir. Masalan, *Daraxt gulladi*

gapini olaylik. Ushbu gap bizning ongimizda ikki tasavvur – pryedmyet (*daraxt* haqidagi tasavvur) va uning holati (*gullamoq* haqidagi tasavvur)ni jonlantiradi va o‘zaro yaqin ikki tasavvurning qo‘shilishidan hukm (fikr) yuzaga kyeladi. Hukm esa gap orqali ifodalanadi. Tildan maqsad – gap qura olish, gapdan maqsad esa fikr ifodalashdir.

Gap har bir til sistyemasida kommunikativ mohiyatga molik bo‘lgan eng asosiy birlik bo‘lib, o‘ziga xos tuzilishga ega. Til o‘zining kommunikativ funksiyasi (jamiyatda aloqa vositasi vazifasi)ni faqat gap orqaligina bajaradi. Tilning asosiy vazifalaridan yana biri psixik (ruhiy) funksiyasi bo‘lib, fikrni shakllantirishga xizmat qiladi va bu vazifa ham gap orqali yuzaga chiqadi. Dyemak, gapda ham ijtimoiy, ham ruhiy maqsad bo‘ladi. Shuning uchun tilning barcha sathlari – fonologiya, fonyetika, lyeksika, syemantika, morfologiya, sintaksis, stilistika – bitta maqsadga gapni shakllantirishga va aloqani amalga oshirishga xizmat qiladi.

Gapning tabiati, mohiyati, uning konstruktiv-grammatik byelgilari, gapning so‘z, so‘z birikmasi va turg‘un birikmalardan farqi kabi masalalar har bir tilning grammatikasida o‘rganilishi bilan birga jahon umumiy tilshunosligi uchun ham g‘oyat muhim masalalardandir. Tilshunoslik tarixida bu masalalar turlicha talqin etilgan bo‘lib, hozirgacha gapga uch yuzdan ortiqroq ta’rif byerilgan. Chunonchi:

«Nutqning shu tilning grammatik qonun-qoidalariga mos ravishda to‘la shakllantirilgan birligi gapdir» (rus tilshunos olimi V.V.Vinogradov). «Gap – nutqning tugallangan fikr ifodalaydigan bo‘lagi» (o‘zbyek tilshunos olimi A.G‘ulomov). Har ikkala ta’rif ham byevosita kuzatishda byerilgan nutqiy hosila xossalariga tayanadi. Nutq birliklari xususiyliklar sifatida shu qadar xilma-xilki, ularni oddiy yo‘l bilan bir-biriga qo‘shib umumlashtirish yoki ularga umumiy ta’rif byerish mohiyatga bir tomonlama yondashishni kyeltirib chiqaradi. Tilni tizim sifatida o‘rganuvchi tilshunoslik gapga nutq birligi sifatida byerilgan ta’riflarni rad etadi, shuningdyek, gapga lisoniy bosqichda ta’rif byerish mumkinligini e’tirof etadi.

Gaplarga xos bo‘lgan zohiriy (nutqiy) va umumiy (lisoniy) qoliplar mavjud. Nutqiy qoliplar turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, *Qizim maktabga boryapti* gapining zohiriy qolipini chizib ko‘raylik.

1-qolip: Ot^{e.q.} + ot^{j.k.} + f^{h.zamon}

2-qolip: ega + hol + kesim.

Nutqda voqelangan gaplarning tuzilishi behad xilma-xil bo‘lgani kabi yuqoridagi nutqiy qoliplar ham nihoyatda turli-tumandir. Biroq gaplar asosida qoliplar tuzish – loyning shakliga qarab g‘isht qolipini yasashdek gap. Bu mantiqan noto‘g‘ridir. Shuni eslatib o‘tish lozimki, hosilalardan qolip kelib chiqmaydi, aksincha, gaplar gapning lisoniy sintaktik qolipidan chiqqan turli-tuman ko‘rinishdagi, ammo umumiy mohiyatga borib birlashuvchi hosilalardir.

Gapning lisoniy sintaktik qolipi shakl va mazmun tomonlaridan iborat. Uning mazmun tomoni fikr yoki hukm ifodalashidir. Xo'sh, gap lisoniy sintaktik qolipining shakl tomoni nimadan iborat?

O'zbekcha gaplar uchun gapning asosi **kesim** bo'lib, u tasdiq\inkor, zamon, mayl/modallik, shaxs\son ma'nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtiradi. Kesim vazifasida kelgan atov birligining nutq talabi va ehtiyojiga ko'ra kengayish qobiliyati, ya'ni gapning zaruriy bo'laklarini o'z atrofida birlashtira olishi kesim vazifasida kelgan so'zning semantik-sintaktik valentligiga bog'liqdir.

Yevropa tishunosligida XVI asrdan buyon gapning lisoniy sintaktik qolipi ikki a'zoli [E-K] (ya'ni «ega+kesim») qurilma sifatida ajratiladi. Aslida bu qurilma tilshunoslikka mantiqdan ko'chirilgan bo'lib, mantiq fanida hukm hamisha ikki a'zoli, ya'ni «subyekt - predikat»dan iboratdir. Bu qurilma [S-P] to'ppa-to'g'ri gap tizimiga ko'chirildi, gapning egasi «subyekt», kesimi esa «predikat», ya'ni gap «subyekt bilan predkat orasidagi aloqa» deb nomlanadi. Bu fikr ruscha gaplarga ham tegishli bo'lib, ruscha gaplarning tabiati [E+K] qolipiga uyg'undir. Chunonchi, *Ya prishyol. Idyot sneg. Ya umeyu risovat. Ya vstayu v sem chasov* kabi.

Nutqiy bosqichda gap o'ziga xos byelgilarga ega bo'lib, gapning lisoniy sintaktik qolipida shu byelgilarga ishora bo'ladi. Gap, avvalo, sintaktik tugallangan qurilma ekanligi bilan xarakterlanadi, ya'ni gap nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi, tugallangan ohang bilan aytiladi. Dyemak, gapning eng muhim byelgilari quyidagilar:

gap tarkibida kyesimlik ko'rsatkichlari bilan shakllangan kyesimning bo'lishi shartligi; gapning grammatik-intonasion va fikriy jihatdan bir butunlikka, tugallikka ega bo'lishi.

Gapning grammatik – intonasion shakllangan, tugallangan bo'lishi shartligi ohangning nutqiy gapdagi doimiy xarakterli belgilardan biri ekanligini ko'rsatadi. Gapning nisbiy tugallangan fikr ifodalashi ohangning tugallanganligiga mos keladi. Og'zaki nutqda gapning grammatik-fikriy bir butunligini ohang bildirib turadi va uni gap bo'lmagan nutqiy hodisalar (so'z, so'z birikmasi)dan farqlashga yoram beradi. Masalan,

a) *baqirayotgan bola; bu student* (so'z birikmalari);

b) *Baqirayotgan – bola; Bu – student* (gaplar).

Ohang nafaqat gapning tugallanganligini bildiradi, balki gapning turli tiplarini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, *Gullar ... Gullar. Gullar? Gullar!*

Mehmon keldi. Mehmon keldi?... Mehmon keldi! Mehmon keldi!!!

Gap kengaytiruvchilari gap tarkibida ma'lum bir bo'lak vazifasida kelayotgan so'zlarning lug'aviy ma'nosi bilan emas, balki gapning kesimini shakllantiruvchi morfologik vositalarga bog'lanadi. Ega va hol gap kengaytiruvchilaridir.

Ega gap kesimini shakllantiruvchi [Pm] – kesimlik kategoriyasida mujassamlangan shaxs-son ma'nosini muayyanlashtiradi. Masalan: *Biz xatni o'qidik* nutqiy hosilasidagi

kesimning lug'aviy qismi bo'lgan o'qi – fe'lini istagan boshqa so'z bilan almashtirsak (masalan: *ol-*, *yoʻz-*, *yubor-*, *yirt-*, *yashir-*, *g'ijimla-*, *ko'r-* va h.), biroq [-dik] qismini saqlasak, *Biz* ega vazifasida kelaveradi. [-dik] tarkibidagi shaxs\son qo'shimchasini, ya'ni [-k] olib tashlasak yoki almashtirsak (masalan, [-ngiz] shakli bilan), *Biz* ham o'zgarishiga to'g'ri keladi.

Tabiiyki, payt holi [Pm] tarkibidagi zamon ma'nosini oydinlashtiradi. Chunonchi, *Salima kecha kelgan edi. Salima bugun kelyapti. Salima ertaga keladi.* Holning ma'no jihatdan boshqa turlari ot-kesimli gaplar tarkibida kelganda gap kengaytiruvchilari, fe'l-kesimli gaplar tarkibida esa so'z kengaytiruvchilari bo'lib keladi.

Ta'kidlaganimizdek, kesim tarkibidagi so'zning lug'aviy ma'nosini so'z kengaytiruvchilari muayyanlashtiradi. Bu siraga to'ldiruvchi va aniqllovchini kiritish mumkin. So'z kengaytiruvchilari gap konstruktiv tuzilmasidan o'rin egallay olmaydi. Gap kengaytiruvchilari esa gapning minimal qoliplaridan o'rin egallaydi.

Yevropa tilshunosligida, jumladan, rus tilshunosligida gap tarkibi bosh bo'laklar (ega va kesim) va ikkinchi darajali bo'laklar (to'ldiruvchi, aniqllovchi, hol)ga ajratiladi. Xuddi shunday talqinni o'zbek tiliga oid (1930-1990-yillar oralig'ida chop etilgan) har bir darslik yoki qo'llanmada ham uchratish mumkin. Chunki o'tgan asrning 30-yillarida yangi davr o'zbek tilshunosligi shakllanish jarayonida yevropa tilshunosligidan, xususan, rus tilshunosligidan gapning umumiy [S-P] qurilishi o'zbek tili tizimiga ko'chirildi va o'sha davr mafkurasiga ko'ra, asta-sekin darslik, qo'llanmalarga ommalashdi. O'zbek tili uchun kesim gapning markazi ekanligini yuqoridagi gap tarkibi bo'linishini rad etadi.

O'zbek nutqi uchun gapning «jon»i, «yuragi» kesimdir. U gapning grammatik asosini tashkil etadi. O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda N.Mahmudov, A.Nurmatov, L.Raupova, M.Abuzalova, M.Saidova kabi olimu olimalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda kesim gapning yadrosi, gapning bevosita tashkil etuvchisi va uning uyushtiruvchisi ekanligi, hattoki, atov gaplarning tarkibi egadan emas, balki kesim tarkibidagina iboratligi isbotlab berildi. Kesimning mustaqil va nomustaqil kesimlik shakllari farqlandi. (Bular haqida til fanining «Sintaksis» bo'limida to'laroq ma'lumotga ega bo'lasiz.)

Gaplar turli tillarda, asosan, quyidagi belgilar asosida tasnif etiladi:

- Ifoda maqsadiga ko'ra: darak, so'roq, buyruq gaplar.
- Hissiy-ta'siriy jihatiga ko'ra: his-hayajonli gaplar va his-hayajonsiz gaplar.
- Ifoda mazmuniga bo'lgan munosabatga ko'ra: tasdiq mazmunli gaplar va inkor mazmunli gaplar.
- Grammatik asosning miqdoriga ko'ra: sodda va qo'shma gaplar.
- Gaplar grammatik jihatdan shakllanishiga ko'ra: to'liq gaplar va to'liqsiz gaplar.

Shuningdek, ushbu tasniflar o'zbek nutqi uchun xarakterlidir:

Gaplar kesimlik kategoriyasi mazmunini ifodalash usuliga mos ravishda: grammatik shakllangan gaplar va semantik-funksional shakllangan gaplar.

Gapning lisoniy qurilishida eganing ifodalanmaganligiga ko'ra: **egali gaplar va egasiz gaplar.**

E'tiborimizni gapning grammatik asoslar miqdoriga ko'ra ajratilgan turlarga qarataylik. Yuqoridagi fikr-mulohazalarimizda, asosan, sodda gapga xos bo'lgan xususiyatlar tahlil etildi. Sodda gaplarning eng kichik qurilish qolipi [WPm] ekanligi aniqlandi. Endi diqqatni qo'shma gaplarga jalb etamiz.

Qo'shma gaplar sodda gaplar bilan mustahkam bog'langan, biroq ulardan tuzilishi, uzatilayotgan axborot nuqtayi nazaridan farqlanuvchi sintaktik qurilmadir. Sodda gapda shakllangan kyesim bitta bo'lsa, qo'shma gapda u birdan ortiq bo'ladi, ya'ni qo'shma gap birdan ortiq sodda gaplarning mazmun hamda grammatik birikuvidan tashkil topadi. Kyesimlarning birdan ortiqlikidan tashqari, har bir qo'shma gapda ifodalanayotgan fikr, uzatilayotgan axborot ham birdan ortiq bo'ladi va ular o'zaro zich munosabatni, sodda gaplararo grammatik butunlikni hamda intonasion yaxlitlikni taqozo etadi.

Kommunikativ nuqtayi nazardan sodda gap bir fikrni, hukmni ifodalasa, qo'shma gaplarda bu birdan ortiq bo'ladi. Chunonchi,

Oy yoritadi, ammo isitmaydi.

Myen o'qiyman, yozaman va ishlayman.

Brat skazal, chto my zavtra poyedem na rybalku. Nastupila minuta, kogda ya ponyal vsyu etu syenu slov. When I same home, I saw that the table was set.

Shunday qilib, qo'shma gap grammatik jihatdan shakllangan, birdan ortiq axborotni tashish uchun mo'ljallangan, sodda gaplarning grammatik, syemantik, intonasion va kommunikativ jihatlardan yaxlitlangan butunligidir.

Qo'shma gaplarning umumiy lisoniy sintaktik qolipi [WPm] U [WPm] ko'rinishiga egadir. O'zbyek tilida qo'shma gaplarning, asosan, uch turi ajratiladi:

Tyeng tarkibli qo'shma gaplar (qolipi – [WPm], [WPm]).

Tobye tarkibli qo'shma gaplar (qolipi – [WPm] → [WPm]).

Mutanosib tarkibli qo'shma gaplar (qolipi – [WPm] ↔ [WPm]).

Teng tarkibli qo'shma gaplarning mohiyati shundaki, uning tarkibiy qismlari sanalmish sodda gap kyesimlarining har biri mustaqil shakllangan bo'lib, ularni osongina alohida sodda gaplarga aylantirib yuborish mumkin. Chunonchi, *Bormang, bormoqchimisiz? Kyechasi qalin qor yog'di, biroq havo unchalik sovimadi. Myen syeni dyezman-u, syen kimni dyeysan?!*

Tobe tarkibli qo'shma gaplarda ikki yoki undan ortiq sodda gaplar shakllangan [Pm] mavjud bo'lsa-da, birinchi sodda gapning markazi mustaqil sodda gap kyesimi bo'la olmaydi. U doimo tobye gap markazini shakllantirib, o'z mohiyatini ochishi uchun o'zidan kyeyin mustaqil kyesimli gap bo'linishini talab etadi. Masalan, *Myen qo'shiq aytsam, u tinglaydi. Ergash ko'ringan ham edi, bolalar yugurishdi. Dyemak, [WPm] →*

[WPm] qolipidan chiqqan hosilalarda birinchi gap shaklan va mazmunan ikkinchi bir gapga ehtiyoj syezadi, lyekin aksincha emas.

Mutanosib tarkibli qo'shma gaplarni tashkil etuvchi sodda gaplar kyesimlarining biri ikkinchisini, ikkinchisi esa birinchisini taqozo etadi. Ikkalasing ham kyesimi nomusta qil kyesim hisoblanadi. Chunonchi, *Tyezroq tong otsa-yu, bog'larni, maysalarni ko'rsam. Agar Salima biznikiga kyelsa edi, biz birga borgan bo'lar edik.* [WPm] ↔ [WPm] qolipli qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni mustaqil holda qo'llash mumkin. Biroq ular mustaqil qo'llanganda butunlay boshqa ma'no yuzaga chiqadi.

Qo'shma gaplarning siz o'rta maktabda tanishgan quyidagi tasnifi ham mavjud:

- Ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar;
- Bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplar;
- Yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplar;
- Nisbiy so'zlar bilan bog'langan qo'shma gaplar;
- Kyesimlik so'zlari bilan bog'langan qo'shma gaplar.

Qo'shma gaplarni uyushiq kyesimli sodda gaplardan (*Salima o'tirar, turar va yig'lab chopar edi; Sotuvchi do'kondagi kitoblardan uch-to'rttasini artib, o'qib chiqdi* kabi) hamda sodda va qo'shma gaplar orasidagi «oraliq uchinchi» uyushgan gaplardan (*Bahor kyelar, dala ishlari qizib kyetar edi* kabi) farqlash lozim.

Gapning aktual bo'linishi. Nutq xusuiylik tabiatiga egaligi sababli gapda ishtirok etayotgan so'zshakllar tartibi bir qadar erkindir. Biroq bu «erkinlik» hyech qachon umumiy lisoniy qonuniyatlar doirasidan chyetga chiqolmaydi. Nutq qaysi uslubdaligiga ko'ra, so'zlovchining maqsadi asosida gap tarkibidagi so'zshakllar umumiy tartibga ega bo'ladi. Bundan tashqari, nutqiy bosqichdagi istalgan gap mazmunan ma'lum voqyelikni ifodalash bilan birga, so'zlovchi axborotni nima maqsadda uzatayotganligini ham bildiradi.

Chunonchi, *Salima univversityetdan qaytdi* gapida muayyan shaxsning (ya'ni *Salimaning*) univversityetdan qaytishi voqyelig xabar qilingan, bu birinchidan. Ikkinchi jihatdan e'tibor qaratsak, gapda so'zlovchining tinglovchiga Salimaning qayerdan qaytganligi haqidagi ma'lumotni yyetkazish maqsadi ham aks etganligi syeziladi. Shunga ko'ra, ushba gap *Salima qayerdan qaytdi?* so'rog'iga javob bo'la oladi. Agarda shu gapni *Univversityetdan Salima qaytdi* shaklida o'zgartirsak, gapda ifodalangan voqyelik mazmuni o'zgarishsiz qoladi, ya'ni *Salima unvyersityetdan qaytdi – Univversityetdan Salima qaytdi* gaplari bir xil. Biroq, ikkinchi gapda so'zlovchining axborot maqsadi *Univversityetdan kim qaytdi?* savoli orqali muayyanlashadi. Birinchi gapda harakatning yo'nalishi, ikkinchi gapda harakatning bajaruvchisi axborot maqsadini xarakterlaydi. Gapning axborot yyetkazish vazifasi nuqtayi nazaridan tuzilishi **aktual bo'linish** dyeyiladi. Aktual tuzilmaning tarkibiy qismlari aktual bo'laklar hisoblanadi.

Aktual bo'laklar **gap ifoda asosi** va **ifoda yadrolaridan** iborat bo'ladi. Gapda ifodalangan fikrning ma'lum qismi, ya'ni ifoda asosi tyema (ma'lum dyemakdir) va

noma'lum qismi, ya'ni ifoda yadrosi rema (yangilik demakdir) dyeb ham yuritiladi. Gapning ryema qismi kommunikativ (axborot yyetkazish) nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo'ladi. Savol har doim ryemani aniqlash uchun byeriladi. Gapning tema qismi ma'lum bo'lganligi sababli u so'roq gap tarkibida aynan takrorlanadi. Quyida ba'zi sodda gaplarning tyema-ryematik, ya'ni aktual bo'linishiga diqqat qiling:

tema	rema
Salima	(qayyerdan?) universitetdan qaytdi
Universitetdan	(kim?) Salima qaytdi
Bahorda	(nimalar?) gullar ochiladi
Gullar	(qachon?) bahorda ochiladi
Karim	(nimani?) kursini tuzatmadi
Kursini	(kim?) Karim tuzatmadi

Gapning aktual bo'linishi gapning shakliy bo'linishiga qarama-qarshi turadi. Agar shakliy (formal) bo'linishda gap tarkibidagi grammatik element (kesim, hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi kabi)larga e'tibor qaratilsa, aktual tuzilmada gapning ma'no jihatdan bo'linishi nazarda tutiladi. Aktual bo'linishda fikr ma'lumdan noma'lumga qarab boradi. Aktual bo'linish gapning formal bo'linishi bilan mos kelishi ham, kelmasligi ham mumkin. Chunonchi, *Ikki dugona olimpiadada g'olib bo'lishdi; Chekish mumkin emas* gaplarida *ikki dugona* va *chekish* tema bo'lib kelgan. Har ikkala gapda ham tema gapning egasi bilan muvofiq keladi. *Olimpiadada ikki dugona g'olib bo'lishdi; Dunyoni go'zallik qutqaradi* gaplaridagi *olimpiadada* hamda *dunyoni* so'zshakllari tema bo'lib, sintaktik bo'linishga muvofiq kelmaydi.

Demak, aktual bo'linish talabi bilan gapda so'zshakllarning tartibi har xil bo'ladi. Va u mantiqiy birlik bo'lgan hukmning bo'laklanishi (subyekt ~ predikat)ga ham o'xshaydi. Yuqoridagi xususiyatlar hisobga olingan holda, aktual bo'linish sathi mantiqiy-grammatik sath deb nomlanadi.

Aktual bo'linish lisoniy konstruktiv-sintaktik mohiyat bilan bog'liq sof nutqiy hodisadir. Gapda so'zshakllar tartibi aktual bo'linish bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, buning lisoniy sintaktik qurilishga dahli yo'q.

Aktuallashtiruvchilar qatorida tartibdan tashqari fonetik, leksik va grammatik vositalar ham mavjud. Fonetik aktuallashtiruvchilar sirasiga logik hamda emfatik urg'uni kiritish mumkin. Logik (mantiq) urg'usi nutq tempi va pauza bilan bog'liqdir. Ma'lumki, gapda nechta so'zshakl bo'lsa, shuncha miqdorda so'z urg'usi bo'ladi. Gap tarkibidagi qaysi so'zshakl mantiqiy urg'u olsa, o'sha so'zshakl rema, gapning qolgan qismi esa tema hisoblanadi. Emfatik urg'uda hissiy-ta'siriylik kuchli bo'lib, unli yoki undoshlar

cho‘ziladi, ba‘zan so‘zlar takrorlanadi (*Senga ka-a-atta tort keltirdim; Ko‘zlaring chchchi-royli; Men, men aytaman* kabi). Emfatik urg‘u olgan so‘zshakllar remadir.

Ba‘zi gaplar tarkibida yordamchi so‘zlar (masalan, so‘z-yuklamalar) va grammatik shakllar (masalan, affiks-yuklamalar) ham so‘zshakllarning aktuallashishiga yordam beradi. Masalan, *Sarvar ham keldi; Yigitning o‘zigina tushunadi* kabi.

O‘zbek tilidagi atov gaplar, to‘liqsiz gaplarning ba‘zi ko‘rinishlari tema-rematik bo‘linishga ega bo‘lmaydi va ular kommunikativ bo‘linmas gaplar hisoblanadi. *Bahor! Oppoq qor... Rahmat. Ha, mayli* kabilar shular jumlasidandir.

Gapning aktual bo‘linishini rus, ingliz, nemis, fransuz kabi tillarda ham kuzatish mumkin. Odatda, bu tillarda tema-rematik bo‘linish gapning formal bo‘linishi bilan mos kelmaydi. Masalan,

rus tilida	
tyema	ryema
Smex	pobejdayet grust.
Grust	pobejdayet smex.
Moyo lyubimoye derevo –	beryoza.
Beryoza –	moyo lyubimoye derevo.
Poyezd	podxodit k vokzalu.
K vokzalu	podxodit poyezd.

Keltirilgan misollarda, jumladan, birinchi gapda tema bo‘lib kelgan *smex* so‘zi imenitelный padej ko‘rinishida, rema – *grust* so‘zi esa vinitelный padej shaklini olgan. Axborot maqsadi deyarli o‘zgarmagan *Grust pobejdayet smex* gapida esa, tema (*grust*) imenitelный padej, rema (*smex*) vinitelный padej shakliga ega bo‘lgan va h. Ingliz tilidagi ushbu misolga diqqat qilaylik: *The ball hit the boy* (*Koptok bolani yiqitdi*) - *The ball* (tema) – *hit the boy* (rema).

The boy hit the ball (*Bola koptokni yiqitdi (qo‘lidan tushurdi degan ma’noda)*) – *The boy* (tema) – *hit the ball* (rema).

Birinchi gapda *the ball* ega vazifasida kyelgan bo‘lsa, ikkinchi gapda to‘ldiruvchi vazifasini o‘tayapti, dyemak yuqoridagi gaplarda tyema-ryematik bo‘linish shakliy bo‘linishga mos kyelmagan.

Nyemis tilida: *Diye Frau sah das Madchen* (*Ayol kishi qizni ko‘rdi*) – *Das Madchen sah diye Frau* (*Qiz ayolni ko‘rdi*).

tema	rema
Diye Frau	sah das Madchen
Das Madchen	sah diye Frau

Anglatilayotgan fikr xarakteriga qarab bir gap turlicha aktual bo‘linishi mumkin:
Karim / musobaqada g‘olib chiqdi – Karim musobaqada / g‘olib chiqdi kabi.

Mavzu bo‘yicha savol va topshiriqlar

1. Sintaksisning o‘rganish ob‘yektlari nimalardan iborat?
2. Sintaktik aloqa turlari haqida gapirib bering.
3. Valentlik tushunchasini izohlang.
4. So‘z birikmasi, uning asosiy qoliplari qanday?
5. Tobe aloqa turlari haqida ma’lumot bering.
6. Gap qaysi belgilar asosida ajratiladi?
7. Gap bo‘laklarining an’anaviy va zamonaviy tasnifidagi farqlar nimalardan iborat?
8. Nima uchun kesim gapning markaziy bo‘lagi deb hisoblanadi?
9. Gapning aktual bo‘laklariga nimalar kiradi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish.- Toshkent, 2008.
2. Irisqulov M..Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 1992.
3. Sodiqov A., Abduazizov.A., Irisqulov M.. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 1981.
4. Reformatskiy A.A.. Vvedeniye v yazykovedeniye. -. Moskva, 2008.
5. Golovin B. N. Vvedeniye v yazykoznaniye. - Moskva, 1979.
6. Koduxov V. I. Vvedeniye v yazykoznaniye. - Moskva, 1979.
7. Koduxov. V. I. Obshcheye yazykoznaniye. - Moskva, 2009.
8. Churilina. L. N. Aktualnyye problemy sovremennoy lingvistiki. - Moskva, 2009.
9. Sharafutdinova. N. S.Teoriya i istoriya lingvisticheskoy nauki. - Moskva, 2007.

Tayanch ibora va tushunchalar (glossariy)

1. Sintaksis.
2. Sintaktik munosabat turlari.
3. Gap va uning turlari.
4. Vositali va vositasiz to‘ldiruvchi.
5. Matn.
6. Ega va kesim.
7. To‘ldiruvchi.
8. Aniqlovchi.

9. Hol.
10. Predikativlik.
11. Hukm.
12. Aktual bo‘linish.
13. Tema va rema.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish.- Toshkent, 2008.
2. Irisqulov M..Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 1992.
3. Sodiqov A., Abduazizov.A., Irisqulov M.. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 1981.
4. Reformatskiy A..A.. Vvedeniye v yazykovedeniye. -. Moskva, 2008.
5. Golovin B. N. Vvedeniye v yazykoznaniye. - Moskva, 1979.
6. Koduxov V. I. Vvedeniye v yazykoznaniye. - Moskva, 1979.
7. Koduxov. V. I. Obщeye yazykoznaniye. - Moskva, 2009.
8. Churilina. L. N. Aktualnyye problemy sovremennoy lingvistiki. - Moskva, 2009.
9. Sharafutdinova. N. S. Teoriya i istoriya lingvisticheskoy nauki. - Moskva, 2007.

VIZUAL MATERIALLAR

1-savol. Grammatikaning asosiy vazifasi

1-ilova

Грамматика (грекча – “ёзув санъати”) тарихий сўз бўлиб, ўқиш ва ёзиш деган кенг маънони англатади

Грамматика – тил функциясининг умумий қонунларини ўрганади ва лингвистика сўзига синоним термин ҳисобланади

Грамматика – тилнинг грамматик қурилиши, морфологик категория ва форма системаси, синтактик категория, синтактик қурилиш, сўз яшаш усуллари ва тилнинг грамматик таркибини ўрганади




-savol. Grammatik kategoriyalar



4-savol. Soʻzlarning morfologik va etimologik shakllanishi


6-ilova



5-savol. Soʻz turkumlari

7-ilova






1-savol. Sintaksis bo'limining o'rganish ob'yekti

1-ilova

Синтаксис – грамматиканинг бир қисми бўлиб, унда камида икки мустақил сўзларнинг синтактик боғланиши ҳамда матнлар ўрганилади

2-ilova




2-savol. Gap va uning turlari

3-ilova


Гап – бир ёки бир неча сўздан ташкил топган, предикативлик хусусиятига ва оҳанг бутунлигига эга бўлган ҳамда нисбий тугал фикр англатадиган тилнинг мулоқот бирлигидир

4-ilova



3-savol. Gap bo'laklari

5-ilova




4-savol. So'z birikmalari


6-ilova

Сўз бирикмаси – бир бири билан синтактик жиҳатдан боғланган, биринчи даражали предикативлик муносабатига эга бўлмаган, икки ёки ундан ортиқ мустақил сўзлар қўшилмасидир

5-savol. Sintaktik munosabat vositalari




8-ilova



6-savol. Gapning aktal bo'linishi

9-ilova



Бир гап ёрдамида бир нечта хукми ифо қилиш мумкин. Гапнинг хар бир бўлаги хукмнинг субъекти темаси ёки предикати бўлиб келиши мумкин

2-AMALIY MASHG‘ULOT: MUMTOZ VA ZAMONAVIY ADABIYOTGA OID ASARLAR TAHLILI. JADID ADABIYOTI VA UNING O‘ZIGA XOSLIGI

Reja:

1. “Ilk devon”ga tavsif.
2. Oqquyunli muxlislar devoni haqida.
3. Dastlabki rasmiy devonlar: “Badoye’ ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya”. “Badoye’ ul-bidoya” debochasida devon tartib berish masalalari.
4. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining yaratilish tarixi. Kulliyotning tarkibiy tuzilishi.

Musulmon Sharqi she’riyati tarixini Alisher Navoiy lirikasisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Uning lirik merosi o‘zigacha yaratilgan fors-tojik va turkiy she’riyatning davomi bo‘lish bilan birga barcha zamonlardagi o‘zbek she’riyatining eng yuksak cho‘qqisi hamdir. Har ikkala tilda yuksak badiiy asarlar yarata olish qobiliyatiga ega bo‘lgan hassos shoir 45 ming misraga yaqin turkiy tildagi she’rlari va 12 ming misradan ortiq fors-tojik tilidagi nazmiy merosi bilan o‘sha davr she’riyati rivojiga katta hissa qo‘shdi.

Alisher Navoiy bolalik yillaridanoq badiiy ijod bilan shug‘ullana boshlagan. “Uch yosh bila to‘rt yoshning orasida” forsigo‘y adib Qosim Anvorning baytini yod o‘qib, yig‘ilganlarni hayratda qoldirgan (“Majolis-un nafois”) Alisher 15 yoshlarida “malik ul-kalom” Lutfiyning tahsiniga sazovor bo‘ladi. Adabiyot ixlosmandlari undan devon tuzishni iltimos qilganlarida, u g‘oyat kamtarlik yuzasidan devon tuzish uchun hali vaqt erta deb hisoblaydi. Shunda shoirning muxlisleri 1465–66 yillarda uning she’rlarini to‘plab, devon tuzadilar va bu devon o‘z davrida “xattotlar sultoni” nomi bilan mashhur bo‘lgan Sultonali Mashhadiy tomonidan nasta’liq xatida ko‘chiriladi. Navoiyning o‘zi “Badoye’ ul-bidoya”ga yozgan debochasida “...ammo xaloyiq arosida ming bayt-ikki ming bayt ortug‘roq, o‘ksukrakkim o‘zlari jam’ qilib erdilar, bag‘oyat mashhur bo‘lub erdi”, – deb yozadi. Devon uni nashrga tayyorlagan adabiyotshunos olim Hamid Sulaymonov tomonidan shartli ravishda “Ilk devon” deb nomlangan bo‘lib; 391 g‘azal, 41 ruboiy, 1 mustazod, 1 muxammas – jami 434 she’rdan tashkil topgan.

Devonga shoirning 1466-yildan avval yozilgan asarlari kirgani uchun undagi she’rlarning yozilish sanasi nisbatan aniq deb hisoblash mumkin, shu sababli bu devon shoirning o‘spirinlik va yigitlik davridagi ijodi va tarjimai holi haqida muayyan tasavvur beruvchi manba sifatida yuksak qiymatga ega. Devondagi she’rlarning asosiy qismini g‘azallar tashkil etadi. G‘azallar 28 arab harflari bilan tugallanuvchi qofiya hamda radiflar asosida tuzilgan. “Ilk devon” musulmon Sharqida mavjud an’anaga muvofiq hamd g‘azal bilan ibtido topadi.

Iloho, podshoho, kirdigoro,

Sanga ochug' nihonu oshkoro, –

matla'si bilan boshlanuvchi ushbu g'azal shoirning dastlabki rasmiy devonlaridan o'rin olmagan bo'lsa-da, “Xazoyin ul-maoniy”ning birinchi devoni “G'aroyib us-sig'ar”ga kiritilgan. Devondagi g'azallarni kuzatar ekanmiz, bugungi kunda xalq orasida mashhur bo'lgan quyidagi g'azallar ham aynan shoir ijodining ilk davrida yaratilganligiga guvoh bo'lamiz:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,

Ko'zlarimg'a kecha tong otquncha uyqu kelmadi...

Ko'rgali husnungi zoru muftalo bo'ldum sango,

Ne balolig' kun edikim oshno bo'ldum sango...

Navoiy falsafiy tafakkurida muhim qiymatga ega bo'lgan “Ango” radifli g'azalning ham aynan shu devondan o'rin olganligi hoirning o'sha davrdagi yuksak salohiyatidan darak beradi. G'azal matla'sini keltiramiz:

Har gadokim, bo'riyoyi faqr erur kisvat ango,

Saltanat zarboftidin hojat emas xil'at ango.

“Ilk devon”ga g'azal janridan so'ng

Ne vo'smavu ne kesmadur ul zulfi sumansoy,

ne g'amzai jodu

Mashshota sanga zoli falakdur magar, ey oy,

xurshid anga ko'zgu

deb boshlanuvchi bitta mustazod joylashtirilgan bo'lib, bu mustazod Alisher Navoiy tomonidan dastlab “Badoye' ul-bidoya”, keyinchalik “Badoye' ul-vasat” devoni tarkibiga kiritilgan.

Devonga uchinchi janr sifatida kiritilgan bitta muxammas yaratilish xuusiyatiga ko'ra taxmis shaklida bo'lib, Mavlono Lutfiy g'azaliga bog'langan. Muxammas “Sharbatu yuhyil izom erni mayi nobindadur” degan misra bilan boshlanadi. Bu taxmis ham dastlab “Badoye' ul-bidoya”ga, keyinroq kulliyotning uchinchi devoni “Badoye' ul-vasat”ga kiritilgan.

“Ilk devon” ruboiy janridagi she'rlar bilan intiho topadi. Devondan jami 41 ta ruboiy o'rin olgan bo'lib, ular ham g'azal singari arab alifbosi tartibida joylashtirilgan. Tartiblangan ruboiylar mazmunida ham Sharq devonchiligi an'anasiga amal qilish ko'zga tashlanadi: dastlab hamd va munojot mazmunidagi ruboiylar, keyin esa na't mazmunidagi ruboiylar keladi. Ushbu ruboiylar Alisher Navoiy tomonidan dastlab “Badoye' ul-

bidoya”ga, keyinchalik “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni tarkibiga kiritilgan. Devondagi dastlabki ruboiy “Subhonallohi xoliqi zul-majdu alo” misrasi bilan boshlanib, unda Yaratganning in’ikosi mehr (quyosh) timsoli vositasida tashbih qilinib, uning nisbati quyosh va zarra munosabatlari orqali ochib berilgan. “Ilk devon”dan o‘rin olgan oxirgi ruboiyning

Kim hashrda mast o‘lay xarob ey soqiy,

To anglamay etsalar azob ey soqiy

deb tugallanuvchi so‘nggi ikki misrasi devonga ham yakun yasaydi.

“Ilk devon”dagi barcha she’rlarning keyinchalik “Xazoyin ul-maoniy”ga kiritilganligi ularning Alisher Navoiy uchun ham qadrli bo‘lganligini ko‘rsatadi. Devondagi she’rlar kulliyot tarkibidagi devonlarga quyidagicha taqsimlangan:

“G‘aroyib us-sig‘ar”ga – 156, “Navodir ush- shabob”ga – 0, “Badoye’ ul-vasat”ga – 132, “Favoyid ul-kibar”ga – 146 ta she’r.

“Ilk devon”ning fanga hozirgacha ikki qo‘lyozma nusxasi ma’lum:

- 1) Sultonali Mashhadiy tomonidan 870/1465-66 yilda ko‘chirilgan qo‘lyozma Sankt-Peterburg shahrida, Rossiya Milliy kutubxonasida Dorn 564 inventar raqami ostida saqlanadi.
- 2) Qozon shahrida saqlanuvchi qo‘lyozma 976/1567-68 yilda Mahmud kotib tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, Qozon davlat universitetining ilmiy kutubxonasida 1742-inventar raqami ostida saqlanadi.

Navoiyshunos olim, filologiya fanlari doktori Aftondil Erkinov jahon qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan nusxalarni o‘rganish asnosida Alisher Navoiyning ixlosmandlari tomonidan tuzilgan yana bir devoni qo‘lyozmasini aniqlab, 2012-yilda fanga ma’lum qildi. Mazkur devon shoirning Oqquyunlilar sulolasi (Ozarbayjon va G‘arbiy Eron hududida 1378–1508-yillarda hukmronlik qilgan o‘g‘uz turklari) hukmronligi hududidagi muxlislari tomonidan tuzilgan bo‘lib, hozircha fanda shartli ravishda “Oqquyunli muxlislar devoni” nomi bilan yuritilmoqda.

Devon 1471-yil 25-dekabrda Anisiy taxallusi bilan she’rlar yozgan shoir va xattot Abdurahim ibn Abdurahmon Xorazmiy tomonidan Oqquyunlilar saltanatining markazlaridan biri bo‘lgan Sheroh shahrida ko‘chirilgan. Devonda jami 229 ta she’r bor: 224 g‘azal, 1 mustazod, 3 muxammas va 1 tarji’band. Bu majmuadagi 224 g‘azaldan 217 tasi “Badoye’ ul-bidoya”ga va faqat bittasigina “Navodir un-nihoya”ga o‘tgan. Devondagi 85% g‘azal “Ilk devon”da uchramaydi. Bu holat mazkur g‘azallarning katta qismi 1466-yildan keyingi 5 yil orasida (1471 yilgacha) yaratilganligini ko‘rsatadi.

“Oqquyunli muxlislar devoni” qo‘lyozmasi

Ey, safhayi ruxsoring azal xattidin insho,

Debochayi husnunda abad nuqtasi tug‘ro, –

matla'li g'azal bilan boshlanadi. Devondagi g'azallarning aksariyat qismi besh yoki yetti baytdan tarkib topgan. Unda "Ilk devon"dan o'tgan kattaroq hajmdagi g'azallar ham besh yoki yetti baytdan iborat tarzda, ya'ni qisqartirib berilgan.

Devondan o'rin olgan mustazod

Ey, husnungga zarroti jahon ichra tajalli,

mazhar sanga ashyo,

Sen lutf bila kavn-u makon ichida mavli,

olam sanga mavlo

degan bayt bilan boshlanadi, bu mustazod keyinchalik shoirning birinchi rasmiy devoni "Badoye' ul-bidoya" va "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining ilk devoni "G'aroyib us-sig'ar"ga kiritilgan.

Devondagi 3 muxammas Lutfiy g'azallariga yozilgan bo'lib, ular ham keyinchalik "Xazoyin ul-maoniy" tarkibidagi devonlardan o'rin olgan.

"Oqquyunli muxlislar devoni" devondagi so'nggi janr – tarji'bandning

Yodingni qilay harifi majlis,

Fikringni etay ko'ngulga munis

bayti bilan yakun topgan.

Avvallari Alisher Navoiyning turkiy tildagi she'riyati 4 bosqichda: "Ilk devon", "Badoye' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya", "Xazoyin ul-maoniy" tarzida o'rganilib kelinardi. Endilikda mazkur devon topilgandan so'ng Alisher Navoiy she'riyatini besh bosqichda o'rganishga zarurat seziladi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Bosqichlar	Navoiy devonlari	Tuzilish muddati
I	"Ilk devon"	1465-66
II	"Oqquyunli muxlislar devoni"	1471
III	"Badoye' ul-bidoya"	1470-80
IV	"Navodir un-nihoya"	1480-87
V	"Xazoyin ul-maoniy"	1492-98

Oqquyunlilar saltanatining asosiy aholisi o'g'uz turklari bo'lgani uchun mazkur qo'lyozmada Alisher Navoiy she'rlari o'g'uz lahjasiga moslashtirilib ko'chirilgan. Masalan, quyosh so'zi gunash, tosh-dosh, ber-ver, yig'lar-ag'lar, bor-vor, emas-emaz,

sarg‘arib-sararub, yo‘q-yo‘x tarzida berilgan va hokazo. Navoiyning mashhur g‘azali matla‘si ushbu devonda quyidagi holatda uchraydi:

Mehr **cho‘x go‘rsatdim**, ammo mehribone **dopmadim**,

Jon base qildim fido, oromi jone **dopmadim**.

“Oqquyunli muxlislar devoni”ning hozirga qadar faqat bitta qo‘lyozmasi ma‘lum bo‘lib, u Kohira shahridagi Misr milliy kutubxonasida Lit. Turc. 68 raqami ostida saqlanmoqda.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro taxtga chiqqanidan keyin uning topshirig‘i bilan o‘zining birinchi rasmiy devoni “Badoye’ ul-bidoya” (“Badiiylukning boshlanishi”)ni tartib beradi. Devonning Alisher Navoiy hayotlik davrida (1480-, 1482- va 1486-yillarda) ko‘chirilgan nusxalari Parij Milliy kutubxonasida (1480- yil, inv. № 746), Britaniya muzeyida (1482-yil, inv. № 401) va Toshkent shahrida (1486-yil, inv. № 216, asos nusxa) saqlanadi. Devon mazkur nusxalar asosida filologiya fanlari nomzodlari Sh.Sharipov va M.Rahmatullayevalar tomonidan nashrga tayyorlangan (MAT, 1-jild).

Shoir bu devoni uchun maxsus debocha ham yozib, unda devon tartib berish masalalariga to‘xtaladi va quyidagi xususiyatlarni alohida ko‘rsatib o‘tadi:

1. “Avval budurkim, har kishikim devon tartib qilibdurur, o‘ttiz ikki harfdinki, xaloyiq iboratida voqi‘durur va ulus kitobatida shoyi’, to‘rt harfg‘a taarruz qilmaydururlar...

2. Yana bukim, har harf g‘azaliyotining avval bitigan g‘azal bila o‘zga g‘azallar orasida uslub xaysiyatidin tafovut rioyat qilmaydururlar. Muqarrardurkim, har amrda bir lahza Haq subhonahu va taolo hamdidin yo rasul alayhissalom na’tidin, yo bu ikki ishga dalolat qilurdek bir amrdin g‘ofil bo‘lmamog‘liq avlodur...

3. Yana bir bukim, go‘yiyo ba’zi el ash‘or tahsilidin va devon takmilidin g‘araz majoziy husnu jamol tavsifi va maqsud zohiriy xattu xol ta’rifidin o‘zga nima anglamaydururlar. Devon topilg‘aykim, anda ma’rifatomiz bir g‘azal topilmag‘ay va g‘azal bo‘lg‘aykim, anda mav’izatangiz bir bayt bo‘lmag‘ay...

4. Yana bukim, soyir davovinda rasmiy g‘azal uslubidinkim, shoyi‘durur, tajovuz qilib, maxsus nav‘larda so‘z arusing jilvasig‘a namoyish va jamolig‘a oroyish bermaydururlar. Va agar ahyonon matlaye maxsus nav‘da voqi‘ bo‘lg‘on bo‘lsa, hamul matla‘ uslubi bila itmom xil‘atin va anjom kisvatin kiydurmaydururlar, balki tuganguncha agar bir bayt mazmuni visol bahorida guloroyliq qilsa, yana biri firoq xazonida xornamoyliq qilibdurur... Ul jihatdin sa’y qilindikim, har mazmunda matla’e voqi‘ bo‘lsa, aksar andog‘ bo‘lg‘aykim, maqta’gacha surat xaysiyatidin muvofiq va ma’ni jonibidin mutobiq tushkay”.

Alisher Navoiy bu o‘rinda devonni g‘azallar bilan boshlash, g‘azallarni 28 harf emas, balki 32 harf (چ – chim, ج – je, گ – gof va ل – lom-alifni ham qo‘shgan holda) bilan tugallash zarurligi, devonga dastavval Allohga hamd yoki Payg‘ambarga na’t mavzusidagi g‘azallarni joylashtirish, g‘azallarga ma’rifat va mav’iza mavzulariga doir

baytlar kiritish, g‘azal matla’sida keltirilgan fikrni maqta’gacha rivojlantirib borishni nazarda tutadi.

Alisher Navoiyning mazkur devoni aynan yuqoridagi qonun-qoidalariga amal qilingan holda tartib berilgan bo‘lib, unda 11 janrga oid jami 1046 ta she’r mavjud. Devonga she’rlar quyidagi tartibda joylashtirilgan: g‘azal – 777 ta, mustazod – 3 ta, muxammas – 5 ta, musaddas – 2 ta, tarji’band – 3 ta, qit’a – 46 ta, ruboiy – 85 ta, lug‘z – 10 ta, muammo – 52 ta, tuyuq – 10 ta, fard – 53 ta.

Alisher Navoiy tartib bergan ikkinchi rasmiy devon “Navodir un-nihoya” (“Behad nodirliklar”) deb atalib, 1480–1487-yillar oralig‘ida tuzilgan. Devonning 1487-yilda Hirotda mashhur xattot Abdujamil kotib tomonidan ko‘chirilgan nodir qo‘lyozma nusxasi hozirda O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (inv. №11675, asos nusxa) saqlanmoqda. Shuningdek, devonning yana bir nisbatan to‘liq nusxasi Sulton Ali Mashhadiy tomonidan Hirotda ko‘chirilgan bo‘lib, bu nusxa ham hozirda O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (inv. №1995) saqlanadi[‡]. “Navodir un-nihoya” devoni matni mazkur nusxalar asosida filologiya fanlari nomzodi M.Rahmatullayeva tomonidan nashrga tayyorlangan bo‘lib, unda 862 she’r bor (MAT, 2 jild). Mazkur nashrdan o‘rin olgan she’rlarning barchasi g‘azal janriga oid.

Aslida “Navodir un-nihoya”ning Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan nusxasida g‘azaldan tashqari, yana mustazod, tarji’band, qit’a, ruboiy, lug‘z, muammo va tuyuq kabi janrlar ham mavjud bo‘lib, ular jami 693 ta she’rni tashkil qiladi.

Ushbu janrlarning joylashish o‘rni, miqdori va qo‘lyozmadagi sahifasini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

T.r		Janr nomi			
1.	G‘azal	628	1b -184 b	2.	M
3.	Tarji’band				
4.	Qit’a				
5.	Ruboiy				

[‡] 80-yillarning oxirida navoiyshunos Suyima G‘anieva “Navodir un-nihoya”ning yana bir nusxasini Eronning “Koxi Guliston” muzeyi fondidan topdi va bu nusxa 1991-yili “Navoiy dastxati” nomi bilan e‘lon qilindi. Olimaning fikricha, mazkur nusxada shoirning muhri bosilgan bo‘lib, u “Navodir un-nihoya”ning Navoiy ko‘chirgan musaddava (qoralama) nusxasidir. Devonning tarkibi faqat g‘azallardan iborat bo‘lib, to‘liq emas: “kof” bilan tugallangan g‘azallardan so‘ng matn uzilib qolgan.

6.	Lug‘z
7.	Muammo
8.	Tuyuq
	Jami

Bu janrlar tarkibini o‘rganib, ularni avvalgi rasmiy devondagi she’rlar bilan qiyoslasak, quyidagi natija paydo bo‘ladi: devondagi she’rlarning aksariyati, ya’ni 65 she’rdan 63 tasi avvalgi rasmiy devon “Badoye’ ul-bidoya”da ham mavjud (bir qit’a va ruboiydan tashqari). Bu taajjublanarli hol, chunki Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” debochasidagi “ul jam’u tartibdin boshqa (“Badoye’ ul-bidoya” nazarda tutilyapti) yana har taqrib bila har nav’ abyotkim, aytilib erdiyu har nav’ g‘azaliyotkim, yig‘ilib erdi (“Navodir un-nihoya” haqida so‘z boryapti) degan fikriga tayanadigan bo‘lsak, mazkur devondagi turli janrga mansub she’rlarning asosiy qismi yangi bo‘lishi kerak edi, qolaversa shoir ijodiy laboratoriyasini o‘rgangan olimlar uning “Xazoyin ul-maoniy”gacha bo‘lgan davrdagi she’riyati devondan devonga asosan yangilanib borganligini ta’kidlaydilar⁸.

Bundan tashqari, mazkur devon uchun debocha ham yozilgan bo‘lib, Navoiy bu haqda “Xazoyin ul-maoniy”da shunday deydi: “... ikkinchi devonimdakim, “Navodir un-nihoya”g’a mashhurdur, rabt-u tartib berib, debochasinda sharh bila aizzayi as’hobu ajillayi ahbob xidmatlarida arz qilib erdim”. Lekin afsuski bu debocha bizga ma’lum qo‘lyozmalarda ham, zamonaviy nashrlarda ham uchramaydi.

Bu kabi masalalar navoiyshunoslikdagi yechimini kutayotgan muammolardan bo‘lib, ushbu holat “Navodir un-nihoya” devonining mukammal nusxasi hali topilmaganligini ko‘rsatadi.

“Navodir un-nihoya”dagi g‘azallar keyinchalik “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga quyidagi miqdorda joylashtirilgan: 64 g‘azal “G‘aroyib us-sig‘ar”ga, 331 g‘azal “Navodir ush-shabob”ga, 213 g‘azal “Badoye’ ul-vasat”ga va 196 g‘azal “Favoyid ul-kibar”ga kiritilgan. Hazrat Navoiy “Navodir un-nihoya”dagi g‘azallarni “Xazoyin ul-maoniy”ga kiritganda ko‘pincha ularni tahrir qilgan, ba’zi g‘azallarning faqat matla’sini saqlab qolib, qolgan baytlarini butunlay o‘zgartirgan.

Devon Navoiyning hamd mazmunidagi mashhur g‘azali bilan boshlanadi:

Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,

⁸ Bu haqda to‘liqroq ma’lumot olish uchun qarang: Д.Юсупова. Наводир ун-нихоя фақат ғазаллардан иборат девонми? // Алишер Навоий ва XXI аср (Республика илмий-назарий анжумани материаллари). – Т.: TAMADDUN, 2017. – Б.54-60.

Yuzung quyoshig‘a zarroti kavn o‘lub shaydo.

Alisher Navoiy 1492–1498-yillarda Husayn Boyqaroning taklifi bilan o‘zining barcha she‘rlari, jumladan, avvalgi rasmiy devonlariga kirgan she‘rlarini ham to‘plab, “Xazoyin ul-maoniy” (“Ma’nolar xazinasini”) nomli yirik kulliyot yaratadi. Kulliyot to‘rt devonni o‘z ichiga olganligi uchun “Chor devon” deb ham yuritiladi. Kulliyotning Sankt-Peterburg (1498-99, inv. Xanikov-55; 1592-96, inv. Dorn-558), Istanbul (1495-97, xattot Darvesh Muhammad Toqiy ko‘chirgan, inv. № 808), Parij (1525-27, kotib al-Hijroniy ko‘chirgan, inv. № 316-317) nusxalari mavjud bo‘lib, ular asosida professor H.Sulaymonov kulliyotning ilmiy-tanqidiy matnini yaratdi (1959-60). Mazkur matn MATning 3–6-jildlarini tashkil etuvchi devonlar uchun asos bo‘lgan.

Alisher Navoiy to‘rt devonning har biriga inson umrining fasllariga moslab nom berdi. Shu ma’noda 7–8 yoshdan 20 yoshgacha bo‘lgan davrni inson umrining bahori deb atadi va kulliyotning birinchi devonini “G‘aroyib us-sig‘ar” (“Bolalik g‘aroyibotlari”) deb nomladi.

20 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan davrni inson umrining yozi deb belgiladi va “Navodir ush-shabob” (“Yigitlik nodirliklari”) deb atadi. 35–45 yoshni umrining kuziga qiyos etdi va “Badoye’ ul-vasat” (“O‘rta yosh go‘zalliklari”) deb nomladi. 45–60 yoshini umrining qishiga o‘xshatib, “Favoyid ul-kibar” (“Keksalik foydalari”) deb atadi. Har bir devonga 650 tadan g‘azal kiritdi, shunga muvofiq boshqa she‘riy janrlarga (jami 16 janr) ham joy ajratdi.

Mazkur janrlarning kulliyotdagi tartibi va o‘zaro nisbatini H.Sulaymonov tuzgan quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

№	Navoiy foydalangan lirik janrlar	“G‘aroyib us-sig‘ar” devonida	“Navodir ush-shabob” devonida	“Badoye’ ul-vasat” devonida	“Favoyid ul-kibar” devonida	Jami to‘rt devonda
1	G‘azal	650 ta (4975 bayt)	650 ta (4998 bayt)	650 ta (5001 bayt)	650 ta (5029 ta)	2600 ta (20003 bayt)
2	Mustazod	1 ta (7 bayt)	1 ta (7 bayt)	1 ta (7 bayt)	1 ta (7 bayt)	4 ta (28 bayt)
3	Muxammas	3 ta (57,5 bayt)	3 ta (52,5 bayt)	2 ta (30 bayt)	2 ta (37,5 bayt)	10 ta (177,5 bayt)

4	Musaddas	1 ta (27 bayt)	1 ta (27 bayt)	2 ta (42 bayt)	1 ta (21 bayt)	5 ta (117 bayt)
5	Musamman				1 ta (28 bayt)	1 ta (28 bayt)
6	Tarji'band	1 ta (100 bayt)	1 ta (103 bayt)	1 ta (56 bayt)	1 ta (110 bayt)	4 ta (369 bayt)
7	Tarkibband		1 ta (56 bayt)			1 ta (56 bayt)
8	Masnaviy	1 ta (148 bayt)				1 ta (148 bayt)
9	Qasida			1 ta (91 bayt)		1 ta (91 bayt)
10	Soqiynoma				1 ta (458 bayt)	1 ta (458 bayt)
11	Qit'a	50 ta (138 bayt)	50 ta (126 bayt)	60 ta (127 bayt)	50 ta (112 bayt)	210 ta (503 bayt)
12	Ruboiy	133 ta (266 bayt)				133 ta (266 bayt)
13	Muammo		52 ta (54 bayt)			52 ta (54 bayt)
14	Lug'z			10 ta (40 bayt)		10 ta (40 bayt)

15	Tuyuq			13 ta (26 bayt)		13 ta (26 bayt)
16	Fard				86 ta (86 bayt)	86 ta (86 bayt)
Jami		840 ta (5718,5 bayt)	759 ta (5423,5 bayt)	740 ta (5420 bayt)	793 ta (5888,5 bayt)	3132 ta (22450,5 bayt)

Aslida kulliyotdagi she'rlarning bunday taqsimlanishi nisbiy bo'lib, Navoiy o'z she'rlarini devonlarga taqsimlaganda ularning haqiqiy xronologiyasiga emas, balki har bir she'rning ruhi, uslubiga ko'proq e'tibor qaratgan. Shuning uchun ham yoshlik davrida bitgan she'rlarining ba'zilar keyingi devonlarda, qarilik chog'ida yozgan she'rlari avvalgi uch devonga kirib qolganligini kuzatish mumkin. Shoirning turli davrda yozgan g'azallari soni bir-biridan farq qilgan bo'lishi tabiiy. Navoiyning ilk lirikasini o'rgangan olim Y.Is'hoqov "Ilk devon"dagi 434 ta she'r kulliyotdagi "G'aroyib us-sig'ar" (156 ta), "Badoye' ul-vasat"(132 ta), "Favoyid ul-kibar" (146 ta) kabi uchta devoniga kiritilganligini aniqlagan bo'lsa, Hamid Sulaymonov "Xazoyin ul-maoniy" devonlaridagi she'rlarning nisbiy xronologiyasini belgilab chiqqan.

Shoir kulliyot uchun maxsus debocha ham yozgan. Debocha "G'aroyib us-sig'ar" devonining boshlanish qismidan o'rin olgan bo'lib, unda an'anaviy hamd va na't qismlaridan so'ng zamona hukmdori Husayn Boyqaro madh etiladi va uning ushbu kulliyotni tartib berish borasidagi rag'bat va farmoni bayon qilinadi.

Tayanch tushunchalar:

Debocha,devon tartib berish shartlari,Navoiy dastxati,nasta'liq xati,rasmiy devon, kulliyot,to'rt devon,lirik janr,janriy xususiyatlar.

Savol va topshiriqlar:

1.Shoir sifatida ancha tanilib qolgan bo'lsa-da, Alisher Navoiy yigitlik davrida nima uchun devon tartib berishga rag'bat ko'rsatmagan deb o'ylaysiz?

2. Alisher Navoiygacha va Alisher Navoiydan keyin muxlislari tomonidan devoni tuzilgan yana qaysi shoir nomini keltira olasiz?

3. Alisher Navoiyning muxlislari tuzgan devonlari haqida aytib bering.

4. Alisher Navoiyning mukammal she'riy devon uchun qo'ygan talablarini sharhlang.


5. “Navodir un-nihoya”ning qo‘lyozma nusxalari va ulardagi janrlar miqdori haqida ma’lumot bering.

6. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining yaratilish tarixi haqida nimalarni bilasiz?


5. “Xazoyin ul-maoniy”dagi she’rlarning aniq matematik tartibda joylashtirilganligidan qanday xulosaga kelish mumkin?

Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishning zamonaviy metodlari moduli bo‘yicha yangi usullardan foydalanish

“Aqliy hujum” metodi



“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi



«Muammo» texnologiyasi



Bu texnologiya - talaba (yoki o'quvchi)larga o'quv predmetining mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to'g'ri topishlariga yordam beradi.

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoning yechish yo'llari va Sizning harakatlaringiz






FIKRLASHGA CHORLOVCHI USLUBLAR

- «Muzyorar» mashqlar
(fikrlarni erkin bayon
etishga, samimiy, oʻzaro iliq
munosabatlarni yaratishga
yordam beradi).



VENN DIAGRAMMASI




“Rolli o`yin” metodi

Tahsil oluvchilar tomonidan real hayotiy vaziyatlarni yoki asar namunalarni o`quv xonasida modellashtirish (sahnalashtirish) va rollarni ijro etish, bilim, ko`nikma va malakalarni oshirishga, shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan metod.



“Rolli o`yin” metodidan foydalanish bosqichlari




“Kichik guruhlarda ishlash” metodi



Tahsil oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o`quv materiallarini o`rganish yo`li topshirig`ini bajarishga qaratilgan metod.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodini qo`llash bosqichlari





“Bliis o`yin” texnologiyasi

To`g`ri javob	Xato javob	Baho		
... ta to`g`ri javob – «a`lo»			Guruh	F.I.O.
... ta to`g`ri – «yaxshi»				
... ta to`g`ri – «qoniqarli»				

«Sana» usuli



«Sana» usuli. O'quvchilar topshiriqni individual yoki guruhlarga bo'lingan holda bajarishi mumkin. Guruhlar bilan ishlaganda vatman qog'oz va marker beriladi. O'qituvchi yo'qlama qilish, dars mavzularini aniqlash, jurnalni to'ldirish uchun ketadigan vaqtdan unumli foydalanish maqsadida shu sanadagi har bir harfga adabiyotga oid so'z, atamalar yoki shoir va yozuvchilarning nomlarini topish vazifasi beriladi. Demak, darsning tashkiliy qismi tugagach, topshiriqni bajargan o'quvchilar ishi tekshiriladi.

Masalan: Bugungi sana – to'rtinchi mart:

T	• ohir Malik
O`	• tkir Hoshimov
R	• auf Parfi
T	• og'ay Murod
I	• brohim Yusupov
N	• odirabegim
Ch	• o'lpon
I	• mom al-Buxoriy
M	• aqsud Shayxzoda
A	• lisher Navoiy
R	• udakiy
T	• urob To'la

FONETIKA

Fonetika so'zi grekcha phone so'zidan olingan bo'lib, "tovush" degan ma'noni bildiradi. Fonetika – nutq tovushi haqidagi ta'limot, fan sohasi. Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan inson a'zolariga nutq a'zolari deyiladi

UNLITOVUSHLAR




TILNING VERTIKAL HARAKATIGA KO'RA


Yuqori tor unlilar: i, u

O'rta keng unlilar: e, o'

Quyida keng unlilar: a, o



TIL UNDOSHLARI



HOSIL BO'LISH USULIGA KO'RA

PORTLOVCHI

- Sof portlovchilar: b, p, d, t, g, k, q
- Qorishiq portlovchilar: j, ch

SIRG'ALUVCHI

- v, z, j, y, g'
- f, s, sh, x, h

PORTLOVCHO-SIRG'ALUVCHI

- m, n, ng,
- l, r


OVOZ VA SHOVQINNING ISHTIROKIGA KO'RA

**Jarangli: b, d, g, j, v,
z, j, y, g', m, n, ng, l, r**

**Jarangsiz: p, t, k, q,
ch, f, s, sh, x, h**

JUMLADAN, QUIYIDAGI 2 TA KOPTOK ORQALI BARCHA SO'Z TURKUMLARINI IFODALAB BERAMIZ.

1. Ot . Bunda, koptokka nima? so'rog'ini beramiz va o'quvcilar bilan qaysi so'z turkumining so'rog'i ekanligini aniqlaymiz.



4.Son.

Koptoklarning miqdorini aniqlash uchun **nechta?** so'rog'ini beramiz va son so'z turkumini ifodalaymiz,

5.Ravish.

Koptoklarning yuqoriga va pastga harakatlanishi **qayerga?** so'rog'ini olib keladi va ravishni ifodalaydi.

6.Olmosh.

Bu koptoklar turli rangda ekanligini ko'zni quvontiradi.
Demak bu o'rinda ko'rsatish olmoshidan foydalanilayapti.

V. KEYSLAR BANKI

«Alisher Navoiyning «Xamsa» asarida umuminsoniy qadriyatlar» mavzusidagi Keys-stadi usuli. Keys haqida

Keys – inglizcha –to‘‘lam, aniq vaziyat, ta‘lim degani. Sun‘iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta‘lim usuli. Keys usuli ilk marta Yevro‘ada Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo‘llanilgan. Keysni – hikoya, esse, tahliliy yozishma, jurnalist so‘rovi, tergov, hisobot, ocherk, faktlar majmui, statistik materiallar majmui, hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmui tarzda tayyorlash mumkin. Bunda mavzu aniqlanadi, muammo qo‘yiladi, yechimi izohlanadi, tahlil qilinadi, natija aniqlanadi. Tahlil qilish va baholashga o‘rgatish asosida qaror qabul qilish yo‘llari ko‘rsatiladi. Bu Keysning didaktik maqsadi hisoblanadi.

Keys savollar va to‘shiriqlar usulida taqdim etiladi. Keys usulini dalada, auditoriyada va ilmiy-tadqiqotchilik (laboratoriyalar, amaliyot maydonlarida) da qo‘llash mumkin. Keysning asosiy manbai kabinetli, lavhali bo‘lib, jumladan bugungi hayotiy vaziyatlar asosida bayon etilgan. Keys obekti shaxsga yo‘naltirilgan. Keys ma‘lumotlar, vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. Hajmi o‘rtacha, treninga (savol-javobga) mo‘ljallangan. U o‘quv mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilishga qaratilgan.

Mini-keys

Ona tili va adabiyot fanini o‘ziga xosligi bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. Bunda nutq imkoniyatlarini yuzaga chiqarish omillari asosiy maqsad qilib belgilanadi. Ana shu omillarni yuzaga chiqarish usuli tamoyil asosida tayyorlang.

1. Ona tili o‘qitish naziriyasini haqidagi ma‘lumotlarni o‘rganib chiqing.
2. Adabiyot o‘qitish nazariyasini eslang.
3. Har ikkala fan tabiatini o‘zaro qiyoslang.

Mini-keys

Ona tili va adabiyot fanlarining tabiatini turli yondashuvlar asosida o‘rganing. Faraz qilaylik, ona tili fani uchun ma‘lum bir qonunyati Siz uchun notanish. Bu esa o‘z navbatida ba boradagi ishingiz natijasi qoniqarli bo‘lmasligiga sabab bo‘ladi. Bunday sharoitda Siz qanday yo‘l tutasiz?

1. Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang.
2. Bu borada bajaradigan ishlaringiz ketma-ketligini belgilang.

VI. GLOSSARIY

1.	AKKOMODATSIYA (lat. Assomodatio-moslashish). Tovushlarning kombinator o'zgarishlaridan biri qo'shni undosh va unlilarning qisman moslashuvi. Akkomodasiya shunday xulosaki, keyingi tovushning ekskursiyasi artikulyasiyasining boshlanishi oldingi tovushning rekursiya (artikulyasiyasining tugashiga) moslashadi ('rogressiv akkomodash yoki oldingi tovushning rekursiyasi keyingi tovushning ekskursiyasiga moslashadi. Ayrim tillarga unlining undoshga moslashishi xosdir. Masalan, rus tilida a, o, u unlilari yumshoq undoshlardan keyin til oldi unlilariga aylanadi ularning artikulyasiyasi ekskursiyaga intilgan. Qiyoslang: "mat"- "myat" "mol"- "myol", "luk"- "lyuk". Boshqa tillarda esa undoshning unliga akkomodasiyasi kuzatiladi. Masalan: fors tilida til oldi unlisidan oldin kelgan undosh tanglaylashadi.
2.	AGGLYUTINATIV TILLAR. So'z yasalishi va shakl yasalishi agglyutinatsiya (?) yo'li bilan bo'ladiga tillar. Mas, turkiy tillar, fin-ugor tillari.
3.	ADABIY ME'YoR. Til birliklarining adabiy til qoida talablariga mos holda, namunali tarzda qo'llanishini, tilning adabiyligini ta'minlovchi vositalarni belgilovchi me'yor.
4.	ADABIY TIL. Umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum me'yorga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. Adabiy tilning ikki shakli bor: 1) yozma shakli, 2) og'zaki shakli.
5.	ADVERBIALIZATSIYA (lot. adverbium- ravish) - k. Ravishlashish.
6.	AKKOMODATSIYA (lot. assomodatio - muvofiqlashuv). Yonma-yon kelgan undosh va unli tovushlar artikulyasiyasining bir-biriga uyg'unlashuvi. Mas, i, u unlilari k, g undoshlari bilan yondosh kelganda, ularga moslashib, oldingi qator unli sifatida talaffuz etiladi: kiyik, sigir, bugun, gul. Xuddi shu unlilar chuqur til orqa q, g' undoshlari bilan yondosh kelganda, ularga moslashib, ma'lum darajada til orqa unlisi kabi talaffuz etiladi: qiyin, quyuq, hujum, g'ijim va b.
7.	AKKUMULYATSIYA. Biror tilda faol ishlatiladigan so'z, ibora va sh.k. ta'sirida shunday til birliklarining boshqa tilda ham faol ishlatila boshlashi.
8.	AKUSTIK FONETIKA (yun. akustikos- tovush, tovushga oid). Eks'erimental fonetikaning nutq tovushlari hosil bo'lishini yuzaga kelgan tovush to'lqinlari as'ektida o'rganuvchi bo'limi. Akustik jihatdan tovushning bir qator belgilari farqlanadi: 1) tovush kuchi (?), 2) tovush balandligi (?), 3) tovush tembri (?) 4) tovush cho'ziqligi. (?).
9.	AMALIY TILSHUNOSLIK. Tilshunoslikning lingvistik masalalarni (mas, mashina tarjimasi) hal etishni hisobga olgan holda amaliy yo'l bilan o'rganuvchi sohalari (eks'erimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika kabi).

10.	AN'ANAVIY TILSHUNOSLIK. Tilshunoslikdagi faqat til qismlari va tuzilishining ichki munosabatlarini, bog'liqliklarini yoritish bilan birga til va tafakkurning o'zaro munosabati, tilning jamiyat bilan, shu tilda so'zlashuvchi jamoa bilan aloqasi kabi masalalarni o'rganishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yo'nalishlar. Bu yo'nalishlarga strukturalizm o'zini qarama-qarshi qo'yadi. Strukturalizm.
11.	A'OKO'A (yun. a'oko'e -qisqartish). So'z oxiridagi tovush yoki tovushlarning tushib qolishi, buning natijasida so'zning qisqarishi. Mas, kel>ke, to'rt>to'r kabi. Qiyos. Sinko'a.
12.	ARGO (fran. argot- jargon). Yasama til. Biror ijtimoiy guruh, toifaning (masalan, talabalar, s'ortchilar, o'g'rilar va b.) o'ziga xos, boshalar tushunmaydigan lug'aviy birliklardan iborat yasama tili. Mas, kolxoz - chi'tasiz yo'lovchilar (haydovchilar tilida).
13.	ASSANANS (fran. assonance- ohangdoshlik). Aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlik. Mas, quyidagi misolda assonans o', o' unlilari asosida yuzaga kelgan: ko'm-ko'k, ko'm-ko'k, ko'm-ko'k... Ko'klam quyoshidan ko'kargan qirlar...
14.	ASSOSIATSIYA. Til birliklarining shakli yoki mantiqiy-semantik belgisiga ko'ra o'zaro birlashuvi.
15.	ARTIKULYASIYA (lot.articulatio<articulare -aniq-ravshan aytmoq). Nutq a'zolarining tovush hosil qilishdagi harakat-faoliyati va holati. Tovushlarning hosil bo'lishida nutq a'zolarining ishtiroki, holati nuqtai nazaridan artikulyasiyada ikki narsa farqlanadi: 1) artikulyasiya o'rni (?), 2)artikulyasiya usuli (?). Jarayon sifatida artikulyasiyaning uch fazasi farqlanadi: 1) 'ristu' (?).
16.	ARTIKULYASIYA USULI. Tovush hosil bo'lishida ishtirok etuvchi nutq a'zolarining bir-biriga nisbatan olgan holati natijasida havo oqimining sirg'alib o'tishi, 'ortlab chiqishi.
17.	ARTIKULYASIYA O'RNI. Tovush hosil bo'lishida qatnashuvchi nutq a'zolarining bir-biriga eng yaqinlashib, havo oqimiga to'siq hosil etadigan nuqtasi. qiyos. Artikulyasiya usuli.
18.	ARXAIZM (yun. archaios - qadimgi). Ma'lum davr uchun eskirgan, iste'moldan chiqa boshlagan til birligi (so'z, frazeologizm va b.). Mas, surur (sevinch), qayon (foyda) va b. qiyos. Istorizmlar.
19.	ARXISEMA – Umumiy sema.
20.	ASILLABIK TOVUSHLAR (yun. a-inkor yuklamasi syllabikos -bo'g'inga teng). Bo'g'in hosil qilmaydigan tovushlar.
21.	ASINDETON (yun. asyndeton-bog'lanmagan)-ayn. Bog'lovchisiz bog'lanish.
22.	Axborot banki – ta'lim to'shiriqlari algoritmi.

23.	BOG'LAMA. Fe'l bo'lmagan so'zni fe'lga xos ma'no va vazifaga moslovchi yordamchi fe'l. Mas, Tolib rassom bo'ldi, Tolib rassom bo'lya'ti, Tolib rassom bo'lmoqchi ga'larida bo'l yordamchisi rassom so'zi bilan qo'llanib. mayl, zamon, shaxs-son ma'nolarining ifodalanishi uchun xizmat qilya'ti... Bog'lama vazifasini bajaruvchi birlik o'z leksik ma'nosini qisman saqlashi yoki faqat bog'lama vazifasini bajarishi mumkin. Shunga ko'ra, bog'lamaning ikki turi farqlanadi: 1) sof bog'lama (?), 2) yarim mavhum bog'lama (?).
24.	Deduksiya – qoidadan tahlilga, umumiylikdan xususiylikka qarab intilish yo'lidan foydalanadigan usul.
25.	Ta'lim maqsadi – jamiyatning ma'lum taraqqiyot bosqichida o'z a'zolariga qo'yadigan talablarining avvaldan fikran loyihalashtirilgan modeli. Ta'lim maqsadi - ijtimoiy zarurat, ijtimoiy talab, ijtimoiy buyurtma hamda didaktik masala.
26.	Umumiy ensiklo'edik lug'atlar (UYeL). Ma'lumki, UYeL alfavit tartibida bo'lib, ularda so'zlar emas balki shu so'zlardan anglashilgan tushunchalar uchun asos bo'lgan narsalar tarixiy voqealar, tabiiy va ijtimoiy hodisalar, shaxslar geografik nomlar haqida ma'lumot beriladi va lug'at maqolalari lug'atdagi tavsif lug'at maqolasi deyiladi) lug'at yozilgan tilni tushunuvchi keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan bo'ladi.

VIII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qathiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralg‘ “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprelg‘ “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentyabrg‘ “Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrg‘ “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyung‘ “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrg‘ “O‘zbekiston Respublikasi oliy tahlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

III. Maxsus adabiyotlar

15. Berdiyev X., Xo'jayev, Yo'ldoshev B. Umumiy tilshunoslik. Samarqand, 1974.
16. Бондарко А.В. Принцип функциональной грамматики и вопросы аспектологии. - Л., 1983.
17. Гелфб И.Э. Опект изучения писема (Основк грамматологии) - М., 1982.
18. Головин Б.Н. Введение в языкознание. - М., 1966.
19. Журавлев В.К. Внешние и внутренние факторы языковой эволюции. - М., 1982.
20. Ismoilov B. "Dunyoni bilishda til va tafakkur birligi." - T., 1966.
21. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. - T., 2007.
22. Козлова М.С. Философия и язык. - М., 1972.
23. Колшанский Г.В. Логика и структура языка. - М., 1965.
24. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. - М., 1975.
25. Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi. T., 2006
26. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. "Tilshunoslikdan umumiy mahlumot" bobi. - T., 1978.
27. Nehmatov H., Bozorov O. Til va nutq. - T., 1993
28. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. - Andijon. 2006.
29. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. T., 2008.
30. Obo'eye yazqkoznaniye, Formq suo'estvovaniya, funksii, istoriya yazqka. Pod redak. B. A. Serebrennikova. Izd, "Nauka" - M., 1970.
31. Qo'chqortoyev I., Qo'chqortoyeva R. "Tilshunoslikka kirish" T., 1976.
32. Qo'chqortoyeva R. Tilshunoslikka kirish kursidan mashqlar. - T., 1989
33. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (Tilshunoslik tarixi). I - qism. - T.
34. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. - T., 2000.
35. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili lug'atining turkiy qatlami. - T., 2001
36. Rahmatullayev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. - T., 2002
37. Решетов В.В. Узбекский язык. Ч. 1. Введение. Фонетика. - T., 1959.
38. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T: O'zbekiston", 1992..
39. Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики. Труды по общему языкознанию. М. 1977
40. Трубетской Н.С. Основы фонологии. - М., 1960.
41. Филин Ф.П. Очерки по теории языкознания. - М., 1982.
42. Xolmanova Z. "Tilshunoslikka kirish" Ma'ruzalar matni. - T. 2000.
43. Хрестоматия по истории языкознания XIX-XX веков. - М., 1974.
44. Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.,
45. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. - T., 2002.
46. Uzoqov A. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi adabiyoti. - T.: O'zbekiston, 2008.
47. Boymirzayev F. Jahon adabiyoti. - T.: Musiq, 2006.
48. Jahon adiblari adabiyot haqida. To'plovchilar M. Sharafutdinova, Sh. To'ychiyeva. - T.: Mahnaviyat, 2010.
49. Komilov N. Tafakkur karvonlari (Sharq G'arbning sivilizatsiyaviy aloqalari). - T.: "Sharq", 2011.
50. Normatova Sh. Jahon adabiyoti. - T.: O'qituvchi, 2008.

IV. Elektron tahlim resurslari

51. <http://www.edu.uz/>

52. <http://lex.uz> <http://bimm.uz>

53. <http://ziyonet.uz>

54. <http://natlib.uz>